

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI
MAKTABGACHA TA'LIM KAFEDRASI

UMUMIY PSIXOLOGIYA
NAZARIYASI VA AMALIYOTI
fanidan

MA'RUZALAR MATNI



Termiz-2014 yil

ANNOTATSIYA

Ushbu ma'ruzalar matni nomutaxassis fakultet talabalari uchun tuzilgan bo'lib, talabalarga psixologiya fani haqida umumiy ma'lumotlar va bilimlar berish uchun mo'ljallangan.

**Ushbu ma'ruzalar matni kafedra yig'ilishining 2014 yil
29 avgustdagi 1-sonida tasdiqlangan**

Kafedra mudiri : b.f.n.M.Xolmuratov

Taqrizchi: o'qit. Berdiyeva H.B

Tuzuvchi: o'qit. Norbosheva M.O

HOZIRGI ZAMON PSIXOLOGIYASI

PSIXOLOGIYA FANI PREDMETI VA VAZIFALARI, FANLAR ORASIDA TUTGAN O`RNI

Har qanday konkret fan boshqa fanlardan o'z predmetining xususiyatlari bilan farq qiladi. Jumladan, geologiya ham, geodeziya ham Yer haqida bahs yuritadi, ammo ularning bir-biridan farqi shundaki, geologiya yerning tarkibi, tuzilishi va tarixini, o'rgansa, geodeziya Yerning ko'lami va shaklini o'rganadi. Psixologiya o'rganadigan hodisalarning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash yanada qiyinroq. Bu hodisalarni tushunish ko'p jihatdan psixologiya fanini egallash zaruratiga duch kelgan odamlarning dunyoqarashiga bog'liqdir. qiyinchilik kishilar aqlida allaqachonlardan buyon alohida hodisalar sifatida bo'rttirilib va hayotdagi boshqa ko'rinishlardan ajratilib kelindi. Chindan ham shu narsa mutlaqo ravshanki, mening yozuv mashinkasini idrok etishim qarshimdagi stol ustida turgan yozuv mashinkasining o'zidan, ya'ni real narsadan mutloqo boshqa va farq qiladigan narsa hisoblanadi; mening chang'ida yurishga bo'lgan istagim haqiqatda chagg'ida yurishga nisbatan allaqanday boshqa bir narsadir; mening Yangi yilni kutib olish haqidagi xotiram Yangi yil arafasida real tarzda yuz berganiga qaraganda farq qiladigan allaqanday bir narsa hisoblanadi va tasavvurlar tarkib topadi va ular psixik hodisalar (psixik funksiyalar, xususiyatlar jarayonlar, holatlar va boshqalar) deb nomalan boshladi. Bu hodisalarning alohida xarakteriga egaligini ularning odamlarni qurshab turgan tashqi olamdagi hodisalardan farq qilishda, insonning ichki dunyosiga tegishli ekanligida o'zga tashlanadi. Ularni real hodisalar va faktlarga qarama-qarshi qo'yiladigan ruhiy hayot («psixika» degan terminning o'zi yunoncha «psyuxe» so'zidan kelib chiqqan bo'lib, «ruh» degan ma'noni bildiradi) sohasidaga taalluqli deb hisoblashardi. Bu hodisalar «idrok», «xotira», «tafakkur», «iroda», «hissiyot» va boshqa shu kabi nomlar bilan guruhlariga ajratilib, hammasi birgalikda psixika, kishining psixik, ichki dunyosi, uning ruhiy hayoti va hakozaolar deb ataladigan tushunchalarni hosil qiladi.

Lekin psixologik fakt qanchalik qiziqarli bo'lishidan qat'iy nazar, ilmiy psixologiya uni ta'riflash bilangina cheklana olmaydi. Ilmiy jihatdan bilish hodisalarni tasvirlashdan ularni tushuntirib berishga o'tishni muqarrar talab qiladi. Keyingisi ana shu hodisalar bo'ysunadigan qonunlar mohiyatini ochib berilishini taqozo etadi. Shuning uchun ham psixologik faktlar bilan birgalikda psixologik qonunlar psixologiyada o'rganiladigan predmet bo'lib yuzaga chiqadi. Jumladan, ba'zi bir psixologik faktlarning yuzaga kelishida har gal buning uchun tegishli shart-sharoitlar mavjudligi muqarrar, ya'ni qonuniyatli bo'lishi kuzatiladi. Masalan, idrok etishni yuqorida keltirilgan nisbiy barqarorligi qonuniyatli xarakterga egaki, bunda faqat rangni idrok etishgina emas, balki narsaning katta-kichikligi va shaklini idrok etish ham barqarordir.

Maxsus tadqiqotlar shuni o'rsatadiki, idrokning barqarorligi kishida avval boshdanoq, ya'ni tug'ilishi bilan oq mavjud bo'lgan emas. U asta-sekinlik bilan, qat'iy qonunlarga binoan shakllana boradi. Agar idrokning barqarorligi mavjud bo'lmaganida, kishi tashqi muhitda mo'ljalni to'g'ri ola bilmasdi-tevarak-atrofidagi narsalarga nisbatan uning holati salgina o'zgarishi bilan ko'z o'ngida turgan olamning manzarasi keskin o'zgarib ketaverar, narsalar noto'g'ri idrok etilaverardi.

Garchi kundalik muloqot davomida boshqa odamlarni kuzatib borgan kishilar xulq-atvorining turli xil faktlari (xarakatlar, qiliqlar, ish bajarish va hokozolar) bilan bevosita munosabatda bo'lsalar ham, amalda o'zaro birgalikda xarakat qilishga bo'lgan ehtiyoj ularni tashqi xulq-atvor ortida yashirib yotgan psixik jarayonlarni farqlay bilishga majbur dasturilamal bo'lgan maqsadlar, mayllar, u yoki bu voqeadan ta'sirlanish zahirida esa xarakteriga xos asosiy belgilar holatlar ilmiy tahlil predmetiga aylanishidan ancha ilgari kishilarda bir-birlari to'g'risida sodda psixologik bilimlar to'plana boshlagan. Bu bilimlar avloddan-avlodga o'tgan holda tilda, halq ijodiyoti yodgorliklarida, san'at asarlarida o'z ifodasini topa bordi. U, jumladan, maqol va matallarda mujassamlasha boshladi: «O'n marta eshitgandan bir marta ko'rgan afzvl» (ko'z bilan ko'rgan holda idrok etish va xotirada saqlab qolishning eshitishga qaraganda afzalliklari haqida); «Odat-kishining ikkinchi tabiatidir» (tug'ma xulq-atvor turlari bilan raqobat qilaoladigan barqaror odatlarning roli haqida) va hokozolar.

Kishining shaxsiy hayot tajribasi ham unga psixika haqida muayyan tasavvur bera oladi: biron-bir tekstni qaytadan o'qib chiqish uning kishi xotirasida yaxshiroq saqlanib qolishiga yordam berishini, garchi «Takrorlash-ilmning onasi» degan maqol unga tanish bo'lmasa ham o'z shaxsiy tajribasidan bilib oladi.

Ijtimoiy va shaxsiy tajribada yuzaga kelgan sodda psixologik ma'lumotlar ilmiy psixologiyagacha yaratilgan psixologik bilimlarni tashkil etadi. Ular ancha keng miqyosli bo'lishi, ma'lum darajada tevarak-atrofdagi kishilarning xulq-atvoriga qarab ish qilishga yordam berishi, bir muncha to'g'ri bo'lishi va voqelikka mos kelishi mumkin. Lekin, umuman olganda, bu bilimlar sistemalikdan, teranlikdan, isbotlilikdan, mahrumdir va shunga ko'ra ham bilimlar kishi psixikasi to'g'risida odamlar bilan ularning u yoki bu xilda kutilayotgan holatlardagi xulq-atvorini tahmin qilish imkonini beradigan hamda ilmiy, ya'ni ob'yektiv va ishonarli bilimlarni talab qiladigan jiddiy (pedagogik, davolash, tashkilot va boshqa shu kabi) ish olib borish uchun mustahkam negiz bo'la olmaydi.

Xo'sh, ilmiy psixologiyaning predmeti nimalardan iborat? Ilmiy psixologiyaning predmeti deyilganda, avvalo psixik hayotning konkret faktlari nazarda tutiladi, psixik hayotga doir har bir fakt esa ham miqdor, ham sifat

jixatdan xarakterli xususiyatlarga ega. Masalan, psixologiya fani insonning tevarak-atrofdagi narsalarni idrok qilish prosessini tekshirib, juda muhim faktni aniqlagan: idrok sharoitlari o'zgarib tursa ham, idrok qilingan predmetning inson ongidagi obrazi nisbatan o'zgarmay qolaverar ekan.

Masalan, ko'zning to'r pardasiga ta'sir o'tkazish natijasida ro'y beradigan jarayonlar bilan ko'z soqqalarini tutashtiradigan va qochiradigan mushaklarning zo'riqishi natijasida hosil bo'ladigan hayajonlanishning o'zaro birgalikdagi xarakati narsadan uzoqlashish chog'ida uning hajmini idrok etishning nisbiy barqarorligini ta'minlovchi mexanizmlardan biri bo'lib hisoblanadi. Garchi narsa uzoqlashganda uning ko'z pardalarining ta'sirchan to'qimalaridagi tasviri tegishli tarzda kichrayadi, ammo ko'zning soqqalari bir-biridan qochishi chog'ida ko'z mushaklarining zo'riqishi o'zgarayotib, narsaning kichraygani emas, balki uning uzoqlashgani haqida axborot beradi.

Shunday qilib, psixologiya fan sifatida psixikaning faktlarini qonuniyatlarini va mexanizmlarini o'rganadi.

Ammo shu narsa ravshanki, keltirilgan ta'rif ham psixologiyaning predmeti to'g'risida so'z yuritilganda bo' psixik jarayonlar, xususiyatlar, holatlar va shu kabilarni o'rganadigan fan ekanligi haqidagi an'anaviy ta'riflar kabi juda muhim izoh talab qiladi. Psixik hodisalarning «alohida hodisalardan» ekanligi, ularning «ichki dunyoni» tashkil etishi haqidagi ta'kidlari o'z holicha psixikaning mohiyatini, uning o'ziga xos xususiyatini ochib bera olmaydi. psixika nima degan savolga javob berishdan oldin, eng avvalo, psixik hodisalarning mohiyati va xarkateri haqidagi tasavvurlar asrlar davomida qanday o'zgarib borganligiga, qisqacha bo'lsa-da nazar tashlash shart.

Psixologik ijtimoiy hayot extiyojlari qadim zamonlar ta'limotlardan buyon kishini tevarak-atrofidagi odamlar psixik jixatdan tuzilish xususiyatlarini farqlay bilishga va ularni o'z xatti-xarakatlarida hisobga olishga majbur etib kelgan. Dastlab bu xususiyatlarga jonning ta'siri deb izoh berilgan. «Jon» tushunchasining paydo bo'lishi ibtidoiy halqlarning animistik qarashlari bilan bog'liqdir. Ibtidoiy odamning tasavvurida ruh tanadan batamom ajratilmagan bo'ladi. Bunday tasavvurlar hayot hodisalari va ongni, shu jumladan, uyqu, o'lim, xushdan ketish va shu kabilarni noilmiy, primitivmaterialistik tarzda talqin qilish oqibatida tarkib topgandir. Ibtidoiy odam bu xildagi hodisalarning sabablarini tushuntirib berish vositalariga ega bo'lmasdan, bevosita idrok qilinadigan yuzadagi narsani haqiqiy mohiyat sifatida qabul qilib kelgan. Jumladan, tush ko'rish uxlayotganda tanani tark etib, yer yuzida kezib yuruvchi ruhning taassurotlari deb tasavvur qilingan.

Ibtidoiy odam o'limni hayotiy jarayonning oxirgi bosqichi tushunmagan. Shu bois o'lim uyquning bir turi sifatida idrok etilib, bunda ruh allaqanday sabablarga ko'ra tanaga qaytib kelmaydi deb izohlagan. Ibtidoiy odam bu hodisalarni tahminan quyidagicha tushungan ruh-kishining aynan o'zi; uning

ehtiyojlari va odatlari, hayot kechirish shart-sharoitlari tirik odamlarnikidekdir. Marhumlarning ruhlari ham go'yo odamlarniki kabi mashg'ulotlar va sosial tartib mavjud bo'lgan hamjamiyatni tashkil etarmish. Tirik odamlar va marhumlarning ruhi o'zaro aloqada bo'lib, moddiy va xujalik jihatdan bir-biriga bog'liqdir.

Yovvoyi odamning tabiat qarshisidagi ojizligi sababli individ (shaxs)ning ham, jamiyatning ham ruhdan ana shu tarzda tobeligi haqidagi tasavvurlar natijasida ruhga toat-ibodat tarzidagi munosabatlar tarkib topadi. Bu esa dinning dastlabki shakli edi.

Keyinchalik jamiyat taraqqiy eta borgan sari, planlashtirish va ijroning, jismoniy mehnat va «ishlab chiqarishning ma'naviy kuchlari»ning tabaqalashuvi, sinfiy jamiyatning paydo bo'lishi va munosabati bilan jonning moddiylikdan holi tabiati haqidagi g'oyalar paydo bo'ldi. Shu bilan birga antimistik, afsonaviy tasavvurlar o'rnini ruhni borliqning naturfilosofik manzarasi nuqtai-nazaridan tushuntirishga urinishlar egallay boshladi. Ioniylar naturfilo-soflari Fales (eramizdan oldingi VII-VI asrlar), Anak-simen (eramizdan oldingi V asr) va Geraklit (eramizdan oldingi VI-V asrlar) ruhni olamning ibtidosini tashkil etuvchi narsa (suv, havo, olov)ning odamlar va hayvonlarga jon ato etuvchi shakli tarzida talqin qilishgan. Qadimgi yunon faylasuflarining bu g'oyani izchillik bilan o'tkazishlari materializmning o'ziga xos shakli-materiyaning jonliligi (gilozoizm) to'g'risidagi xulosaga olib keldi. Bu materialistik g'oyalarning Demokrit (eramizdan oldingi V-IV asrlar) va Lukresiy (eramizdan oldingi I asr) kabi atomistlar tomonidan rivojlantira borishi oqibati o'laroq ruh tanaga jon bag'ishlovchi moddiy jism, shuningdek moddiy asos hisoblanmish aql, ya'ni, boshqacha qilib aytganda, hayotning butun jarayonini boshqarish vazifasini bajaruvchi idrok bilan idora etiladigan a'zo sifatida talqin etila boshladi. Ruh bilan aqlning o'zi tananing a'zolari bo'lgani uchun ularning o'zi ham tana hisoblanadi va, atomistlarning fikriga ko'ra, sharsimon, kichik va shuning uchun ham ancha xarakatchan atomlardan tarkib topadi. Bu fikrning soddaligiga qaramay unda jonli narsa-tananing eng sodd funksiyalaridan tortib to psixikaga, aql-idrokka qadar jonliligi xususiyatining materiyyagagina xos xususiyat ekanligining tasdiqlanishi progressiv hol edi.

Shunday qilib, psixik faoliyatni ilmiy tushunish yo'lidagi dastlabki yirik muvaffaqiyatlar uning fizikaviy olam qonunlariga bo'ysunishini isbot qilish bilan, uning ko'rinish-jamiyat va madaniyat haqidagi umumiy ta'limotga aylantirib, g'arb mamlakatlarida katta e'tibor qozondi.

Hozirgi paytda bixeviorizm va freydizm ibtidoiy «klassik» shaklidagi o'rnini aniq-ravshan ifodalangan biron-bir farqli belgisi bo'lmagan turli xildagi «sho"ba» oqimlarga (neobixeviorizm, neofreydydizm va shu kabilarga) bo'shatib berdi. Ulardagi mexanisizm va idealizm o'z qiyofalarini juda puxtalik va uddaburolik bilan niqoblab olishgan. Lekin bu oqimlar tashqi qiyofasini

o'zgartirigan bo'lsalar-da, o'zlarining ideologik ko'rsatmalari xarakterini saqlab qolgandir.

Determinizm prinsipi psixikaning turmush tarzi bilan belgilanishini va turmush tarzi o'zgarishiga qarab o'zgarishni anglatadi. Agar hayvonlar psixikasi haqida gapiriladigan bo'lsa u holda bu psixikaning rivojlanishi biologik qonun tarzidagi tabiiy tanlash bilan belgilanadi. Agar odamning psixikasi haqida gapiriladigan bo'lsa, u holda kishida ong shakllarining paydo bo'lishi va rivojlanishi pirovard natijada tirikchilikning moddiy vositalarini ishlab chiqarish usulini rivojlanish qonunlari bilan belgilanadi. Kishi ongining ijtimoiy-tarixiy xarakterga ega ekanligini tushunish kishi ongining ijtimoiy borliqqa bog'liqligi haqidagi umumiy materialistik prinsipidan kelib chiqadigan eng muhim xulosadir.

Ong va faoliyat birligining psixologiyada qabul qilingan prinsipi ong bilan faoliyat bir-biriga qarama-qarshi emas, lekin ular bir-biriga aynan o'xshash ham emas, ammo birlikni tashkil etishni bildiradi. Ong faoliyatni ichki rejasini, uning programmasini tashkil etadi. Voqelikning o'zgaruvchan modeli aynan ongda hosil bo'ladiki, odam o'zini qurshab turgan muhitda shuning yordamida mo'ljal oladi.

Ong faoliyatning birligi prinsipi psixologlarga xulq-atvorni, faoliyatni o'rganayotib, xarakterning maqsadlariga erishishning muvaffaqiyatini ta'minlovchi ichki psixologik mexanizmlarini aniqlash, ya'ni psixikaning ob'yektiv qonuniyatlarini ochish imkonini berdi.

Psixika va ongning faoliyatda rivojlanishi prinsipi shuni anglatadiki, psixika agar faoliyat samarasi va rivojlanish ma'suli sifatida qaraladigan bo'lsagina, u to'g'ri tushunilishi va aynan bir xil tarzda izohlab berilishi mumkin.

Psixikaning taraqqiyotini dialektik-materialistik nuqtai-nazardan tushunish psixik taraqqiyot odamning mehnat faoliyatiga, ta'limga, o'yin faoliyatiga bog'liq ekanligini aniqlab berdi. Bunda ijtimoiy tajribani o'zlashtirishning yuz berishi odam uchun aynan xos bo'lgan psixik taraqqiyotning shakli sifatida xizmat qiladi. **L.S Vigotskiy ta'lim psixikaning rivojlanishini yo'naltiradi**, degan fikrni aytib, shu bilan birga bu jarayonda ongli faoliyatning yangi, mutloqo boshqacha shakllari yaratiladi, deb ta'kidlaydi. **P.P.Blonskiy** tafakkurning kichik maktab yoshida o'yinlar bilan, o'spirinlik yoshida o'qish bilan bog'liq tarzda rivojlanishini tahlil qiladi. **S.L.Rubenshteyn ong faoliyatda paydo bo'lib, ana shu faoliyatda shakllanadi**, deb yozgan edi. **B.M.Teplov** odamning eng muhim individual-psixologik fazilatlaridan bo'lgan qobiliyatni tadqiq qilarkan, qobiliyat faqat rivojlanishda mavjud bo'ladi, deb ta'kidlaydi. Lekin rivojlanish faoliyat jarayonidan bo'lak boshqacha mo'hitda yuz bermaganidek, «qobiliyat tegishli konkret faoliyatdan ajralgan holda paydo bo'la olmaydi».

Hozirgi zamon psixologiyasi shakllanishining turli bosqichlarida bo'lgan va amaliyotning har-xil sohalarini bilan bog'liq ilmiy fanlarning juda ham keng tarmoqli sistemasini tashkil etadi.

Psixologiyaning ko'p sonli tarmoqlarini qay tarzda tasniflash mumkin? Tasnif imkoniyatlaridan biri yuqorida bayon qilingan psixikaning faoliyatda rivojlanishi prinsipida mujassamlashgandir. Ana shunga tayangan holda psixologiya tarmoqlarini tasnif qilish uchun quyidagi psixologik jihatlar asos qilib olinishi mumkin;

1. konkret faoliyat,

2. rivojlanish,

3. odamning (rivojlanish va faoliyat ko'rsatuvchi ob'yekt sifatida) jamiyatga (kishining faoliyati va rivojlanishi ro'y beradigan muhitga) nisbatan munosabatlari

Agar tasnif uchun birinchi asos qabul qilinadigan bo'lsa, u holda psixologiyaning kishi faoliyatining turlariga taalluqli psixologik problemalarni o'rganadigan qator sohalarini alohida ko'rsatib o'tish mumkin.

Mehnat psixologiyasi kishi mehnat faoliyatining psixologik xususiyatlarini, mehnatni ilmiy asosda tashkil etish (MIT)ning psixologik jihatlarini o'rganadi. kishining kasbkorlik xususiyatlarini, mehnat malakalari rivojlanishining qonuniyatlarini tadqiq qilish, ishlab chiqarishdagi vaziyatning, asbob-uskunalar va stanoklarning, signalizatsiya vositalarining konstruksiyalari va joylashtirilishi hamda shu kabilarning mehnat ahliga ta'sirini aniqlash mehnat psixologiyasining vazifalari jumlasiga kiradi. Mehnat psixologiyasi qator bo'limlarga ega bo'lib, bu bo'limlar garchi bir-biri bilan va psixologiyaning boshqa sohalarini bilan mahkam bog'langan bo'lsa ham, ayni chog'da mustaqil hisoblanadi. Jumladan, asosan avtomatlashtirilgan boshqaruv sistemalari operatorining faoliyatini o'rganadigan, odam bilan mashina o'rtasida vazifalarni taqsimlash va muvofiqlashtirish hamda shu kabi boshqa muammolarni hal etadigan **injenerlik psixologiyasi** kishining uchishni o'rganish va uchish jarayonidagi faoliyatining psixologik qonuniyatlarini tadqiq qiladigan **aviasiya psixologiyasi**; vaznsizlik va bo'shliqda aniq mo'ljal ola bilmaslik sharoitida, organizmga juda ko'p ortiqcha ta'sirotlar yuklangan paytda ro'y beradigan nerv-psixik zo'riqishi Bilan bog'liq bo'lgan alohida holatlar tug'ilganda kishi faoliyatining psixologik xususiyatlarini tadqiq qiladigan kosmik psixologiya va shu kabilar.

Pedagogik psixologiya kishiga ta'lim va tarbiya berishningt psixologik qonuniyatlarini o'rganishni o'z predmati deb biladi. U o'quvchilarda tafakurning shakllanishini tadqiq qiladi, aqLiy faoliyat usullari va ko'nikmalarini o'zlashtirish jarayonini boshqarish masalalarini o'rganadi, o'qitish jarayonining muvaffaqiyatlilikiga pedagog Bilan o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarga va o'quvchilar kollektividagi munosabatlarga ta'sir qiluvchi psixologik omillarni,

o'quvchilardagi individual-psixologik farqlarni, psixik rivojlanishida orqada qoluvchi bolalar Bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiya ishlarining o'ziga xos xususiyatlarini, kata yoshdagilarni o'qitish jarayonida ular Bilan ishlashning psixologik xususiyatlarini vash u kabilarni aniqlaydi. Ta'lim psixologiyasi (ditaktikaning, xususiy metodikalarning, programmalashtirilgan o'qitishning, aqliy xarakatlarni shakllantirishning psixologik asoslari va boshqalar), tarbiya psixologiyasi, o'qituvchi psixologiyasi, aqli zaif bolalarni o'qitishi va tarbiyalash psixologiyasi pedagogik psixologiyaning bo'limlari yoki tor sohalari hisoblanadi.

Tibbiyot psixologiyasi vrach faoliyatining va bemor xulq-atvorining psixologik jihatlarini o'rganadi. U psixik xodisalar Bilan miyadagi fiziologik tuzilishlar o'rtasidagi nisbatni o'rganadigan netropsixologiyaga, dorivor moddalarning kishining psixik faoliyatiga ta'sirini o'rganadigan psixofarmakologiyaga bemorni davolash uchun psixik ta'sir vositalarini o'rganuvchi vash ug'ullanuvchi psixoterapiyaga, odamlarning psixik jihatdan salomatligini ta'minlash chora-tadbirlari sistemasini ishlab chiqish Bilan shug'ullanuvchi psixoprofilaktika va psixogigenaga bo'linadi.

Yuridik psixologiya xuquq - sistemasining amal qilishi Bilan bog'liq psixologik masalalarni o'rganadi. U jinoiy jarayon ishtirokchilarning xulq atvorining psixik xususiyatlarini (guvohlik ko'rsatmalarning psixologiyasining ayblanuvchi xulq atvorining xususiyatlari, tergovga qo'yiladigan psixologik talablar vash u kabilarni) tadqiq qiluvchi sud psixologiyasiga; jinoyatchining xulq atvori shaxsning shakllanishiga doir psixologik muammolar, jinoyatning motovlarning va shu kabilar Bilan shug'ullanuvchi kriminal psixologiyasiga; ahloq tuzatish-mehnat kolloniyasiga qamalib yotganlarning psixologiyasining ishonitirish va majburlash metodlari Bilan tarbiyalashning psixologik problemzlarini va shu kabi masalalarni o'rganadigan penitensiar yoki ahloq tuzatish mehnat- psixologiyasiga bo'linadi.

Harbiy psixologiya kishining harbiy xarakatlar sharoitidagi xulq-atvorini, boshliqlari va xodimlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning psixologik jihatlarini, psixologik propaganda va kontrapropaganda metodlarini, harbiy texnikani boshqarishning psixologik muammolariniva shu kabi boshqa masalalarni tatqiq qiladi.

Sport psixologiyasi sportchilar shaxsi va faoliyatining psixologik xususiyatlarini ularni psixologik jihatdan tayyorlashning shart-sharoitlarini va vositalarini sportchining Mashqly chiniqqanligi safarbarligiga tayyorligining psixologik mezonlarini, musobaqalarni tashkil eti shva o'tkazish Bilan bog'liq psixologik omillarni o'rganadi.

Savdo psixologiyasi asosan kapitalistik mamlakatlarda keng rivojlanga bo'lib, tijorat ta'sirining psixologik shart-sharoitlarini ehtiyojning individual, yoshga oid va boshqa xususiyatlarini xaridorlarga xizmat ko'rsatishning

psixologik omillarini aniqlaydi, moddalar psixologiyasi va boshqa maslallarni taqiq qiladi.

Keyingi vaqtlarda ilmiy ijodiyot psixologiyasi maslalarini (ijodkor shaxsning xususiyatlari, ijodiy faollikni Rag'batlantiruvchi omillar, ilmiy kashfiyotlar qilishda ichki sezgi hissining roli va boshqalar) o'rganish boshlanadi. Ilmiy ijodiyot psixologiyasining o'ziga xos bo'limini evristika tashkil etadi-ki uning vazifasi faqat ijodiy faoliyatning qonuniyatlarini tadqiq qilishdan emas, balki evristik jarayonlarni boshqarish metodlarini ishlab chiqishdan ham iboratdir. Va nihoyat, badiiy ijodiyot (adabiyot va san'at sohasida) va estetik idrok (shubhasiz ahamiyatga ega bo'lgan, hali juda sust o'rganilgan soha) psixologiyasi ham mavjud.

Agar psixologiyaning shahobchalarini tasnif qilishda rivojlanishning psixologik jihatlari asos qilib olinadigan bo'lsa, u holda biz uning rivojlanish prinsipi amal qiladigan sohalariga duch kelamiz.

Yosh psixologiyasi turli xildagi psixik jarayonlarni ontogenezi va rivojlanayotgan kishi shaxsining psixologik fazilatlarini o'rganadi. U bolalar psixologiyasiga o'smirlar psixologiyasiga, yoshlik psixologiyasiga, katta yoshdagi odam psixologiyasiga, gerontopsixologiyasiga bo'linadi. Yosh psixologiyasi psixik jarayonlarning yoshga oid xususiyatlarini, bilimlarni o'zlashtirishning yoshga bog'liq imkoniyatlarini, shaxs kamolotining omillari va masalalarni tadqiq qiladi. Yosh psixologiya o'rganadigan asosiy masalalardan biri o'qitish va aqliy jihatdan kamol toptirish hamda ularning o'zaro bog'liqligi prablemasi bo'lib, u psixologlar tomonidan keng muhokama qilinib kelinayotir. Psixologlar aqliy kamolotning ishonchli mezonlarini qidirib topi shva o'qitish jarayonida aqliy rivojlanish samaradorligiga erishish imkonini beradigan shart-isharoitlarni aniqlash Bilan banddirlar.

Anomal (noto'g'ri) taraqqiyot psixologiyasi yoki «maxsus psixologiya» rivojlanish jarayonida psixikaning aynishi, miyadagi kasallikning turli xildagi kechishi jarayonida psixikaning tamomila izdan chiqishi kabi hollarni o'rganadigan patopsixologiyaga psixik rivojlanishning miyadagi tug'ma asoratlari Bilan bog'liq patologiyasi to'g'risidagi fan bo'lgan oligofrenopsixologiyaga, quloq eshitishining butunlay kar bo'lib qolishga qadar jiddiy kamchiliklari bo'lgan bolani voyaga yetkazish psixologiyasi bo'lmish surdopsixologiyaga yaxshi kfrmaydigan va ko'rlar rivojlanishi psixologiyasi tiflopsixologiyaga bo'linadi.

Qiyosiy psixologiya-psixologiyaning psixik hayotning filogenetik shakllarini tadqiq qiladigan sohasidir. Qiyosiy psixologiyada hayvonlar va odam psixikasi qiyoslanadi. Ularning xarakterlari, fe'l-atvoridagi mavjud o'xshashlik va farqlarning sabablari aniqlanadi. Zoopsixologiya qiyosiy psixologiyaning bo'limi bo'lib, u turli sistematik guruhlariga mansub (turlarga, turkumlarga, oilalarga mansub) hayvonlar psixikasini, xatti-xarakatining eng muhim shakllari

va mexanizmlarini o'rganadi. Qiyosiy psixologiyaning klassik ob'yektlari (o'rgimchak, chumoli, asalari, qushlar, itlar, otlar, maymunlar) safiga hozirgi paytda kitsimonlar (delfinlar) ham qo'shiladi. Hayvonlarning xatti-xarakatidagi tug'ma mexanizmlar biologiya va psixologiyaning nisbatan Yangi sohasi egologmiyaning maxsus tadqiqot ob'yekti hisoblanadi.

Agar psixologiyaning shahobchalarini shaxs Bilan jamiyat o'rtasidagi munosabatlarning psixologik jihatlari nuqtai-nazridan tasnif qilinadigan bo'lsa, u holda psixologiya fanining sosial psixologiya tushunchasi zahirida birlashadigan fohalarining Yana bir qatori ajralib chiqadi.

Sosial psixologiya odamlarning turli xildagi uyushgan va uyushmagan ijtimoiy guruhlardagi o'zaro birgalikdagi xarakati jarayonida vujudga keladigan psixik hodisalarni o'rganadi. Hozirgi paytda sosial psixologiya strukturasiga quyidagi uchta sohaga oid muammolar kiradi.

Katta gruppalarda (makromuhitda)gi sosial-psixologik hodisalar. Ularga ommaviy kommunikasiya (radio, televideniye, matbuot va boshqalar) muammolari, ommaviy kommunikasiya vositalarining odamlarning turli xildagi jamoalariga ta'sir qilish mexanizmlari va samaradorligi, moddalarning, mish-mishlarning, umumiy qabul qilingan did, rasm-rusumlar, soxta fikrlar, ijtimoiy kayfiyatlarning tarqalish qonuniyatlari, sinflar va millatlar psixologiyasi muammolari din psixologiyasi kiradi.

Kinik deb atalmish guruhlardagi (mikromuhitdagi) sosial-psixologik hodisalar. Bularga tor doiradagi guruhlardagi tutashuvi yuz beradi, ikkinchidan, psixologiya fanining o'zida ham ilgari o'zaro bog'lanmagan sohalarini birlashtiradigan ichki imkoniyatlar borligi aniqlanmoqda. Jumladan, sovet psixologiyasida shaxs bevosita mehnat faoliyatida emas, balki qaror topayotganligiga asosan sosial psixologiyaning mehnat psixologiyasi Bilan yaqinlashuvi kutilayotir.

Psixologiyaning boshqa sohaları orasida umumiy psixologiya deb ataladigan sohasi alohida tushuncha o'rin egallaydi. u psixologiya fanining pedagogik, yuridik, tibbiy, harbiy, qiyosiy psixologiya vash u kabi shahobchalari Bilan bir qatorga qo'yilishi mumkin bo'lgan shahobchasi emas. Umumiy psixologiya-bu psixologiya tomonidan aniqlanadigan eng muhim qonuniyatlarni, bu fanda qo'llaniladigan tadqiqot metodlarini, u amal qiladigan nazariy prinsiplarni, unda ishlatiladigan asosiy ilmiy tushunchalarni ta'riflash uchun qo'llaniladigan maxsus nomdir. Psixologiyaning yuqoridag aytib o'tilgan sohalarida amalga oshiriladigan konkret tadqiqotlardan fikran mavhumlashgan holdagina bu prinsiplar, metodlar, qonuniyatlar va tushunchalarni aniqlash va izohlab berish mumkin.

Umumiy psixologiya ba'zan nazariy va eksperimental psixologiya deb ham ataladi. Uning vazifalari psixologiyaning metodologiyasi va tarixini, psixik hodisalarning hosil bo'lishi rivojlanishi va saqlanib qolishining eng umumiy

qonuniyatlarini tadqiq qilish nazariyasi va metodlarini o'rganishdan iboratdir. Umumiy psixologiya bilish va Amaliy ish faoliyatini, sezgilarning, idrokning, xotiraning, hayolning, tafakkurning umumiy qonuniyatlarini, psixik jihatdan o'zini-o'zi idora qilishni, kishi shaxsining differensial-psixologik xususiyatlarini, xarakter va temperamentni, xulq-atvorining ustunlik qiluvchi motivlarini va shu kabilarni o'rganadi. Umumiy psixologiya Fani barcha sohalari va bo'limlarini rivojlantirishning asosiy negizidir.

Psixik jarayonlarga odatda bilish jarayonlari; sezgi organlariga bevosita ta'sir qiladigan narsalarning, ya'ni qo'zg'atuvchilarning in'ikos sifatidagi sezgilar va idrokni, voqelikning yangilanib turadigan aksi sifatida xotirani, voqelik xususiyatlarining kishi ongida umumlashgan va qaytadan in'ikos qilingan hamda bevosita bilish qiyin bo'lgan hayol va tafakkurni; irodaviy jarayonlarni; emosional yoki hissini kiritishadi.

Psixologik tadqiqot metodlari psixologiya amal qildaigan nazariy prinsiplarga va psixologiyaga va psixologiya hal etayotgan konkret vazifalarga bog'liq ekanligini ko'rsatib beradi.

Psixologiyaning nazariy negizini dialektik va tarixiy materializm tashkil etadi, shuning uchun ham psixologik tadqiqotga prinsipial yondoshuv dialektik metod talablaridan kelib chiqadi. Dialektik metod:-predmetni uning barcha aloqalari va bevosita ifodalari orqali o'rganishni va eng avvalo hodisa va qonuniyatlarning muhim aloqalari va munosabatlarini aniqlashni o'rganilayotgan narsani rivojlanish jarayonida deb qarashni, ziddiyatlarning, birlikning va qarama-qarshiliklar kurashining, miqdorning sifatga o'zgarishining ochib berilishini taqozo qiladi. Psixologiya metodlariga tarixiy jihatdan yondoshmoq darkor. Shu jihatdan psixologiya metodlari uning alohida tadqiqot metodlariga ega bo'lishi zarurligi haqidagi fikrni ilgari surmasdan qo'ymasdi.

Idealistik psixologiya yagona bir metodni tavsiya eta olgan va u shu metod yordamida kishi «ruhi»ga kirib borishga uringan. O'z-o'zini kuzatish (yoki introspeksiya, ya'ni ichkaridan ko'rish) ana shunday metod edi.

Ruhiy hodisalarni tadqiq qilishning amalda yagona metodi sifatida o'z-o'zini kuzatishning tanlanganligi «ruh» (psixika, ong)ning tashqi olam bilan bog'lanmagan va shuning uchun ham ichkaridan turib ko'rishdan bo'lak boshqa bironta ham usul bilan o'rganib bo'lmaydigan alohida bir tor ichki olam, alohida bir ruhiy substansiya (birlamchi asos) ekanligi haqidagi tasavvurlar bilan izohlanadi. Bunda sub'yektiv metod sifatidagi o'z-o'zini kuzatish metodi boshqa ijtimoiy va tabiiy fanlar qo'llanib kelayotgan metodlarga qarshi qo'yiladi.

Shu asnoda o'z-o'zini kuzatish psixologiyaning yagona metodi sifatida tan olinishi go'yo faoliyati tabiat qonunlariga bo'ysunmaydigan alohida nomoddiy ruhning psixologiya o'rganadigan predmet sifatida tan olinishi xom xhayoldir. Faqat o'z-o'zini kuzatish fo'li bilan olingan ma'lumotlar xatto bunday kuzatish maxsus tayyorlangan psixologlarga topshirilgan taqdirda ham, ilmiy aniqlikdan

mahrumdir. Katta yoshdagi ma'lumotli kishining o'z-o'zini kuzatish ma'lumotlariga asoslanib, kichik yoshdagi bolaning yoki hayvonning psixikasi haqida mulohaza yuritishga urinilari esa ilmiylikdan yana ham uzoqroqdir. Shunday qilib, qator faktlar psixologiyaning o'z bilimlari fondini o'z-o'zini kuzatish yordamida emas, balki ob'yektiv metodlar yordamida boyitilayotganligini tasdiqlab turibdi.

Introspeksiya imkoniyatlarining puch hayol ekanligi psixik in'ikos faoliyatining mohiyati va o'ziga xos xususiyatini tushunishdan ham kelib chiqadi. Odam introspektiv ravishda «o'ziga nazar tashlash»ga, o'zidagi psixik jarayonlarni, ularning aloqalarini, bog'liqligini, mexanizmlarini ko'rishga urinarkan, psixik xususiyatlari bilan miyaning o'zini emas, baribir, «tashqarini, miyada aks etgan ob'yektiv olamni ko'radi. Shuning uchun introspeksiya ham idealist psixologlar tilga olishgan ruh kabi xom hayolga aylanib qoladi.

Psixikani tadqiq qilishning maxsus bevosita metodi sifatida o'z-o'zini kuzatishni inkor etish umuman o'z-o'zini kuzatishni batamom inkor etishga olib kelmaydi. Odam nimani ko'rayotgani, eshityotgani, his qilayotgani, boshdan kechirayotgani, istayotgani va shu kabilar haqida og'zaki hisobot bera oladi. Bu shakldagi kuzatish tamomila o'rinlidir. Bu xildagi og'zaki hisobot kishi psixik holatining har qanday tashqi ob'yektiv ifodasi va ko'rinishi sifatida qayd qilinadi. Lekin shuni ta'kidlash joizki, bunday holda biz tadqiqot metodiga emas, balki ob'yektiga duch kelamiz. Shuningdek o'z-o'zini kuzatish yo'li bilan o'z qiliqlarimizni va hatti-xarakatlarimizni kuzatish, ya'ni prinsip jihatidan ularni bunday qiliqlarni o'rgaunvchi boqa odamlar ihtiyoridagi kabi vositalar yordamida tadqiq va tahlil qilish imkoniyati ham mavjuddir. Biroq bu xildagi o'z-o'zini kuzatish tadqiqotning bevosita emas, balki bevosita metodi bo'lganligi vajidan uni introspeksiya bilan aynan bir xil deb bo'lmaydi. U sub'yektiv talqinlarga yo'l qo'yilishi ehtimoli borligi sababli oddiy kuzatishga nisbatan faqat ishonchliligi darajasining kamligi bilan ajralib turadi. Va nihoyat, introspeksiyaning o'z navbatida bevositalik xarakteriga ega bo'lgan va og'zaki hisobot, hususiy qiliqlarni va shu xususdagi xulosalarning tahlili ma'lumotlarini o'rganishdan, hususiy fikrni boshqa odamlarning fikrlari bilan solishtirib ko'rishdan va shu kabilardan iborat refleksiya (o'zining psixikasiga xos xususiy holat va xislatlar haqida mulohaza yuritish va tashvishlanish) bilan aralshtirilib yubormaslik kerak.

Psixologiyada tadqiqotning **sub'yektiv va ob'yektiv** metodlari bir-birini inkor etishadi. Haqiqiy ilmiy psixologiya psixikani o'rganishning ob'yektiv metodlaridan foydalanish va fanda bundan boshqa metodlarning bo'lishi mumkin emasligini tushunish negiziga qurilishi kerak. Hozirgi zamon psixologiyasining ilmiy tadqiqotga nisbatan yana bir muhim talabi psixik faktlarni genetik (tarixiy jihatdan o'rganish prinsipiga amal qilishni taqozo etadi. genetik prinsipning mohiyati shundan iboratki, o'rganilayotgan psixik hodisaga

jarayon deb qaraladi va tadqiqotchi uning dialektik rivojlanishining barcha ?
moma Psixologiyaning. Barcha tabiiy va ijtimoiy fanlar singari asosiy metod_
psixologiya ham bundan keyingi tahlilni taqozo qiluvchi faktlarni
to'plashning ikkita metodiga o'z navbatida qator shakllari mavjud bo'lib,
ularning mohiyatini o'zgartirmaydigan kuzatuv va eksperiment o'tkazish
metodlariga egadir. Psixologiyada ilmiy bilishning ushbu vositalari mavjudligi
(garchi bu har qanday fanda, umuman olganda, tamomila va o'z-o'zidan
tushunarli deb hisoblansa ham) ni alohida ta'kidlash zarurati shundan kelib
chiqadiki, idealistik psixologiya yuqorida bayon etilgan sabablarga ko'ra,
kuzatuvni o'z-o'zini kuzatish (introspeksiya) bilan cheklab, psixologik
tadqiqotda, ayniqsa oliy darajadagi psixik jarayonlarni o'rganishda,
eksperimentning biron-bir jiddiy rol o'ynashini inkor etib keldi.

Kuzatuv agar u tashqi hodisalarni tasvirlash bilan cheklanibgina
qolmasdan, balki ushbu hodisalarning psixologik tabiatini izohlab berish
darajasiga ko'tarilsa, psixik tadqiqot metodi bo'la oladi. Kuzatuvning mohiyati
psixologik faktlarni faqat hisobga olishdan emas, balki bu psixologik faktlarning
sabablarini ilmiy nuqtai-nazardan izohlab berishdan iboratdir. Faktlarni hisobga
olish bilan turmushdagi oddiy kuzatuvlar deb atalmish kuzatishlar chog'ida
shug'ullanadiki, kishi u yoki bu ishlar, hatti-xarakatlarning sabablarini tusmol
bilan izohlaydi. Turmushdagi kuzatuvlar uyushmaganligi va rejasizligi bilan
farq qiladi. Unda psixik faktning hosil bo'lishi va uning kechishiga ta'sir
qiladigan barcha muhim shart-sharoitlar kamdan-kam hisobga olinadi.
Turmushdagi son sanoqsiz psixologik kuzatuvlarning natijalari maqol va
matallarda mujassamlashgan va o'rganish uchun muayyan qiziqish tug'diradi.
Ilmiy psixologik kuzatuv turmushdagi kuzatuvdan farqli o'laroq, xulq-atvor va
faoliyatning kuzatilayotgan faktini tasvirlashdan uning ichki psixologik
mohiyatini tushuntirib berishga muqarrar o'tilishini taqozo etadi. Kuzatuv
jarayonida hosil bo'ladigan gipoteza ana shu o'tishning shakli hisoblanadi. Uni
tekshirish yoki rad etish esa keyingi kuzatuvlarda hal bo'ladi. Psixologik
kuzatuvlarning jiddiy muhim talablari aniq planning bo'lishi va shuningdek
olingan natijalarning maxsus kundalikda qayd etilishidan iborat.

Faoliyat mahsulini psixologik jihatdan tahlil etish kuzatuv turlaridan
hisoblanadi. Bu hoda faoliyatning bamisoli o'zi emas, balki uning mahsuli
o'rganilayotganday bo'ladi. Lekin amalda xarakat natijasida yuzaga chiqadigan
psixik jarayonlar o'rganish ob'yekti hisoblanadi. Jumladan, bolalar
psixologiyasida chizgan rasmlarni o'rganish katta rol o'ynaydi. Shaxsni turli
xildagi faoliyat jarayonida kuzatuvda hosil bo'lgan erkin xarakteristikalarini
umumlashtirish metodi ham shular jumlasiga kiradi.

Yangi psixologik faktlarga ega bo'lishning va ob'yektiv tarzda ilmiy
bilishning yuz yil mobaynida psixologiyadagi mavqega 'ga bo'lgan bu metod

hozirgi paytda psixologik bilimlarning bosh ta'miotchisi va ko'pgina nazariyalar uchun negiz bo'lib xizmat qilmoqda.

Kuzatishdan farqli o'laroq psixologik eksperiment tadqiqotchining sinalayotgan faoliyatga faol aralashuvi mumkinligini nazarda tutadi. Jumladan, tadqiqotchi psixologik fakt aniq namoyon bo'lishiga, uning eksperimentchi hohlagan yo'nalish bo'yicha o'zgartirilishiga, har jihatdan tadqiq qilish uchun bir necha martalab takrorlanishiga imkon beradigan shart-sharoitni yaratadi.

Eksperiment metodining ikkita asosiy turi farqalanadi: **labaratoriya eksperimenti** va **tabiiy eksperimenti**.

Labaratoriya eksperimentining xarakterli belgisi faqat uning labaratoriya sharoitlarida maxsus psixologik asbob uskunalar yordamida o'tkazishlarida va sinaluvchining xatti xarakatlari yo'l-yo'riqqa binoan sodir bo'lishi bilangina emas, balki sinalayotganligini biladigan sinaluvchi (garchi, odatda, sinalayotgan kishi eksperimentning mohiyati nimadan iboratligini, konkret nimani va nima maqsada tadqiq qilishayotganini bilmasa ham) kishining munosabati bilan ham belgilanadi. Labaratoriya eksperimentni yordamida diqqatning xossalarini, idrok, xotira va boshqalarning o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq qilish mumkin. Hozirgi paytda labaratoriya eksperimenti ko'pincha shunday tarzda o'tkazishadi-ki, unda odam odatdagi sharoitlarda bajarishi mumkin bo'lgan faoliyatning ba'zi psixologik jihatlari modellashtirilib qo'yiladi.

Jumladan, eksperimentda anchagina xissiy zo'riqish vaziyati modellashtirilib, uning jarayonida sinaluvchi, masalan, kasbi-kori uchuvchi bo'lgan kishi anglanilgan. Yechimlar qabul qilishi yuksak darajadagi uyg'unlikni taqozo etadigan murakkab xarakterlar qilishi priborlardagi ko'rsatkichlarga munosabat bildirilishi va xakozolar belgilab qo'yilgan bo'lishi mumkin.

Tabiiy eksperiment (birinchi marta 1910 yilda A.F.Lazurskiy taklif etgan) mo'ljallanganiga ko'ra eksperiment o'tkazilayotganini biladigan sinaluvchiga hosil bo'ladigan zo'riqishga yo'l qo'ymasligi va tadqiqotni odatdagi, tabiiy sharoitlarda (dars, suhbat, o'yin, uy vazifalarini bajarish va boshqalar) ko'chirilishi mumkin. Materialni yodlashning samaradorligi uni uzoq vaqt xotirada saqlab qolish to'g'risidagi ko'rsatmaga bog'liqligini tadqiq qilish tabiiy eksperimentning haqiqiyligiga, ya'ni manzur test qay tarzda tuzilganiga uning oldindan o'tkazilgan juda katta eksperimental ishning natijasi hisoblanadimi, yoki taxminiy tasodifiy va yuzaki kuzatuvlar natijasimi ekanligiga ko'p jihatdan bog'liqdir. Yetarli darajada asoslanmagan tekshirilmagan psixologik testlar pedagogika ishida, kasb tanlash sohasida, psixik rivojlanishdagi nuqsonlar va vaqtinchalik kechikishlarni aniqlashda anchagina ziyon keltirishi mumkin bo'lgan jiddiy xatolarga sabab bo'lishi mumkin.

«Psixologik tadqiqot metodi» tushunchasi konkret ilmiy psixologik muammoni hal etishning maxsus metodikasi ma'nosida ham ishlatilishi

mumkin. Ana shu konkret metodikalarda, o'z-o'zidan ravshanki metodologik prinsiplar amalga oshiriladi va faqat mazkur muammo uchun emas, balki bilishning boshqa ko'plab muammolari uchun ham umumiy bo'lgan usulari yuzaga chiqadi. Lekin konkret metodikalarning o'ziga xosligi eng avvalo ular vositasida hal etilayotgan ilmiy vazifaning qanday xarakterda bo'lishi bilan belgilanadi. Hozirgi zamon psixologiyasida qo'llanilib kelayotgan konkret psixologik metodikalar haddan tashqari ko'pdir. Ularning shakllari ham juda turli-tuman bo'lib, psixologiyaning va muammoning muayyan tadqiqot usulini, ya'ni konkret metodikasini talab qilgan sohasining o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi.

Shu bilan birga konkret psixologik metodikalarning ko'pchiligi uchun xos bo'lgan ba'zi umumiy belgilarni ham alohida ajratib ko'rsatish mumkin. Buni normal rivojlangan va aqliy jihatdan zaif bolalarda (oligofrenlarda) diqqatning barqarorligidagi yoshga taalluqli tafovutlarni o'rganish vazifasi qo'yilgan tadqiqot misolida ko'rib chiqamiz.

Tadqiqot odatdagidek to'rt bosqichga ajratiladi.

Birinchi bosqich-tayyorgarlik bosqichi.

Bunda har-xil vositalar yordamida material o'rganiladi, dastlabki ma'lumotlar to'planadi (o'quv mashg'ulotlari va mehnat faoliyati chorida, turmushda ataylab uyushtirilgan suhbatlar jarayonida kuzatuvdan foydalaniladi, ba'zan maxsus tanlangan savollar yozilgan anketalar qo'llaniladi, biografik ma'lumotlar aniqlanadi, anamnez to'planadi, ya'ni tadqiq qo'llanilayotgan faktning hosil bo'lishiga qadar mavjud shart-haroitlar ta'riflanadi va hokozolar).

Biz ko'rib chiqayotgan tadqiqot davomida normal rivojlangan va miyaning ishida tug'ma kamchiliklari bo'lgan hamda yordamchi maktablarda o'qiyotgan bolalarda diqqatning barqarorligi (ya'ni topshirilgan xarakatni deyarli xatosiz va alahsimasdan bajarishi) kuzatildi. bu kuzatishlar turli xil vaziyatlarda utkazilib, qo'shimcha ma'lumotlar bilan qo'shib olib boriladi.

PSIXIKA VA UNING TARAQQIYOTI

Psixika miyaning xususiyatidir. Sezgi, fikr, ong maxsus tarzda tashkil topgan materiyaning oliy maxsulidir. Organizmning psixik faoliyati tananing ko'p sonli maxsus a'zolari vositasida amalga oshiriladi. Ulardan ba'zi birlari taassurotlarni qabul qilsa, boshqasi ularni signallarga aylantiradi, xatti-xarakat rejasini tuzadi uning ijrosini nazorat qiladi, uchinchi biri xili xatti-xarakatga kuch g'ayrat va shiddat bag'ishlaydi, to'rtinchi xili mushaklarni xarakatga keltiradi va xakozo. Ana shu murakkab ishning hammasi organizmning tashqi muhitga faol muvofiqlashuvini hayotiy vazifalrini hal etilishi ta'minlaydi.

Organik dunyoning amyoblardan to odamga qadar uzoq davom etgan evolyusiyasi davomida xulq-atvor xatti-xarakatlarning fiziologik mexanizmlari

to'xtovsiz murakkablashib, tabaqalanib shular tufayli organizm muhit o'zgarishlariga tez reaksiya qila oladigan va moslashuvchan bo'la bordi.

Bir hujayrali, masalan amyoba kabi organizm na ovqatni idrok etish uchun, na uni izlash uchun, na uni hazm qilish uchun hech qanday ixtisoslashagn a'zolarga ega emas. Yolg'iz bittagina hujayraning o'zi ham sezuvchi, ham xarakatlanuvchi ham ovqat hazm qiluvchi a'zo bo'lsa kerak. Ko'rinib turibdiki amyobaning hayot kechirish imkoniyatlari, uning ovqat qidirib topish, o'z hayotini saqlab qolish qobiliyati o'ta cheklangandir. Yuksak taraqqiy etgan hayvonlarda a'zolarining ixtisoslashuvi, ozuqani farqlash, xavf-xatarni juda tez aniq sezish imknini beradi. Ixtisoslashuvchning yakka-yu yagona funksiyasi signallarni idrok etishdan iborat xujayralarning paydo bo'lishida o'z ifodasini topadi. Bu hujayralar reseptorlar (tashqi muhitning ta'sirini qabul qiluvchi apparat) deb atalmish hujayralar guruhini tashkil etadi. Boshqa hujayralar mushak to'qimalari ishini yoki turli xil bezlarning shira chiqarishini o'z zimmasiga oladi. Bunday hujayralar effektorlar deyiladi. Ammo hayot a'zolar va funksiyalar o'rtasida uzluksiz aloqa bo'lishini, xarakatlarning tevarak-atrofdagi narsalardan va organizmning o'zidan bo'ladigan signallar oqimi bilan kelishilgan bo'lishini taqozo etayotgan bir paytda ixtisoslashuv a'zolari funksiyalarini bir-biridan ajratadi. Bunga organizmning asosiy «boshqaruv pulti» yaxlit bir butun narsa sifatida xarakat qiladiga markaziy nerv sistemasi vositasida erishiladi.

Nerv sistemasi tuzilishining umumiy plani barcha umurtqalilarda bir xildir. Uning asosiy elemayentlari nerv hujaryralari yoki neyronlar bo'lib, ularning vazifasi qo'zg'atishdan iboratdir. Neyron hujayra tanachasidan va tanachaning shoxlab ketgan o'simalari-qo'zg'atishni boshqa neyronlarga o'tkazadigan tolalar-aksondan tarkib topadi. Aksonning dendritlar bilan yoki boshqa neyronlarning hujayra tanasi bilan bog'lanadigan nuqta sinaps deb ataladi. Shu nuqtada neyronlar o'rtasida funksional bog'lanish yuz beradi. Nerv sistemasidagi yangi bog'lanishlarning xosil bo'lish mexanizmini tushintirib berishda sinaps hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bu bog'lanishlarni hosil qilishda sinapslardagi o'zgarishlar (kimyoviy yoki strukturaviy o'zgarishlar) tufayli qo'zg'atish impul'slarini muayyan yo'nalishda tanlab o'tkazish ta'minlanadi. Sinaps-qo'zg'alish bo'yicha qo'yilgan o'ziga xos to'siq bo'lib, qo'zg'alish uni yengib o'tishi kerak. Ba'zi to'siqlarni yengish osonroq boshqalarini esa qiyinroq, ayrim hollarda ikkala yo'ldan birini tanlashga to'g'ri keladi.

Neyronlarning bir qismi qo'zg'alishni reseptorlardan markaziy nerv sistemasiga, boshqa qismi undan effektorlarga o'tkazadilar, lekin neyronlarning aksariyat ko'pchiligi markaziy nerv sistemasining o'zida uning turli joylari o'rtasida aloqa bog'lanishiga xizmat qiladi. Markaziy nerv sistemasining o'zi esa ikkin qismdan-bosh miya va orqa miyadan tashkil topgandir.

Bosh miyaning yuqori qismi olti qavat neyronlar (10 milliardga yaqin) bilan qoplangan hamda po'stloq deb ataladigan katta yarim sharlarni hosil

qiladi. Po'stloq-psixik faoliyatning eng muhim (lekin yakka-yu yagonasi emas) organidir. Yarim sharlardan pastroqda, ensa qismida, miyacha joylashgan bo'lib, uning funksiyalari hali yetarlicha o'rganilmagan, uning mushaklar harakatini uyg'unlashtirishda jiddiy rol o'ynashni ma'lum. Katta yarim sharlarga miya naychasi kelib raqaladi. Naychaning yuqori qismi-talamus orqa miyadan katta yarim sharlarga boradigan barcha nerv yo'llari uchun « oraliq stansiyasi» vazifasini bajaradi. Naychaning pastki qismi-gipotalamus suv almashinuvini, ovqatlanish ehtiyojini va organizmning boshqa funksiyalarini boshqarib turadigan markazlardan tarkib topgandir.

Markaziy ners sistemasining tilga olingan barcha qismlari murakkab tuzilishga ega bo'lib, uni o'rganish va ta'riflash bilan anatomiya va gistologiya shug'ullanadi.

Hozirgi zamon fanida mavjud tasavvurlarga qaraganda orka miya va miya naychasi reflektor faoliyatining asosan tug'ma (shartsiz reflekslar) hisoblangan shakllarini amalga oshiradi, katta yarim sharlarning qobig'i esa hayot kechirish jarayonida orttiriladigan va psixika tomonidan boshqariladigan xulq-atvor shakllari organi hisoblanadi.

Odamning psixik hayotida katta yarim sharlar qobig'i sirtining o'ttiz foizini egallaydigan peshona qismlari alohida rol o'ynaydi. Peshona qismlarining (kasallik, yaralanish va shu kabilar oqibatida) shikastlanishi xulq-atvorning oddiy formalariga emas, balki yuksak formalariga ta'sir ko'rsatadi. Masalan, peshona qismlari shikastlangan bemorlar ko'rish, nutq, yozish qobiliyatlarini saqlab qolib, arifmetika masalalarini yechgan holda uning shartlarini tahdil etishga urinmaydilar. Masalan, yechish planini tuzganlarida oxirgi savolni tushirib qoldiradilar. Ular masalaning yechimini uning sharti bilan solishtirib chiqmaydilar, o'z xatolarini sezmaydilar va xakozo. Ko'pgina klinik faktlar shuni ko'rsatdiki, miyaning peshona qismlari shikastlanishi aqliy qobiliyatni susaytirishi bilan birga kishining shaxsiyati doirasida uning xarakterida xam kator buzilishlarga sababchi bo'ladi. Kasalga chalinganligiga qadar xushmuomalaligi, vazminligi bilan ajralib turgan bemorlar yengiltak, qiziqqon, qo'rs bo'lib qoladilar.

I.P.Pavlov (1849-1936) buyuk rus olimi fiziolog, psixologiyaga katta hissa qo'sha oldi. Uning Ayniqsa ikki signallar sistemasi haqidagi ta'limoti bugungi kunda butun jahonda ma'lum va keng miqyosida hayotga tadbiq etilayapdi. U 1911 yili birinchi marta odamda ikkita signallar sistemasining faoliyat ko'rsatishini, hayvonlarda esa faqat bitta signallar sistemasining borligi haqida fikr bildirgan. So'ng esa maxsus izlanishlar natijasida bu ta'limot I.P.Pavlovning ijodida muhim o'rin egalladi.

Uning fikricha birinchi signallar sistemasi ham odamlar ham hayvonlar dunyosiga xos bo'lib, tevarak atrofdagi voqea va hodisalarning sezgi organlar ta'sii ostida paydo bo'lgan in'ikosdir.

I.P.Pavlov iborasi Bilan aytganda Yana ortiqcha ikkinchi signallar sistemasi ya'ni so'zlarni ishlatish Bilan bog'liq so'zlar Bilan tevarak muhitdagi voqea hodislarning ma'nosini kishi idrokiga olib kiritilishi mumkinligi Bilan bog'liq bo'lgan bir sistemadir. Yozilayotgan, o'qilayotgan yoki eshitilayotgan so'zlarning o'zlari fizik kattalik bo'lganliklari uchun birinchi signallar sistemasi orqali idrok etilsa shu so'zlarning ma'nosi ular orqali anglanayotgan voqea va hodisalar mohiyati ikkinchi signallar sistemasi orqali idrok etiladi. Ya'ni ikkinchi signal sistemasi insonning bir voqea yoki hodisani bevosita ko'rishi yoki ushlab ko'rishi orkali emas, balki mshu voqeani ifoda etgan har qanday axborotdan tushunib olishini ta'minlaydi. Masalan biz itga qarab Biron bir noxush gap aytsak shaksiz it shu tovush so'zlarni eshitadi, lekin faqat bir sado sifatida idrok etadi xolos. Chunki it uning mag'zini chaqa olmaydi, tushuna olmaydi, tushunarli aynan so'zlarning mohiyatini chaqish signal sistemasiga ega bo'lgan insonlargagina xosdir.

Shunday qildib inson har ikkala signallar sistemasiga ega bo'lgan universal bir mavjudoddir. Uning oliyligining asosida aynan ikkinchi signallar sistemasini faoliyati yotadi. Ikkinchi signallar sistemasi insonga voqea va hodisalarning ichki mohiyatini tushunishiga ularni so'zlarda, sonlarda har xil belgilarda belgilab, moddiy holatga keltirib, Yana birinchi signallar sistemasi orqali boshqa kishining bevosita idrokiga havola qilishiga to'la imkoniyat yaratadi. Odam tabiatining bu ajablanarli xususiyati bor ekanki, ilmu ma'rifat, san'at umuman insoniyat turixi jamiyati va barcha insongagina buyuk mutafakkir sifatida odamdagi bu ikki signallar sistemasini bashariyat rivojlanishining negizi deb atadi.

PSIXOLOGIYADA ONGNING O'RGANILISHI

Psixika voqelikning kishi yamisidagi aksi sifatida har-xil darajalari bilan farqlanadi.

Psixikaning odamga xos bo'lgan oliy darajasini ong tashkil etadi. Ong psixikaning oliy, uni yaxlit bir xolga keltiruvchi shakli bo'lib, kishining mehnat faoliyatida, boshqalar bilan (til yordamida) doimiy muloqot qilish jarayonida shakllanishining ijtimoiy-tarixiy shart-sharoitlari natijasi hisoblanadi. Shu ma'noda ong «ijtimoiy mahsul» bo'lib anglangan borliqdan bo'lak boshqa narsa emasdir.

Ongning strukturasi, ya'ni tarkibining muhim psixologik ta'rifi qanday?

Uning birinchi ta'rifi nomining o'zidayoq berilgan bo'lib, ong deganidir. Kishining ongi bizning tevarak-atrofimizni qurshab turgan olam haqidagi bilimlar majmuasidan tarkib topdi. Ongning yashash usuli va ong uchun nimaningdir borligi bilimdir. Shunday qilib ongning strukturasi muhim bilish jarayonlari kiradiki ular yordamida odam o'zbilimlarini doimo boyitib boradi. Bu jarayonlar qatoriga sezgilar va idrokni, xotirani hayol va tafakkurni o'tkazuvchi qo'zg'atuvchilarning bevosita aks etishi natijasida ongda borliqning

o'sha momentda kishi tasavvurida hosil bo'lgan hissiy manzarasi gavdalanadi. Xotira ongda o'tmish obrazlarini qaytadan gavdalandirsa, hayol ehtiyoj ob'yekti bo'lgan, ammo hozirgi paytda yo'q narsaning obraz modelini hosil qiladi. Tafakkur umumlashgan bilimlardan foydalanish yo'li bilan masalaning hal etilishini ta'minlaydi. Aytib o'tilgan psixik bilish jarayonlaridan istalgan birning batamom barbod bo'lishi u yoqda tursin, buzilishi yo izdan chiqishi ham ongning barbod bo'lishiga olib keladi.

Ongning ikkinchi ta'rifi-unda sub'yekt bilan ob'yekt o'rtasida fanni farqlanishining o'z ifodasini topishi, ya'ni odam «men» degan tushuncha bilan «men emas» degan tushunchaga nima tegishli ekanini aniq biladi. Tirik organizmlar dunyosi tarixida birinchi bo'lib undan ajralib chiqqan va o'zini atrof-muhitga qarama-qarshi qo'ygan inson o'z ongida ushbu qarama-qarshilik va tofovutni saqlab kelmoqda. Jonli mavjudotlar ichida uning o'zigina bilishga, ya'ni psixik faoliyatni o'zini tadqiq etishga yo'naltirishga qodirdir. Odam o'z xatti-xarakatlarini va umuman o'zini o'zi ongli ravishda baholaydi. «Men»ning emas «men emas» dan ajratilishi-har bir kishi bolalaigida boshdan kechiradigan yo'l bo'lib, uning o'zini o'zi anglashi jarayonida yuz beradi.

Ongning uchinchi ta'rifi-odamning maqsadni ko'zlovchi faoliyatini ta'minlashdir. Faoliyatning maqsadlarini yaratish ongning funksiyasi kiradi. Bunda faoliyat motivlari yuzaga keladi va chamalab chiqiladi, irodaviy qarorlar qabul qilinadi, xarakatlarni bajarishning qanday borishi hisobga olinadi, unga tegishli tuzatishlar kiritiladi va x.z. «Kishi tabiat tomonidan berilgan narsalar bilan birga o'zining ongli maqsadini ham amalga oshiradi, bu maqsad qonun sifatida, kishining ish usulini va bu ishning xarakterini belgilab beradi va kishi o'z irodasini ana shu maqsadga bo'ysundirishi lozim»;-deb ta'kidlagan edi. Maqsadni ko'zlovchi faoliyatning amalga oshirilishida, uning muvofiqlashtirilishida va yo'nalishida kasallik oqibatida yoki biron-bir boshqa sabablarga ko'ra har qanday buzilishning yuz berishini ongning buzulganligi deb qaramoq kerak.

Nihoyat ongning to'rtinchi ta'rifi-uning tarkibiga muayyan munosabatning kirganligidir. Ya'ni «Mening o'z muhitimga bo'lgan munosabatim mening ongimdir». Kishi ongiga muqarrar ravishda his-tuyg'ular olami kirib keladi. Undamurakab ob'yektiv va eng avvalo odamning o'zi ham jalb etilgan ijtimoiy munosabatlar o'z aksini topadi. Bu o'rinda ham boshqa ko'pgina hollarda bo'lgani kabi patologiya normal ongning mohiyatini yaxshiroq anglab olishga yordam beradi. Ayrim ruhiy kasalliklarga chalinganda ongning buzilganligi aynan his-tuyg'ular va munosabatlar sohasidagi buzilish bilan belgilanadi: bemor bunga qadar behad sevgan onasini suymaydigan bo'lib qoladi, yaqin kishilari to'g'risida zarda bilan gapiradi va xakozo.

Ongning yuqorida ko'rsatib o'tilgan barcha o'ziga xos xususiyatlari shakllanishi va namoyon bo'lishining muqarrar sharti hisoblanadi. Nutq faoliyati

jarayonida odam bilim hosil qiladi, kishi dunyoga kelgunga qadar uning uchun insoniyat yaratib bergan, tilda mustahkamlab, unga yetkazgan inson tafakkuri boyliklari bilan o'z hayotini boyitadi. Til alohida ob'yektiv sistemaki, unda ijtimoiy-tarixiy tajriba yoki ijtimoiy ong aks etgandir. Konkret odam tomonidan o'zlashtirilar ekan, til ma'lum bir ma'noda uning real ongi bo'libqoladi. Til-amaliy, haqiqiy ongdir, boshqalar uchun ham mavjud bo'lgan ongdir.

«Ong» tushunchasi psixologiyada, psixiatriyada va boshqa fanlarda uning yuqorida keltirilgan asosiy ta'riflarga mos keladigan ma'noda ishlatiladi. Psixiatriklarni bemorda ong bor yoki yo'qligi, yo bo'lmasa buzilganligi masalalari doim qiziqtiradi, shu tufayli ular ong deganda bemorning o'z-o'zini qayerdaligi to'g'risida o'z shahsiy holati hamda xarakatlari haqida hisob Bera olish imkoniyatlarini tushunadilar. Ongi yaxshi saqlanib qolgan odam miyaga kelayotgan Yangi axborotga o'zidagi mavjud bilimlarni hisobga olgan holda baho beradi. O'zini tevarak-atrofdagi muhitdan aloqada ajratib, bosh odamlarga va faoliyat vaziyatiga nisbatan tarkib topgan ma'lumotlar asosida o'z hatti-xarakatini idora qiladi.

Ong ijtimoiy mahsul bo'lib, faqat odamlarga xosdir. Hayvonlarda esa ong bo'lmaydi.

Psixikaning quyi darajasi ongsizlikdan iboratdir.

Psixikaning quyi darajasi ongsizlikdan iboratdir.

Ongsizlik kishini o'zini tuta olmaydigan qilib qo'yadigan ta'sirotlar bilan bog'liq psixik jarayonlar, xarakterlar holatlar yig'indisidir. Psixik holat (bundan shu narsa ravshanki psixika tushunchasi «ong», «ongli» tushunchalariga qaraganda kenroqdir) sifatidagi ongsizlik voqelikni aks ettirishning shunday bir shakti hisoblanadiki, bunda harakat vaqti va o'rnini mo'ljal qilish yaxlitligi yo'qoladi, xatti-harakatning nutq yordamida boshqarilishi buziladi. Ongsizlikda, onglilikdan farqli o'laroq, kishi o'zi bajarayotgan xarakatlarini maqsadga muvofiq tarzda nazorat qila olmaydi, ularning natijasini baholay olishi ham amri maholdir.

Ongsizlikka quyidagi psixik hodisalarni kiritish mumkin: uyqu paytida yuz beradigan psixik hodisalar (tush ko'rish: sezilmaydigan, lekin haqiqatdan ham ta'sir ko'rsatadi, o'zgartuvchilarga «subsensitiv» yoki «subseptiv» javob reaksiyalari oldinlari ongli harakat bo'lib, lekin takrorlanaverib, avtomatlashib ketgan va shunga ko'ra endilikda anglanmaydigan bo'lib qolgan harakatlar; faoliyatga undovchi ammo maqsad hissidan anglamaydigan ayrim mayllar va hakozo. Ongsizlik hodisalarga bemor kishining psixikasida ro'y beradigan ba'zi bir patologik hodisalarni- alahlash, ko'ziga yo'q narsalar ko'rinishi va shu kabilarni ham qo'shish mumkin. Shularga asoslanib, ongsizlikni ongga qarama-qarshi deb hisoblash, uni hayvonlar psixikasiga tenglashtirish noto'g'ri bo'lur edi.

Ongsizlik-bu kishining xuddi ong kabi o'ziga xos psixik qiyofasidirki, u kishi miyasida borliqning yetarli darajada bir xil bo'lmagan, qisman aksi

tarzida inson hayotining ijtimoiy shart-sharoitlari bilan bog'liq holda paydo bo'lgan.

Psixikaning miyaga nisbatan munosabatini psixikaning tevarak-atrofdagi muhitga hamda psixik faoliyatga munosabati (bular psixik moslashtirish, programmalashtirish va boshqarish yordamida amalga oshirildi) siftida bundan keyingi o'rganish psixikaning rivojlanishi problemasiga murojaat qilish zaruratini tug'diradi. Psixik aks ettirish qanday paydo bo'lganini, rivojlanganini, evolyusiya pillapoyasining turli bosqichlarida qanday o'zgarib borganini, kishi ongi qanday paydo bo'lgani va shakllanganini tushunib olganidagina psixikaning eng muhim qonuniyatlarni ochib berish va jiddiy psixik faktlarni aniqlash mumkin bo'ladi.

FAOLIYAT PSIXOLOGIYASI

Tirik mavjudotlarning atrofdagi olam bilan hayotiy ahamiyatga molik bog'lanishlar bo'lishni ta'minlaydigan faoliyati ularga xos yalpi xususiyat hisoblanadi. Faollik-bu tirik mavjudotda «o'z kuchi bilan javob qilish» qobiliyatining borligidir. (F.Engels).

Jonli mavjudotni muayyan tarzda va muayyan yo'nalishda harakat qilishga undaydigan ehtiyojlar uning faolligi manbai bo'lib hisoblanadi. Ehtiyoj- jonli mavjudotning xayot kechirishning konkret shart-sharoitlariga uning karamligini ifoda etuvchi va bu shart- sharoitlariga uning qaramligini ifoda etuvchi va bu shart-sharoitlarga nisbatan uning faolligini vujudga keltiruvchi holatidir.

Kishining faolligi ehtiyojlarning qondirilishi jarayonida nomoyon bo'ladi. Huddi shu o'rinda odamning faolligi shakllari bilan xayvonning xatti-xarakatlari faolligi o'rtasidagi tafovutlar ayon bo'ladi. Hayvon o'z ehtiyojlarining ob'yekti bo'lishi xamda unda ularni egallab olish uchun faol intilishga da'vat etishi extimoli borligini o'zining tabiiy tuzilishiga (tanasining va a'zolarining tuzilishiga, instinktlarining boyligiga) ko'ra bamisoli oldindan bilishi tufayli faollik bilan harakat qiladi, hayvonlar ehtiyojining qondirilishi jarayoni ularning muxitga yaxshiroq moslashuvini ta'minlaydi.

Masalan, kunduz hatti-xarakatning tug'ma ravishda hosil bo'lgan programmasi uning quruvchilik ehtiyojlarini qamab qolmasdan, balki bu ehtiyojlarni qondirish ob'yektlari: to'g'on quriladigan daraxtlarning navlari, daraxtlarning suvga yaqinligi, «o'rmon kesish» usullari-(qunduzlar daraxtning shoxi aynan suvga tushishini mo'ljallab uning suvga qarshi tomonini kemiradi) yaxshiliklar ham aks etgan bo'ladi.

Shunday qilib, havonning ehtiyojlarida uning faolligi omili sifatida tabiatdan olingan buyum bevosita ishtirok etadi.

Agar hayvonlarning hatti-harakati butunlay atrof-muhit bilan belgilansa kishining faolligi uning ilk yoshlardan oq butun insoniyat tajribasi va jamiyat talablariga ko'ra yo'naltirib boriladi. Hatti-xarakatning bu turi shu qadar o'ziga

xoslikka egaki, psixologiyada uni atash uchun maxsus termin faoliyat termini qo'llaniladi. Faollikni bu alohida maxsus insoniy turining farq qiluvchi psixolog belgilari nimalardan iborat?

Bu farq qiluvchi belgilardan biri shundan iboratki, faoliyatning mazmuni tamomila uni keltirib chiqargshan ehtiyoj bilan belgilanmaydi. Basharti motiv sifatidagi ehtiyoj faoliyatga turtki berib uni rag'batlantirar ekan u holda faoliyatning shakllari va mazmuni ijtimoiy shart-sharoitlar talablar va tajriba bilan belgilanadi. Masalan, kishini ishlashga undagan motiv (sabab) ovqatga nisbatan ehtiyoj tug'ilishidan ham kelib chiqishi mumkin. Lekin odam stanokni masalan, uning ochligini bartaraf etish uchun emas balki bu unga topshirilgan detalni tayyorlash imkonini bergani uchun ham boshqaradi. Uning faoliyati mazmuni shunchaki ehtiyoj bilan emas, balki maqsad bilan-undan jamiyat talab qilayotgan muayyan mahsulotni tayyorlash uchun belgilanadi. Kishining nima uchun muayyan tarzda harakat qilayotgani uning nimani ko'zlab ish qilayotganiga mos kelmaydi. Uni faoliyatga undovchi xoxish-istaklar sabab bilan ushbu faoliyatni yo'naltiruvchi maqsad bir-biriga to'g'ri kelmaydi.

Faoliyat-voqelikka nisbatan faol munosabat bildirishning shundaybir shaklidir-ki u orqali kishi bilan uni qurshab olgan odam o'rtasida real bog'lanish hosil qilinadi. *Odam faoliyat orqali tabiatga, narsalarga, boshqa kishilarga ta'sir ko'rsatadi. Faoliyatda u o'z ichki xususiyatlarini ishga solib va namoyon qilib, narsalarga nisbatan sub'yekt sifatida, odamlarga nisbatan esa shaxs sifatida gavdalanadi.* O'z navbatida ularning javobiy ta'sirotni his qilgan holda, u shu yo'l bilan odamlarning, narsalarning, tabiat va jamiyatning haqiqiy, ob'yektiv, muhim xususiyatlarini bilib oladi. Uning qarshisidagi narsalar ob'ektlar sifatida, odamlar esa shaxs sifatida, gavdalanadi.

Faoliyatga yo'llangan maqsad, odatda, kuproq, yo ozroq darajada uzoqlashgan bo'ladi. Shuning uchun ham unga erishish kishi ana shu maqsad yo'lida harakat qila borgan sari uning oldida paydo bo'ladigan qator ju'ziy vazifalarning kishi tomonidan izchillik bilan hal etila borishidan tarkib topadi.

Kishi faoliyati ongli ravishdagi faollik sifatida uning ongi shakllana va rivojlana borishi tufayli tarkib topadi va rivojlanadi. Uning o'zi ongning shakllanishi va rivojlanishi negizi uning mohiyati manbai bo'lib xizmat kiladi.

Boshqacha so'zlar bilan aytganda, ***faoliyatda kishining shaxsi ifodalanadi va ayni chog'da faoliyat uning shaxsini shakllantiradi.***

Ahil, uyushgan jamoaning sobitqadamlik bilan olib borilayotgan ijtimoiy foydali faoliyatida ishtirok etish manfaatlari bilan bog'lash ko'nikmasini rivojlantiradi **A.S, Makarenko** faoliyatning shaxsni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega ekanligi haqidagi tushunchani tarbiyaviy ishning o'zi yaratgan nazariyasi va amaliyotiga asos qilib olgan edi. U shunday deb yozgan edi: ***«...men bolalarning hayoti ma'lum bir odatlar turkumini tarbiyalaydigan tajriba tarzida yo'lga, qo'yilishini talab qilaman...».*** ushbu talabga binoan

tarbiyalanuvchilar jamoaining butun hayoti shunday tashkil etiladiki, u bolalarni faoliyatning shaxsda muayan fazilatlarining namoyon bo'lishini taqozo etadigan har-xil turlarga jalb qilgan edi. Masalan tungi poxodlar va navbatchiliklar tarbiyalanuvchilardan Qurquvni yengishni, matonat ko'rsatish va o'zini tuta bilishni talab kilardi. Xulq-atvordagi jasurliklar takrorlanaverib, odat tusiga kirib qolardi.

Kishida xilma-xil faoliyat turlarining paydo bo'lishi va rivojlanishi murakkab hamda uzoq davom etadigan jarayondir.

Harakatning shu tarzda qisman avtomatlashuvi tufayli uning tuzilishida ro'y beradigan o'zgarishlar quyidagilardan iborat:

1. say'i-harakatlarning ijro etilishi usullari o'zgaradi. Bunga qadar o'z holicha yuz berib kelgan tarkibiga kiruvchi alohida sodda say'i-harakatlar o'rtaida to'siqlar va uzilishlar mavjud bo'lmagan bita murakkab sa'yi-harakatga qo'shilib ketadi.

2. xarakatni sensor nazorat qilish usullari o'zgaradi. Sa'yi xarakatlarning bajarilishini ko'rish orqali nazorat Bilan almashadi.

3. Harakatni markazdan turib boshqarish usullari o'zgarib bormoqda. Diqqat xarakat usullarini idrok etishdan xoli bo'lib, u xarakatning asosan vaziyati va natijasiga qaratilga bo'ladi.

Takrorlanib turadigan amaliy urinishlarsiz hech qanday malakani hosil qilib bo'lmaydi. Ba'zi bir psixologlar, jumladan bixevioristlar anna shu faktga tayangan holda hayvonlarda va odamlarda malakalar hosil bo'lishi jarayonini Ayni bir narsa deb hisoblashga urinadilar. Lekin fiziologik mexnizmni uxshashligi bu jarayonlarning bir-biridan prinsipial jihatdan farqini yoqqa chiqarmasligi kerak.

Malakani shakllantirishda kuzatilayotgan va bajarilayotgan harakatlarning kishi tomonidan so'z Bilan ifoda etilishi-nutq faoliyati, shuningdek bajarilishi lozim bo'lgan harakat timsolining hayoldagi ifodasi-ideal faoliyat yetakchi vosita bo'lib xizmat qiladi. Alohida bitta malakaning shakllantirilishi hech qachon mustaqil, ajratib olingan holdagi jarayon hisoblanmaydi. Har qanday malaka ham kishi Allaqachon egallab olgan malakalar sistemasida amal qiladi va tarkib topadi. Ularning biri Yangi malakalarni topishga va amal qilishiga yordam bersa, boshqalari halaqit beradi, uchinchi bir xili esa o'zgartiradi va xakozo. Bunday hodisa psixologiyada malakalarning o'zaro ta'siri deb yuritiladi.

PSIXOLOGIYADA SHAXS MUAMMOSI

Individ va shaxs. Odam dunyoga odam bo'lib keladi. Bu ta'qid yuzaki qaragandagina isbot talab qilmaydigan haqiqat bo'lib va takrorlanaverib siyqasi chiqib ketgan iborat bo'lib tuyuladi. Gap shundaki, bu o'rinda xususan insoniy belgilar va fazilatlarining rivojlanishi uchun tabiiy shart-sharoitlar paydo

bo'lishi genetik jihatdan oldindan belgilab qo'yilganligi ta'kidlanadi. Dunyoga kelayotgan chaqaloqning gavda tuzilishi unda tik yurish uchun imkoniyatning mavjudligini taqozo etsa, miyasining tuzilishi aqli-hushining rivojlanishi uchun imkoniyat tug'diradi, qo'llarining shakl-shamoyili mehnat qurollaridan foydalanish istiqbolining mavjudligini ko'rsatadi va hakoza. Bular Bilan chaqaloq o'z imkoniyatlari yig'indisiga binoan odam har qanday holatda ham bu hildagi fazilatlar yig'indisining sohibiga aylana olmaydigan hayvon bolasidan farq qiladi. Shunday qilib, yuqorida aytilganlar orqali chaqaloqning inson zotiga mansubligi tasdiqlanadi va faqat individ tushunchasida qayd etiladi (bundan farqli o'laroq, hayvon bolasi dunyoga kelishi bilanoq va hayotning oxiriga qadar jonzot deb yuritiladi). «Individ» tushunchasida kishining nasl-nasabi ham mujassamlashgandir. Yangi tug'ilgan chaqaloqni ham, katta yoshdagi odamni ham, mutafakkirni ham, aqli zaif ovsarni ham, yovvoyilik bosqichidagi qabilaning vakilini ham individ deb hisoblash mumkin.

Shunday qilib, konkret individ deb ataganda biz juda ko'p narsalarni aytgan bo'lamiz. Aslini olganda, bu Bilan uning potensial ravishda inson ekanligi aytilgandir. Uning bundan keyingi va hatto juda ham umumiy tarzda ta'rifi fazilatlarini bayon etilishi va izohlanishini taqozo qiladi. Bundan fazilatlarisiz u faqat boshqalarga o'xshamaydigan emas. Balki ular kabi harakat qilamydigan, fikrlamaydigan, iztirob ham chekmaydigan, jamiyat a'zosi sifatida, tarixiy jarayonning ishtirokchisi sifatida sosial aloqalarga jalb ham etilmagan ham emas, balki demografik ma'lumotnomalardagi jonsiz birlik holida qoladi, xolos. Individ sifatida dunyoga kelgan kishi alohida sosial fazilat kashf etadi. Shaxs bo'lib yetishadi. Individ hali bolaligidayoq tarixan tarkib topgan ijtimoiy munosabatlar sistemasiga jalb etiladi. U bu sistemani allaqachon tayyor holda uchratadi. Kishining jamiyatdagi bundan keyingi rivojlanishi munosabatlarning shu qadar chigalliklarini vujudga keltiradiki, bu hol uni shaxs sifatida shakllantiradi.

Psixologiyada individ tomonidan Amaliy faoliyat va munosabat jarayonida hosil qilinadigan hamda ijtimoiy munosabatlarning individga ta'sir o'tkazish darajasi va sifatini belgilaydigan sitemali tarzda sosial fazilat shaxs tushunchasi bilan ifoda etiladi.

Individning alohida sosial fazilati sifatidagi shaxsning o'zi nima? Eng avvalo, agar biz shaxs individning fazilati ekanligini tan oladigan bo'lsak, bu Bilan biz individ va shaxsning birligini tasdiqlash va Ayni paytda bu tushunchalarning bir-biriga o'xshaganligini inkor etgan bo'lamiz (misol uchun, yorug'likni sezuvchanlik fotoplyonkaning xususiyati hisoblanadi, lekin fotoplyonka degan ma'noni anglatmaydi). «Shaxs va individ» tushunchalarining bir-biriga o'xshashligini barcha yetakchi psixologlar: -B.G.Ananyev, A.N.Leontev, B.F.Lomov, S.L.Rubinshteyn va boshqalar inkor etishadi.

Shaxs individlararo munosabatlar sub'yektidir. «Individ» va «shaxs» tushunchalarining bir-biriga mos kelmasligi va aynan o'xshash emasligi faktidan shu narsa ayonki, shaxs tushunchasi birgalikdagi faoliyatning har bir ishtirokchisi uchun Ushbu faoliyatning mazmuni, qadriyatlari va mohiyati orqali namoyon bo'ladigan shaxslararo barqaror bog'lanishlar sistemasidagina anglanilishi mumkin. Bunday shaxslararo aloqalar realdir, lekin ular tabiatan «g'ayrihissiy»dir. Ular jamoaga kiradigan odamlarning konkret individual xususiyatlari va hatti-harakatlaridan namoyon bo'ladi, lekin ularning sababchisi bo'la olmaydi. Ular har bir individlararo aloqalar sistemasida va undan kengroq miqyosda-ijtimoiy munosabatlar sistemasida egallaydigan alohida mavqeini belgilab beradigan ana shu shaxsiy hislatlarini namoyon qiladigan guruh shaklidagi va faoliyatning alohida fazilatini tashkil etadi.

Shaxs va individuallik. Har bir kishining shaxsi uning indiviualligi vujudga keltiradigan hislatlar va fazilatlarining faqat tunga xos birikuvidan tarkib topgandir. Individuallik-kishining o'ziga xosligini, uning boshqa odamlardan farqini aks ettiruvchi psixologik fazilatlar birikmasidir. Individuallik t va xarakter xususiyatlarda, odatlarda, ustun darajadagi qiziqishlarda, bilish, jarayonlariga oid fazilatlar (idrok, xotira, tafakkur, tasavvur)da qobiliyatlarda, faoliyatning shaxsga xos uslubda va xakozolarda namoyon bo'ladi. Zikr etilgan psixologik xususiyatlarning bir xildagi birikmasini o'zida mujassamlashtirilgan odam yo'q-inson shaxsi o'z indiviualligi jihatidan betakrordir.

Shunday qilib indiviuallik inson shaxsiga xos fazilatlarining faqat bita jihati bo'lib hisoblanadi, xolos!

Individuallik bilan shaxsning tuzilishi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik. «Shaxs va indiviuallik» tushunchalari qanchalik darajada birlikdan iborat bo'lganiga qaramay, bir-biriga mos kelmasligining o'zi ham shaxsning tuzilishini kishining individual-psixologik xislatlari va fazilatlaridan tarkib topadigan Allaqanday shakl sifatida tasavvur qilish imkoniyatini bermaydi. «Shaxs» va «individuallik» tushunchalari (huddi «individ» va «shaxs» tushunchalari singari) aynan bir-biriga o'xshaydi, deb tan olinadigan va shaxsga tabiat ijtimoiy munosabatlar sub'yekti sifatida, individning sistemi tarzidagi sosisal fazilat sifatida qaraladigan G'arb psixologiya fanining nomarksistik yo'nalishlarida shaxs Bilan indiviuallikning strukturasi (ya'ni tuzilishi, tashkil topishi) bir-biriga tmamila mosligi tan olinadi. Bunday psixologik maktablar va yo'nalishlarning vakillari indiviuallikning tuzilishi aniq ta'riflab berilsa bas, bu kishining shaxsini to'laligicha o'z ichiga oladi va ta'riflab beradi, degan yeuqtai-nazarni ilgari surishadi. jumladan, psixologlar maxsus shaxsiy so'roqnomalarni qo'llashadi. Haqiqatda esa, agar shaxs hamisha o'zining konkret sosial muhiti bilan «haqiqiy munosabatlari» sub'yekti sifatida namoyon bo'lishi inobatga olinadigan bo'lsa, shaxsning tuzilishiga konkret sosial guruhlar va jamoalar

faoliyati va munosabatida tarkib topadigan ana shu «haqiqiy munosabatlar va aloqalar muqarrar tarzda kiritilishi shart». So'rovnomalar esa kishining o'ziga hali shakllanib bo'lmagan sosial muhit sharoitidagi, umuman mavhum muhitdagi holati bo'yicha beradigan bahosiga mo'ljallangandir. Shaxsning individlararo real munosabatlaridan iborat jihatini so'roqnomalarda aks ettirib va aniqlab bo'lmaydi. Aytib o'tilganidek, so'roqnomalar shaxsning tuzilishiga umumiy ta'rif berish huquqiga da'vogarlik qilar ekan, aslida, individuallikni tavsiflashga individuallik xislatlarining uning bir asosiy belgialri (omillari) atrofida tashkil bo'lishi prinsiplarini topishga urinishlar bilan cheklanadi. Majoziy ma'noda aytganda individual-psixologik hislatlarning keng «kolleksiyasi-ekstroversiya», hissiyotlilik-vazminlik» va xakazo) bir qancha «vitrinalarda» joylashtiriladi. Jumladan, psixologiyada individuallikning ko'pgina hislatlari-moslashuvchanlik, tajovuzkorlik, mayillik darajasi, tashvishlanish va shular kabilar aniqlangandir. Bular jumlaning individning o'ziga xosligini ko'rsatadi. Bu psixologik hodisalar o'z mohiyatiga ko'ra o'zaro munosabatda bo'lib, oshkor yoki oshkora bo'lmagan holda allaqanday muhitning mavjudligini taqozo etadi. Shaxs aynan ana shunday muhitga nisbatan moslashuvchanlik, tajovuzkorlik tashvishlanish va hakovzalarni namoyon qiladi. Bordini agar odamlarning individual fazilatlarini bu tadqiqotlarda izchil, o'zgaruvchan, rang-barang, mazmunli tarzda namoyon bo'lsa, u holda sosial muhit o'zgarmaydigan, shakllanmagan (aform), mazmunsiz, «umuman muhit» sifatida tasavvur qilinadi.

Shaxsning tuzilishidagi biologik va ijtimoiy omillar. Inson shaxs tuzilishida biologik (tabiiy) va ijtimoiy omillarning o'zaro nisbati masalasi hozirgi zamon psixologiyasida eng murakkab va munozarali masalalardan biridir.

Psixologiyada shaxsda ikkita omil-biologik va ijtimoiy omillar ta'siri ostida shakllangan ikkita asosiy kichik struktura borligini alohida ta'kidlaydigan nazariya sezilarli o'rin egallaydi. Inson shaxsining o'zi «endopsixik» va «ekzopsixik» tuzilishga bo'linadi, degan fikr ham ilgari surildi. Shaxs tuzilishining kichik strukturasi sifatidagi «endopsixika» bamisoli kishining nerv-psixik tuzilishiga o'xshash bo'lgan inson shaxsining ichki mexanizmi kabi psixik qismlar va funksiyalarning o'zaro ichki bog'liqligini ifoda etadi. «Ekzopsixika»ning tashqi muhitga munosabati bilan, ya'ni shaxs qanday bo'lmasin, baribir munosabatga kirishishi mumkin bo'lgan va shaxsga qarama-qarshi turadigan tuzilishlarning barchasiga nisbatan munosabati bilan belgilanadi.

Endopsixika moyillik, xotira, tafakkur va hayol xususiyatlari, irodaviy zo'r berish, tashqi ta'sirlarga beriluvchanlik kabi boshqa xislatlarni, «ekzopsixika» esa kishi munosabatlari sistemasini va uning tajribasini, ya'ni qiziqishlarini, moyilliklarini, ideallarini, ustun darajadagi his-tuyg'ularini, o'z ichiga oladi.

Tabiiy asosdagi «endopsixika», ijtimoiy omil bilan belgilanadigan «ekzopsixika»ga qarama-qarshi o'laroq, biologik jihat bilan bog'liqdir.

Buni bo'yi 80-130 santimetrdan oshmaydigan odamlar shaxsiga xos belgilarning shakllanishini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqot misolida kurib chiqamiz. Bo'yinning pastligidan boshqa biron-bir patalogik cheklanishlari bo'lmagan bu odamlar individualligining tuzilishida anchagina o'xshash jihatdan mavjudligi aniqlandi. Ularda o'ziga xos bachkana yumor, mulohazasiz nekbinglik, samimiylilik, anchagina hissiy zo'riqishni taqozo etadigan vaziyatlarga yuksak sabr-bardoshlik, biron-bir darajada iymenib o'tirmaslik va shu kabilar kuzatiladi. Shaxsning bu hislatlari pakana kishilarning tabiiy xususiyatlari natijasi hisoblangan hoda, yo'q deganda pakanalar bilan ularning tengdoshlari o'rtasida bo'ylarining o'sishidagi farq bilinibqolgan paytdan boshlab pakanalar mavjud bo'lgan sosial vaziyat sharoitlaridagina paydo bo'lishi va shakllanishi mumkinligi uchun ham ularni na «endopsixika» ga va «ekzopsixika»ga qo'shib bo'lmaydi. Agar pakana kishining bo'yi huddi shunaqa odamlar orasida shakllanadi, deb bir daqiqa tasavvur etiladigan bo'lsa, uholda unda ham shaxsning atrofidagi boshqa odamlardagi kabi tamomila boshqa belgilari shakllana boshlashi mutlaqo ravshan bo'lib qoladi.

Shaxs tuzilishining uch tarkibiy qismi Shunday qilib, shaxsning tuzilishiga, birinchi navbatda, uningn individualligini kishi ehtirosining ichki qiyofasinining, qobiliyatlarining tuzilishida mujassamlashgan, shaxs psixologiyasini anglab yetish uchun zarur lekin yetarli bo'lmagan sitemali tarzda tuzilish kiradi. Shu tariqa shaxs tuzilishining birinchi tarkibiy qismi-uning individ ichkarisidan (interindivid) kichik sistemasi alohida namoyon bo'ladi.

Interaindivid va interindivid kichik sistemalari shaxsning o'zini namoyon qilishining barcha jihatlarini aks ettira olmaydi. shaxsning tuzilishini tarkib optiradigan uchinchi bir qismini-metaindivid (individning ustki ko'rinishi) kichik tuzilishini ham alohida ko'rsatish imkoniyati mavjuddir. Bunda shaxs individning organik gavdasidan tashqariga chiqarilib qolmasdan, balki uning boshqa individlar bilan «shu yerdava endilikda» mavjud bo'lgan aloqalaridan ham tashqarida joylashtiriladi. Bunday hollarda sub'yektning o'z faoliyati yordamida bilib yo bilmasdan boshqa kishilarga o'tkazadigan «jamg'armalari» psixologning diqqat markazida bo'ladi. Bu bilan individ shaxs sifatida o'zi bilan u yoki bu darajada bog'liq odamlarning aqliy va hissiy –irodaviy jahatlarida faol tarzda hosil qilinadigan tub o'zgarishlar sub'yekti bo'lib xizmat chog'idagina emas, balki bevosita bir lahzali o'zaro birgalikda xarakat qilish chegaralaridan tashqarida ham o'zligini boshqa individda davom ettirishdan, boshqa kishilarga o'tkazilgan «jamg'armalar» hisobiga o'zining shaxs sifatida boshqalar «ko'nglidagidek» o'rnashib qolishni ta'minlashdan iborat bo'lgan bu jarayon anrsonalizasiya (personajlashtirish) degan nom olgandir.

Shunday qilib inson shaxsining tuzilishi uchta tarkibiy qismdan, uchta kichik sistemadan iboratdir: shaxsning individualligi, uning shaxslararo munosabatlar sistemasida va boshqa odamlarda gavdalanganligi hamda shaxsning o'zi kelib chiqishiga ko'ra individlararo, ijtimoiy aloqalar va munosabatlar sub'yekti sifatida mavjud bo'lishiga barcha, uchala jihatning birligida ta'riflangan bo'lishi shart.

MUOMALA VA MUNOSABAT PSIXOLOGIYASI

Insonning o'zini qurshab turgan olam Bilan o'zaro birgalikdagi harakati odamlar o'rtasida ularning ijtimoiy hayoti, va eng avvalo, ishlab chiqarish faoliyati jarayonida tarkib topadigan ob'yektiv munosabat sistemasida yuz beradi.

Ob'yektiv munosabatlar va aloqalar har qanday real guruhda muqarrar va qonuniyatli tarzda yuzaga keladi. Guruh a'zolari o'rtasidagi Ushbu o'zaro ob'yektiv munosabatlarning in'ikosi shaxslararo sub'yektiv munosabatlardirki, ularni o'rganish Bilan sosial psixologiya shug'ulanadi.

Guruh ichida shaxslararo munosabatlar birgalikdagi harakat va o'zaro munosabatlarni tadqiq qilishning asosiy yili- turli xilligi sosial faktlarni, shuningdek, o'sha guruh tarkibiga kiradigan odamlarning o'zaro birgalikdagi harakatini chuqurroq o'rganishdan iboratdir.

Demak har qanday ishlab chiqarish odamlarning birlashuvini taqozo etadi. Ishlab chiqarmog' uchun odamlar birlashmog'i lozim. Lekin kishilarning hech qanday birligi unga jalb etilgan odamlar o'rtasida bog'lanish o'rnatilmagan va ular o'rtasida tegishli hamjihatlikka erishilmagan bo'lsa, birgalikdagi to'laqonli faoliyat yurita olmaydi.

Masalan, o'qituvchi o'quvchilarga Biron-bir narsani o'rgata olishi uchun, ular bir munosabatga kirishishi shart.

Munosabat-odamlar o'rtasida birgalikdagi faoliyat extiyojlaridan kelib chiqadigan bog'lanishlar rivojlanishining ko'p qirrali jarayonidir.

Munosabat birgalikda faoliyat ko'rsatuvchilar o'rtasida axborot ayriboshlashini o'z ichiga oladi. Bunday axborot ayriboshlanishi munosabatning eng muhim vositalaridan biri sifatida tilga murojaat qiladilar.

Munosabatning ikkinchi jhati-munosabatga kirishuvchilarning o'zaro birgalikdagi xarakati-nutq jaaryonida faqat so'zlar Bilan emas, balki harakatlar, xatti-xarakatlar Bilan ham ayriboshlashdan iborat. Univermag kassasi oldida hisob-kitobni amalga oshirarkan, xaridor Bilan sotuvchi xatto ulardan birontasi hech qanday so'z ishlatmasa ham o'zaro munosabatga kirishadi: xaridor kassirga xarid qilingan narsa uchun tovar cheki va pul taqDim etsa, sotuvchi chek urib, qaytimini sanab beradi.

Nihoyat, munosabatning uchinchi jhati munosabatga kirishuvchilarning bir-birlarini idrok eta olishlarini taqozo qilishdir. Masalan, munosabat bo'yicha

shariklaridan biri boshqasini ishonsa bo'ladigan, aqlli tushunadigan, tayyorgarlik ko'rgan kishi sifatida idrok etishi yo idrok etmasligi, yoki oldindanoq u hech narsani tushunmaydi va xabar qilingan narsaning fahmiga yetmaydi, deb hisoblashi juda muhimdir. Shunday qilib, yagona munosabat jarayonida shartli ravishda uchta jihatni kommunikativ (axborot uzatish), interaktiv (o'zaro birgalikda harakat qilish) va perseptiv (o'zaro birgalikda idrok etish) jihatlarini alohida ko'rsatishi mumkin. Amalga oshirilishi shakllari jihatidan qaraladigan pedagogik munosabat-pedagog va ta'lim olayotganlarning o'zaro birgalikdagi harakati usullari sistemasidir. Bunda, avvalo axborot ayriboshlash, o'qituvchi tomonidan turli xildagi kommunikativ vositalar yordamida o'quvchi bilan o'zaro hamjihatlik va uzaro munosabatlar o'rnatilishi munosabatning mazmunini tashkil etadi. Pedagogik munosabat, bir tomondan, o'quv-tarbiya jarayonining hissiy holati bo'lib, ikkinchidan esa, uning bevosita mazmuniy ta'rifi sifatida namoyon bo'ladi.

Yaratilgan narsa (qurilgan bino, aniq she'riy satr, o'tkazilgan daraxt, yaratilgan yoki iero etilgan qo'shiq)-bu, bir tomondan faoliyat mavzui bo'lsa, ikkinchi tomondan esa vosita sifatida namoyon bo'ladiki, kishi uning yordami bilan ijtimoiy hayotda o'zini qaror toptiradi. Negaki, bu narsa boshqa odamlar o'rtasidagi munosabat bevosita o'z aksini topadi, ijod qilayotganlarga va bajarayotganlarga ham, iste'mol qilayotganlarga va bajarayotganlarga ham, iste'mol qilayotganlarga va o'zlashtirayotganlarga ham bab-baravar tegishli bo'lgan umumiy narsani ishlab chiqarish tariqasidagi munosabat hosil bo'ladi.

JAMOA VA GURUHLAR PSIXOLOGIYASI

Pedagog o'z ishi davomida faqat alohida har bir o'quvchi bilan ish olib bormasdan, balki o'z tarkibida o'quvchilarni birlashtirgan turli xildagi guruhlar-sinf jamoasi, o'quvchilar ishlab chiqarish brigadasi, oila va ba'zan esa o'spirinni o'z ta'siriga tortgan ko'cha ulfatlar yoki sinfning o'zida biron-bir yetakchi tevaragida birlashgan bolalar to'dasi bilan ish olib borishga ham to'g'ri keladi. Shu munosabat bilan o'qituvchi gurhlar va jamoalarning asosiy sosial-psixologik qonuniyatlarini bilishi shart

Guruh-bu muayyan belgiga, masalan sinfiy mansublikka, birgalikda faoliyat ko'rsatishning mumkinligiga va uning xarakteriga, tashkil topish xususiyatlari vash u kabilar asosida ajralib turadigan insoniy umumiylikdir. Guruhlarning tasniflanishi ham shunga muvofiq bo'lib, kichik va katta guruhlar bo'linadi. O'z navbatda ular ham real (bog'langan), shartli formal (rasmiy) hamda noformal (norasmiy) guruhlar, rivojlanish darajasi turlicha bo'lgan, ya'ni rivojlangan yoki kam rivojlangan guruhlar (uyushmalarga, birlashmalarga, aralash guruhlar) bo'linadi.

Katta guruhlar umumiy makon va zamonda hayot kechirayotgan anchagina odamlarni o'z tarkibiga olgan sosial umumiylikni tashkil qiladigan

real (bog'langan) guruhlar shaklida bulishi mumkin. Bu xildagi katta guruhlarga korxonaning mehnat jamoasi yoki kupgina o'qituvchilar bir-birlari bilan bevosita o'zaro aloqada bo'lmasalar ham, lekin ayni chog'da yagonabitta rahbarga (direktorga, ilmiy mudirga) bo'ysunadigan, bitta partiya va kasaba soyuz tashkilotiga kiradigan, maktab hatyotiga oida hamma uchun umumiy hisoblangan ichki tartibning barcha qoidalariga amal qiladigan kattagina bir maktabning pedagoglar jamoasi kiritilgan bo'lishi mumkin. Katta gurhlar ba'zi bir belgilari (sinfiy, jinsiy, milliy,yosh va boshqa belgilari)ga binoan ajratiladigan va birlashtiriladigan shartli guruhlar shaklida bo'lishi ham mumkin. Katta shartli guruhga kiritilgan kishilar hech qachon bir-birlari bilan uchrashmagan bo'lsalar ham, lekin bu hildagi guruhga ajratilgani uchun asos bo'lgan belgilariga ko'ra umumiy sosial psixologik ta'rifga ega bo'lishlari mumkin. Jumladan, o'spirinlar turli shahar va qishloqlarda istiqomat qilishlariga bog'liq bo'lmagan holda bita katta shartli guruhga birlashtirilishi, ehtimol ular turli halqlarning tillarida so'zlashishlari, hech qachon bir joyga yig'ilmagan bo'lishlari mumkin va hakazo. Ularning umumiy sosial (o'rta maktab o'quvchilari), yosh (12-15 yashar payti), psixologik (shakllanib kelayotgan ulg'ayish tuyg'usi, o'spirinlik paytida o'zligini namoyon etishi va hakozi) ta'riflari asosiy belgilariga ko'ra bir-biriga o'xshash bo'ladi. Katta shartli gurhlarni urganish ularning umumiy xususiyatlari farqlanishi natijasida guruhlarda ish olib borishning ilmiy asoslangan strategiyasi va taktikasini ishlab chiqarish imkonini beradi. Shartli (yosh) guruh sifatidagi o'spirinlar shaxsiyati rivojlanishining umumiy qonuniyatlarini bilgan holda pedagog maktabda va maktabdan tashqari masalalarda tarbiyaviy ishni sobitqadamlik bilan va samarali trazda olib boradi.

Kichik guruhlar-hamisha bog'langan umumiylik bo'lib, unga kiruvchi shaxslarning o'zaro birgalikdagi real harakati va ular o'rtasida real o'zaro munosabatlar bilan bog'langandir. Bu guruhlar rasmiy (formal) bo'lishi, ya'ni yuridik jihatdan qayd etilgan huquq va burchlarga, normativ asosida o'rnatilgan strukturaga, tayinlab yoki saylab qo'yilgan rahbarlikka ega bo'lishi mumkin. Ishtimoiy mehnat taqsimoti sharoitlarida bu guruhlar sosiyal jixatdan taqoza etilgan faoliyat ko'rsatishi bilan boglangandir.

Guruhlar rivojlanishining darajasi yoki saviyasi ularni tasniflashning eng muhim negizi hisoblanadi. Guguhni rivojlanish darajasi shaxslararo munosabatlar shakllanganligining belgisi, guruhlar shakllanishi jarayoning natijasidir. Guguhning bu xildagi o'lchovi (parametri) sovet psixologiyasida aloxida ajratib ko'rsatilgandir.

Oila sosialistik jamiyatning yosh avlodini tarbiyalash va odamlarning o'zaro ahloqiy hamda bir-biriga o'zaro yordam ko'rsatishini taqozo etadigan shaxsiy bax-saodatini ta'minlashdan iborat eng muhim sosial vazifani bajaradigan bo'g'inidir. Oilada jamoaning aynan bir xil bo'lib qolishi bolaga hadeb

rahmdillik qilaverishidan va unga hamma narsani ravo ko'raverishdan ham, bolaga nisbatan xudbinlarcha, g'arazgo'ylik bilan munosabatda bo'lishdan ham babbaravar voz kechilishini taqozo etadi. Bunda bolalar to'g'risida va ularning rohat-farog'ati haqida amaliy g'amxurlik hamda shu bilan birga otalarning mabodo ularning urnida bulganlarida o'zlariga nisbatan qanday talab qo'yishsa, huddi ana shunday talablar qo'yilishi ko'zda tutiladi.

BILISH JARAYONLARI. SEZGILAR

Tevarak atrofdagi olamning boyligi haqida, kishi hayoti va tovushlar va ranglar, hidlar va harorat va ko'plab boshqa narsalar to'g'risida biz sezgi organlari tufayli bilamiz. Kishi vujudi sezgi a'zolari yordamida sezgilar shaklida tashqi va ichki muhitning holati haqida rang-barang axborot olib turadi.

Sezgi-bu oddiy psixik jarayon bo'lib, u moddiy olamdagi narsa va hodisalarning ayrim xususiyatlari aksidan, shuningdek, moddiy qo'zg'atuvchilar tegishli reseptorlarga bevosita ta'sir etgan taqdirda organizmda hosil bo'ladigan ichki holatlardan tarkib topadi. Materiya bizning sezgi organlarimizga ta'sir etib sezgi hosil qiladi.

Sezgi a'zolari axborotni qabul qilib oladi, saralaydi, jamlaydi va miyaga yetkazib beradi. Miya bunday axborotning benihoya katta va tuganmas oqimini har daqiqada qabul qilib va qayta ishlab turadi. Natijada tevarak-atrofdagi olamning va organizmning xususan o'z holatining harakatini to'g'rilab turishga, ovqat hazm qiladigan a'zolarining, kara-karalantiruvchi muchallarning, ichik sekresiya bezlarining ishiga, sezgi a'zolarining xususan o'zlarini yo'naltirib turishga ma'sul bo'lgan ijro organlariga kelib turadigan nerv signallari va ush kabilar shakllanadi. Bir zumda yuz beradigan ko'p minglab jarayonlardan tarkib topadigan ana shu g'oyat murakkab ish surunkali davom etadi.

Sezgi a'zolari kishi ongiga kirib keladigan yagona xarakat yo'llaridir. Bir moddaning xech qanday formasini, harakatning hech qanday formasini sezgilardan boshqacha yo'l bilan olmaymiz.

Sezgi a'zolari kishiga tevarak atrofdagi olamda mo'ljal olish imkonini beradi. Agar kishi barcha sezgi a'zolaridan mahrum bo'lib qolsa bormi, u o'zining atrofida nimalar yuz berayotganini bila og'lmas, tevarak-atrofdagi odamlar bilan munosabatda kirisha olmasligi mumkin va aksincha ilgari tajribalarda qo'llanilgan qo'zg'atuvchi taxminiy ta'sirotni yo'qotib qo'yadi.

Sezgilar ma'lum bir qo'zg'atuvchining muayyan tasniflashi reseptorga ta'siri natijasida hosil bo'lgani uchun ham sezgilarning tasnifi ularni hosil qiladigan qo'zg'atuvchilarning va ana shu qo'zg'atuvchilar ta'sir qiladigan reseptorlarning xususiyatlariga asoslanadi. Aks etish xususiyatiga va reseptorlarning joylashgan o'rniga qarab sezgilar odatda, uch guruhga ajratiladi:

1) tashqi muhitdagi narsalar va hodisalarning xususiyatlarini aks ettiradigan hamda tananing yuzasida reseptorlarga bo'lgan eksteroseptiv sezgilar;

2. tananing ichki a'zolarida va to'qimalarida joylashgan hamda ichki a'zolarining holatini aks ettiradigan reseptorlarga ega bo'lgan interoseptiv sezgilar;

3. reseptorlari mushaklarda va paylarda o'rnatilgan propioseptiv sezgilar; ular gavamizning xarakati va holati haqida axborot berib turadi. Harakatni sezuvchan propioseptiv haqida axborot berib turadi. Harakatni sezuvchan propioseptiv sezgi turi, shuningdek, **kinesteziya** deb tegishli reseptorlar esa kinestezik yoki kinestetik deb ataladi. Ekstroseptorlarni ikkita guruhga aloqa bog'laydigan kontakt va distant reseptorlarga ajratish mumkin. Aloqa bog'laydigan reseptorlar ularga ta'sir qiladigan ob'yektlar bilan bevosita aloqa bog'lagan paytda qo'zg'atadi; badanning tegishi orqali sezish, ta'm bilish reseptorlari shular jumlasidandir. Distant reseptorlar uzoqdagi ob'jektdan keladigan qo'zg'atishdan ta'sirlanadi;

Distant reseptorlarga ko'rish, eshitish, hid bilish reseptorlari kiradi.

Paypaslab ko'rish orqali sezish tarkibiga taktil teri tuyush sezgilar (terining badangan biror narsa tegishini tuyushi) bilan bir qatorda sezgilarning mustaqil turi-harorat sezgisi ham kiradi. U alohida harorat analizatorining funksiyasi hisoblanadi. Harorat sezgilar faqat bidan tegishi orqali sezishga kirib kolmasdan, balki mustaqil va butun termoregulyasiya jarayoni uchun hamda organizm bilan atrof-muhit o'rtasidagi issiqlik almashuvi uchun ko'proq umumiy ahamiyatga egadir.

Sezgilar aynan bir xil qo'zg'atuvchilarning aks ettirish shaklaridan iboratdir. Jumladan, elektr magnitlari nurlanishini ko'rish sezgisining qo'zg'atuvchisi hisoblanadi. Bu nurlanish to'lqini uzunligi 380 dan 770 millimikron doirasida bo'ladi va ko'rish analizatorida nerv jarayoniga aylanadi. O'z navbatida bu jarayon ko'rish sezgisini hosil qiladi. Eshitish sezgilar-reseptrlarga tebranish tezligi 16dan 20000 ga qadar bo'lgan tovush to'lqinlari ta'sirining aks etish natijasidir. Taktil sezgilar mexanik qo'zg'atuvchining teri yuzasiga ta'siri ostida hosil bo'ladi. Tebranish sezgilari karlar uchun alohida ahamiyatga ega bo'lib, narsalarning tebranishi natijasida yuz beradi.

Analizatorlar o'zaro mo'nosabati va Mashq qilish natijasida sezuvchanlikning ortishi sensibilizatsiya deb ataladi.

Analizatorlarning markaziy bo'lmalari djoylashgan bosh miya qobig'ida qo'zg'alishning irradiasiyalashuvi (tarqalishi) va konsentratsiyalashuvi (to'planishi) jarayonlari sezgilar o'zaro munosabatining fiziologik mexanizmi bo'lib hisoblanadi. I.P.Pavlovning fikricha, kuchsiz qo'zg'atuvchi katta yarim sharlar qobig'ida osongina taraqladigan qo'zg'alish jarayonini hosil qiladi. qo'zg'alish jarayonining (irradiasiyalashuvi) natijasida boshqa analizatorlarning tormozlanishiga va ular sezuvchanligining susayib ketishiga

olib keladi. Analizatorlarning sezuvchanligi ikkinchi sezgilarga mansub qo'zg'atuvchilar ta'siri ostida ham o'zgarishi mumkin. Jumladan sinaluvchilarga eshittirib «limon kabi nordon» degan so'zlarga javoban ko'zlarning va tilning elektr sezuvchanligini o'zgartirib yuborgani kuzatiladi. Bu o'zgaruvchilar tilning limon suvi bilan qo'zg'atilishi paytida hosil bo'lgan o'zgarishlarga aynan o'xshash bo'lgan.

Sezgilarning o'zaro munosabati-sinesteziya deb atalmish. Yana bir hodisada namoyon bo'ladi.. sinesteziya- bir analizatorning qo'zg'alishi ta'siri ostida boshqa analizatorga xos sezgining hosild bo'lishidir. Sinesteziya sezgilarning har-xil turlarida kuzatiladi. Tovush qo'zg'atuvchilari ta'sir qilganda sub'yektda ko'rish obrazlari paydo bo'lganida ko'pincha ko'rish-eshitish sinesteziyasi uchraydi. Har-xil odamlarda bu sinesteziyalarda muvofiqlik bo'lmaydi, lekin ular alohida har bir odam uchun, aytarlicha turg'un hisoblanadi. Ayrim kompozitorlar (N.A.Rimskiy-Korsakov, A.N.Skryabin va boshqalar)da «rangni eshitish» qobiliyati bo'lganini bilamiz. Bu xildagi sinesteziyaning yorqin namunasini litvalik rassom M.K.Chyurlyonisning ijodida, uning ranglar simfoniyasida ko'ramiz. Sinesteziya hodisalari kishi organizmidagi analizator sistemalari o'zaro doimiy bog'langanidan, ob'yektiv olamni hissiy yaxlitligidan yana bir dalolatdir.

Sezgi a'zolari birgina qo'zg'atuvchilarni qo'llash yo'li Bilangina emas, balki MashqLar qilish yo'li bilan ham sensibillashuvi mumkin. Sezgi a'zolarini Mashq qildirish va ularni takomillashtirish imkoniyatlari juda ham kattadir. Sezgi a'zolari sezuvchanligining oshishiga olib boradigan ikki sohani ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Sensor nuqsonlar (ko'rlik, qarilik)ning o'rnini to'ldirish, zaruriyatidan stixiyali tarzda kelib chiqadigan sensiblizasiya va
2. Sub'yekt faoliyati tufayli kasbiga xos talablardan kelib chiqadigan sensiblizasiya

Ko'rish yoki eshitish sohasining yo'qotilganligi ma'lum darajada sezuvchanlikning boshqa turlarini rivojlantirish hisobiga to'ldiriladi. Shunday hollar ma'lumki, ko'ra olmay qolgan kishilar haykaltaroshlik bilan shug'ullanganlar, ularda tuyish sezgisi juda yuksak rivojlangan bo'ladi. quloqni kar odamlarda havoning tebranishiga qiyosan sezishning rivojlanganligi ham ana shunday hodisalar jumlasiga kiradi. Ba'zi bir qulog'i kar odamlarda tebranishni sezuvchanlik shu qadar kuchli bo'ladiki, ular hatto muzika ohangini ham eshita olishlari mumkin.

DIQQAT

Diqqat-kishi faoliyati barcha turlari, eng avvalo mehnat va o'quv faoliyati samaradorligining muhim, va zarur shartidir. Mehnat qanchalik murakkab va ma'suliyatli bo'lsa, u diqqatga shunchalik katta talablar qo'yadi. Ziyraklik kishiga uning kundalik hayotida, turmushida, boshqa odamlar bilan munosabatda

kirishishida, sportda zarurdir. O'quvchilarning diqqat-e'tibori o'quv-tarbiya jarayonini muvaffaqiyatli tashkil etishning asosiy shartlaridan biridir. ta'lim olishda diqqatning rolini ta'kidlarkan, buyuk rus pedagogi K.D.Ushinskiy «...diqqat aynan shunday bir eshikki, tashqi olamdan kishi qalbiga kirib keladigan jamiki narsalarning barchasi shu eshik orqali kiradi»-deb yozgan edi. Bolalarni bu eshikni ochiq saqlashga o'rgatish birinchi darajali ahamiyatga molik ish ekanligi tushunarli. Butun ta'limning muvaffaqiyati ana shu ish muvaffaqiyatiga tayanadi. Bilish jarayonlari kechishining eng muhim xususiyati uning tanlaydigan, yo'naltirilgan tusdaligidan iboratdir. Tevarakatdagi odamning ko'plab ta'sirlari orasidan kishi hamisha nimanidir idrok etadi, nimanidir faraz qiladi, nima haqdadir fikr yuritadi, o'ylaydi. Ongning bu xossasini uning diqqat kabi xususiyati bilan o'zaro bog'liq deb hisoblashadi.

Oliy shakllardagi diqqatni psixik jarayonlar va kishining anglanilgan xulq-atvori ko'chishning boshqarilishi bilan bog'liq deb hisoblashadi.

Diqqat sezgi, xotira, tafakkur va xarakat jarayonlarida namoyon bo'lishi mumkin. Shu sababli diqqatni biror narsaga qaratish ob'yektiga (idrok etiladigan buyum, xotira, tafakkur, xarakat tasavvurlari) bog'liq holda diqqatning namoyon bo'lishining quyidagi shakllarini: ajratib ko'rsatadilar. Hozirgi vaqtda sensor (ko'rish va eshitish) diqqati ko'proq o'rganilgandir. Diqqatga ta'rif beradigan ma'lumotlarning ko'pchiligi amalda uni tadqiq etish natijasida qo'lga kiritilgan. Diqqat bamisoli bilish (idrok, xotira va tafakkur) jarayonlari orasida namoyon bo'lib, ular samaradorligining oshishiga yordam beradi. Jumladan, idrokning ani-ravshanligi va to'laqonliligi diqqatga bog'liq, diqqatning susayishi perseptiv jarayonlarning birmuncha darajada buzilishiga va shakllanayotgan siymoning o'zgarib ketishiga olib borishi mumkin.

Hosil bo'lish xususiyatiga va amal qilish usullariga ko'ra diqqatning ikkita asosiy turi-ixtiyorsiz va ixtiyoriy turlari mavjud deb hisoblashadi. Ixtiyorsiz diqqat kishining anglashilgan niyatlari va maqsadlaridan mustasno tarzda hosil bo'ladi va qo'llab-quvvatlanadi. Ixtiyoriy diqqat ongli ravishda boshqariladigan va tartibga solinadigan diqqat-e'tibordir ixtiyoriy diqqat ixtiyorsiz diqqat zamirida hosil bo'ladi.

Yangiligi ilgari mavjud bo'lmagan qo'zg'atuvchining yuzaga kelishidan, mavjud qo'zg'atuvchilarning jismaniy xususiyatldari o'zgarishidan, ular ta'sirining susayishi yoki yo'qolib qolishidan, tanish qo'zg'atuvchilarning yo'qligidan, qo'zg'atuvchilarning fazoda ko'chib yurishidan (xarakatlanuvchi buyumlar, odatda diqqatni o'ziga jalb etadi) iborat bo'lishi mumkin. Odatdagidan boshqacha barcha narsalar diqqatni o'ziga tortadi.

Diqqatnikuchli qo'zg'atuvchilar: baland ovoz, yorqin nu rva bo'yoq, kuchli hid jalb etadi. Bunda quzg'atuvchining absalyut jadalligidan ko'ra nisbiy jadalligi, ya'ni qo'zg'atuvchining o'sha paytda ta'sir qilayotgan boshqa qo'zg'atuvchilar Bilan kuch jihatdan o'zaro nisbati ahamiyat kasb etadi; shunday

qilib ular o'rtasidagi keskin farq hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Bu qo'zg'atuvchining faqat kuchiga emas, balki uning boshqa xususiyatlariga ham taluqlidir. Jumladan, kichkina buyumlar, narsalar orasida, uchburchak esa to'rtburchaklar orasida tezroq payqaladi.

Individning ehtiyojlariga muvofiq keladigan, uning uchun ahamiyatga ega bo'lgan qo'zg'atuvchilar ixtiyorsiz diqqatni qo'zg'aydi. Chunonchi, sinaluvchi tajriba sharoitlarida diktator o'qiyotgan xabarni idrok etish bo'yicha ko'rsatmaga muvofiq diqqatini jamlagan va boshqa bir kishining shu Bilan bir vaqtda eshiiylayotgan ovoziga yetarli darajada e'tiborni qaratmagan bo'lsa ham, o'sha boshqa birov sinaluvchining nomini tilga olganida unga darhol diqqatini qaratadi.

Ixtiyorsiz diqqatga bekvosita qiziqishning roli benihoya kattadir. Nimainki qiziqarli, maroqli, hissiyotga boy, zavqli bo'lsa, diqqatning uzoq vaqt mobaynida tuplanib turishini taqozo etadi.

Ixtiyorsiz diqqat shaxsning umumiy yo'nalganligiga ham bog'liqdir. Masalan, teatr Bilan qiziqadigan kishi, ehtimol futbol bo'yicha bo'lajak musobaqa haqidagi e'longa e'tibor bermasadan, Ayni chog'da teatrga oid Yangi e'lonni tezroq payqashi mumkin.

Ixtiyoriy diqqat diqqatning oliy turi sifatida mehnat jarayonida tarkib opgandir. Ixtiyoriy diqqat agar kishi faoliyati jarayonida o'z oldiga ma'lum bir vazifa qo'ygan qo'ygan va harakat programmasini ongli tarzda ishlab chiqqan bo'lsa yuz beradi. Diqqat ancha Yangi, qiziqarli, maroqli bo'lmagan narsalarga qaratilmasdan, aksincha faoliyatning maqsadi Bilan bog'liq narsalarga, uni amalga oshirish uchun muhim va zarur bo'lgan narsalarga jalb etilgan sharoitlarda ko'pincha irodaviy kuch-g'ayratlarni ishga solish talab qilinadi.

Ixtiyoriy diqqat jarayonida shaxsning faolligi namoyon bo'ladiki, bunday vaqtda qiziqishlar bilvosita xususiyat (bu faoliyat maqsadi va natijasining ehtiyojlari) kasb etadi. Ixtiyoriy diqqatning asosiy vazifasi psixik jarayonlarning kechishini faol boshqarib turishdan iboratdir.

Ixtiyoriy va ixtiyorsiz diqqatdan tashqarii uning Yana bir alohida turini-ixtiyoriydan so'nggi diqqatni alohida ko'rsatish mumkin. Bu tushuncha psixologiyaga N.F.Dobrini tomonidan joriy etilgan.

Agar maqsadga yo'naltirilgan faoliyatda shaxs uchun diqqatning ixtiyoriy to'planganidagi kabi faqat faoliyat natijasi emas, balki uning mazmuni va jarayonining o'zi qiziqarli va ahamiyatli bo'lsa, bu ixtiyoriydan so'nggi diqqat to'g'risida mulohaza yuritishga asos beradi. Bu holda faoliyat kishini shu qadar qiziqtirib yuboradiki, u diqqatni ob'yektga –aratish uchun sezilarli irodaviy kuch-g'ayrat sarflamasa ham bo'laveradi. Shunday qilib ixtiyoriydan so'nggi diqqat ixtiyoriy diqqatdan keyin namoyon bo'lgan holda shuning o'zidangina iborat deb hisoblanishi mumkin emas. Bu diqqat anglanilgan holda ilgari surilgan maqsad Bilan bog'liq bo'lganligi sababli u

ixtiyorsiz diqqatdangina iborat qilib qo'yilishi ham mumkin emas. Masalan, yuqori sinf o'quvchisi imtihonga tayyorlanayotib, keyin kitobning qisqacha mazmunini yozib chiqarkan, oldiniga o'zini diqqat e'tiborli bo'lishga, alaqsimaslikka majbur qiladi. Lekin keyinchalik u ishga shunday qiziqib ketadiki, oqibatda uni kitobdan chalg'itish qiyin bo'lib qoladi. Dastavval irodaviy kuch-g'ayratlar madadiga tayangan diqqat ixtiyoriydan so'nggi diqqatga aylanadi. Ixtiyoriydan so'nggi diqqat biror narsaga uzoq vaqt davomida juda ham barqaror qaratilishi Bilan belgilanadi, ko'proq yuqori darajadagi jadal va unumli aqLiy faoliyatni, barcha turdagi mehnatning yuksak unumdorligini asosli ravishda ana shunday diqqat turi Bilan bog'liq deb hisoblaydilar.

Maktab o'quv- tarbiya jarayonini tashkil etishda diqqatning barcha uturlariga xos xususiyatlarni hisobga olish zarur. O'quv jarayonida ixtiyorsiz diqqat muhim rol o'ynaydi. Ixtiyorsiz diqqatning boshlang'ich sinflardagi roli Ayniqsa kattadir. Negaki, kichik yoshdagi o'quvchilarda diqqatni ixtiyoriy ravishda biror narsaga qaratish qobiliyati sust rivojlangan buladi. Lekin hatto quyi sinflarda ham o'quv-tarbiya jarayonini diqqatning faqat ana shu turiga aoslangan holda olib borish maqsadga muvofiq emas. Hali K.D.Ushinskiy qayd etib ketganidek, «o'z darsingizni maroqli o'tkazar ekansiz, bolalarni esriktirib qo'yishdan qo'zg'almasligingiz mumkin, lekin shuni esda tutingki, Mashg'ulotda hamma narsa ham maroqli bo'lavermasligi mumkin, aksincha muqarrar zerikarli narsalar ham bo'ladi va shunday bo'lishi ham kerak. Bolani uni qiziqtirgan ishnigina emas, balki qiziqtirmaydigan ishni ham bajarishga-zavq-shavq olish maqsadida o'z burchini ado etishga o'rgating. Maktab ish tajribasida shuning uchun ham ixtiyoriy va ixtiyorsiz diqqatni birga qo'shib olib bori shva ixtiyorsiz diqqatga tayangan holda diqqatni tarbiyalash zarur». Diqqatni irodaviy kuch-g'ayratlar yordami bilan doimo bir maromda saqlab turish o'ta zo'riqishni talab qiladi. Va kishini juda ham toliqtirib qo'yadi.

Diqqatni fiziologik asoslarini tushuntirib yetishida buyuk rus fiziologlari I.P.Pavlov va A.A.Uxtomskiylarning ilmiy ishlari katta ahamiyatga egadir. Nerv sistemasining alohida reaksiyalari-oriyentir reflekslar haqida I.P.Pavlov ilgari surgan tasavvurda (I.P.Pavlov uni «bu nima?» refleksii deb atagan edi) ixtiyorsiz diqqatning g'ayri ixtiyoriy (reflektiv) tabiati haqidagi taxmin bor edi. Hozirgi zamon ma'lumotlari (Ye.N.Sokolov va boshqalar)ga qaraganda, oriyentir reflekslar jud ham murakkabdir. Ular organizm anchagina qismining faolligi Bilan boqlangandir. Oriyentir kompleksga tashqi xarakatlar (masalan, ko'zlarning va boshning qo'g'atuvchi tomonga burilishi) ham, muayyan analizatorlar sezuvchanligining o'zgarishi ham kiradi: moda almashinuvi xususiyati uzgaradi; nafas olish, yurak-qon vegetativ o'zgarishlar yuz beradi; Ayni paytda miyaning elektr faolligi o'zgarishi ham sodir bo'ladi. I.P.Pavlov va A.A.Uxtomskiylarning g'oyalariga binoan diqqatning hodisalari

qo'zg'alish va tormozlanish jarayonlarining o'zaro birgalikdagi xarakati natijasida muayyan miya tuzilishlarining qo'zg'atuvchanligi bilan bog'liqdir.

I.P.Palovning hisoblashicha, vaqtning har bir lahzasida miya qobig'ida qo'zg'alish uchun ancha qulay va maqbul sharoitlarga egaligi bilan ajralib turadigan biron bir qism mavjud bo'ladi. Bosh miya qobig'ining bita qismida to'plangan nerv jarayonlari shunga muvofiq tarzda uning boshqa qismlarida tormozlanishga (va aksincha) olib keladi. qo'zg'alishning eng maqbul markazida yangi shartli reflekslar osongina paydo bo'ladi, tabaqalanish muvaffaqiyatli ravishda yuz beradi. Mazkur holda bu «katta yarim sharlarning ijodiy bo'lmasi» dir. Eng maqbul qo'zg'alish markazi o'zgaruvchandir. I.P.pavlov shunday deb yozgan edi: «Agar bosh suyak kosasi orqali ko'rish mumkin bo'lganda va agar eng maqbul qo'zg'alanadigan katta yarim sharlar uni yoritilganda bormi, bu holda biz fikrlaydigan ongli odamda uning katta yarim sharlari bo'ylab doimo o'zgarib turadigan, shakli va kattaligi holati ko'rinishga ega bo'lgan hamda yarim sharlarning qolgan barcha bo'shlig'ida ko'proq yoki ozroq darajadagi soya bilan o'ralgan och rangli dog'ning u yoqdan-bu yoqqa qay tarzda ko'chib yurishini ko'rgan bo'lardik». Ushbu och rangli «>doh» huddi o'sha eng maqbul qo'zg'alish markaziga mos keladi, uning «u yoqdan-bu yoqqa ko'chib yurishi» diqqatning jo'shqinligini ta'minlaydigan fiziologik shart hisoblanadi. I.P.Pavlov qo'zg'alish markazining bosh miya postlog'i bo'ylab xarakat qilishi haqidagi qoidasi hozirgi zamondagi eksperimental tadqiqotlar (N.M.Livanovning ma'lumotlari) bilan isbotlandi.

Diqqatning fiziologik mexanizmlarini tushunib yetishida dominanta (nasldan-naslga o'tuvchi asosiy belgi) prinsipi alohida ahamiyatga egadir. A.A.Uxtomskiyning fikriga ko'ra, miyada hamisha qo'zg'alishning ustun va hukmronlik qiluvchi markazi bo'ladi. A.A.Uxtomskiy dominantni «yuksak darajadagi qo'zg'alish markazlari konstellyasiyasi (mavjud ahvoli) deb ta'riflaydi. Dominantaning hukmronlik qiluvchi sifatidagi xususiyati shundan ibratki, u qo'zg'alishning yangi hosil bo'ladigan markazlarini faqat tiyib qo'ya qolmaydi, balki sust qo'zg'alishlarni o'ziga jalb etishga («tortishga») vash u tufayli ularning hisobiga yanada kuchayishga, ular ustidan yanada ko'proq darajada ustunlik qilishga ham qodirdir. A.A.Uxtomskiy «Dominanta» degan nom zahirida yuksak darajadagi qo'zg'alishning ko'proq yoki ozroq barqaror markazi tushuniladi», deb yozgan edi. A.A.Uxtomskiyning dominanta to'g'risidagi tasavvurlari uzoq vaqt davomida diqqatning xarakatlantiruvchi mexanizmini tushunish imkonini beradi. Diqqat turlicha sifat ko'rinishlari bilan ta'riflanadi. Diqqatning bu ko'rinishlarini diqqatning sifati yoki diqqatning xususiyatlari deb ataladi. Diqqatning barqarorligi, ko'chishi, taqsimlanishi va ko'lami shular jumlasiga kiradi. Diqqatning har-xil sifatleri bir-birlariga bog'langandir. Diqqat asosiy xususiyatlarining o'zaro bog'liqligi tufayli hosil bo'lgan murakkab funksional strukturasi bilan belgilanadi.

IDROK

Narsalar yoki hodisalarning sezgi sezgi a'zolariga bevosita ta'sir qilish jaryonida kishi ongida aks etish idrok deb aytiladi. Idrok etish jarayonida alohida holdagi sezgilarning tartibga solinishi hamda narsalar va voqea-hodisalarning yaxlit obrazlariga birlashuvi yuz beradi.

Qo'zg'atuvchining alohida xususiyatlari aks etadigan sezgilardan farqli o'laroq, idrok narsalarni umuman, uning xususiyatlari bilan birgalikda aks ettiradi. Bunda idrok alohida sezgilar yig'indisidan iborat tarzda emas, balki hissiy yuqori bosqichi sifatida tasavvur qilinadi. Idrokning ancha muhim xususiyatlari predmetlilik, yaxlitlik, strukturalilik, barqarorlik, va anglanilganlikdan iboratdir.

Idrokning predmetliliği, ob'yektivlashtirish hodisada, ya'ni tashqi dunyodan olinadigan axborotning o'sha dunyoga mansubligida ifoda etiladi.

B.G.Ananev (1907-1972) bemor kishida ko'rish analizatlari sezgilari va oddiy farq ajratish sezgilarining chala qismlari saqlanib qolgan holda narsalarni ko'rish idrokining buzilish hodisalarini bayon qilib bergan edi. Bu bemorda kontuziya oqibatida bosh miya jarohatlangan bo'lib, ko'z soqqalri batamom harakatsizligi kuzatilgan edi. Bemor ko'rinadigan butun bo'shliqni sub'yektiv tarzda yo batamom nurli oqim kabi, yo yorug'lik o'tadigan tuman kabi sezardi. Ko'rish sezgisining tiklashni birinchi bosqichida, batamom bo'shliqdan tarqoq va tuturuqsiz o'z yorug'ligi va hajmiga ko'ra turlicha dog'lar farqlana boshladi. Bemorning ko'rish sezgilar djarajasida saqlanib qolgan bo'lsa ham, u Biron-bir ob'yektni narsa sifatida na og'zaki va na yozma shaklda ifoda etolmadi va uning xususiyatlarini aytib Bera olmadi. Uch oy davomida salomatligini tiklash yuzasidan olib borilgan muolajadan keyingina bemorning ko'zlari faqat sezadigan emas, idrok qiladigan ham bo'lib qoldi.

Shunday qilib ko'rish sezgisining o'zi narsalarning aks ettirilishini ta'min eta olmaydi.

Masalan bir qator mualliflar qurbaqadagi to'rpardani «hasharotlar dedektori» sifatida ta'riflashadi. Bu «didektor» to'rpardaga, masalan, pashshaning kichkinagina soyasi tushgan paytida tildagi reflektorni ishga soladi. qurbaqaning ko'zi ob'yektning bir nechtagina belgisi, asosan uning harakati va unda burilishlarning mavjudligi haqidagina axborot beradi, boshqa hamma narsalar rad etiladi va miyaga yuborilmaydi. Bunday holda qurbaqada uning ko'ziga ko'ringan narsaning predmetli obrazi paydo bo'ladimi? Shubhasiz, paydo bo'lmaydi. Negaki, bunday holda jonsiz pashshalar qurshovida qolgan qurbaqa ochlikdan ulishi mumkin.

predmetlilik idrokning belgisi sifatida hatti-harakatni boshqarishda alohida rol o'ynaydi. Predmetlilik preseptiv jarayonlarning bundan keyingi shakllanishida ham katta rol o'ynaydi.

Idrokning Yana bir xususiyati uning yaxlitligidir. Sezgi a'zolariga ta'sir qiladigan ayrim xususiyatlarini ake ettiradigan sezgilardan farqli o'laroq, idrok narsaning yaxlit obrazi hisoblanadi. O'z-o'zidan ravshanki, bu yaxlit obraz narsaning ayrim xususiyatlari va belgilari haqida turli xil sezgilar tarzida olinadigan bilimlarni umumlashtirish negizida tarkib topadi.

Idrokning yaxlitligi uning strukturaliligi Bilan bog'langandir. Idrok ma'lum darajada bizning bir lahzalik sezgilarimizga javob bermaydi va ularning shunchaki oddiyo yig'indisi ham emas. Biz ana shu sezgilardan amalda mavsumlashgan va birmuncha vaqt davomida shakllanadigan umumlashgan strukturani idrok etamiz. Agar kishi bironta kuyni tinglayotgan bo'lsa, oldinroq eshitgan ohangi yangisi eshittirila boshlagandan keyin ham uning qulog'iga chalinayotganday tuyulaveradi.

Idrok ham sezgi kabi reflektor jarayonidir. I.P.Pavlov idrokning negizini tevarak-atrofimizdagi narsalar va hodisalar reseptorlarga ta'sir etishi natijasida bosh miyaning katta yarim sharlari qobig'ida hosil bo'ladigan shartli reo'lekslar, muvaqqat nerv boshlanishlari tashkil etishini ko'rsatib bergan edi. Tashqi olamdagi narsalar va hodisalar kompleks qo'zg'atuvchilar sifatida xizmat qiladi. Analizatorlarning qobiq bo'lmalari o'zagida ana shu kompleks qo'zg'atuvchilarning murakkab tahlili va sintezi amalga oshiriladi. «... Shartli qo'zg'atuvchilar sifatidagi omillar uzluksiz va rang-barang tarzda o'zgaib turadigan tabiat Bilan uyg'unlashgan holda goho organizm uchu no'ta mayda qismlar tarzidagi yarim sharlar bo'lib ajralib turishar (tahlil etilar), goho ko'plab turli-tuman komplekslarga qo'shilib ketishar (sintez qilinar) edi ». tahlil idrok etish ob'yektining fon ajratilishini ta'min etadi. Tahlil asosida idrok ob'yektining barcha xususiyatlari yaxlit obrazga umumlashtiriladi.

Idrok sezgilarga qaraganda miyaning ancha yuksak darajadagi tahlil qilish, umumlashtirish faoliyati hisoblanadi. Tahlil qilmasdan turib idrokning anglangan bo'lishi mumkin emas. Jumladan, notanish xorijiy tilda aytilgan nutq boshdan-oyoq tovushlar oqimi tarzida idrok etiladi. Ayni paytda nutqni idrok etish jarayonida tahlil Bilan bab-baravar tarzda sintez ham qilinadi, shu tufayli biz alohida tarqoq tovushlarni emas, balki so'zlarni va iboralarni idrok eamiz. Muvaqqat nerv bog'lanishlarining o'rnatilishi sintezning negizini tashkil etadi.

Idrokning negizi nerv bog'lanishlarining ikkita turidan bita analizator doirasida hosil bo'ladigan bog'lanishlardan va analizatorlararo bog'lanishlardan tarkib topadi. Birinchi holat organizmda yubitta moddalikdagi kompleks qo'zg'atuvchi ta'sir etganda kuzatiladi.

Eshitish analizatorlariga ta'sir qiladigan alohida tovushlarning o'ziga xos birikmasidan iborat kuy ana shunday qo'zg'atuvchi bo'lishi mumkin. Ushbu kompleksning hammasi bita murakkab qo'zg'atuvchi sifatida ta'sir qiladi.

Idrok- idrok etilayotgan ob'yektni tekshirish va uning aynan o'xshaydigan nusxasini yaratishga yo'naltirilgan o'ziga xos xarakatdir. Idrokning

muhim qismi harakatlantiruvchi (motor) jarayonlardan iboratdir. Narsani paypaslab his etadigan qo'llarning harakatlari, narsaning ko'rinadigan shaklini kuzatuvchi ko'zlarning xarakati, eshitiladigan, ovoz chiqaradigan hiqildoqning harakati va hokozolar shular jumlasiga kiradi.

Harakat komponentlari paypaslash hodisasida katta rol o'ynaydi. Ma'lumki, terining sust darajadagi tuyushi kishi organizmining butun ustki teri qismiga xos xususiyat hisoblanadi. Terining faol tuyushi yuksak darajadagi aniqligi Bilan ajralib turadi-narsaning aks etishi Bilan bir xilligi xarakatlanayotgan qo'lning idrok etilayotgan narsaga nisbatan ko'chishiga qarab yuz beradi.

Qo'l va ko'zlarning ishida ko'pgina umumiyliklar mavjud. Ko'zlar huddi qo'llar kabi suratni va narsaning shaklini izchillik Bilan tekshirib chiqadi, «ushlab ko'radi». I.M.Sechenov bu haqda shunday deb yozgan edi. «...Gap narsalarning shakli va hajmi haqida boryapdimi yoki ularning olisligi va nisbiy joylashganligi haqida boryapdimi, bundan qatg'iy nazar ko'zning ko'rish paytida va qo'llarning paypaslash chog'idagi harakatlanuvchi ta'sirotlari mohiyat e'tibori Bilan mutloqo bir xildir...». qo'l ko'zlarga o'zining paypaslab his etish usullariga «o'rgatadi», bunday paypaslab his etishning o'ziga xos strategiyasi va taktikasidan «saboq» beradi.

XOTIRA

Psixikaning eng muhim xususiyati shundan iboratki, individ tashqi ta'sirotlarning aks ettirilishidan o'zining keyingi hatti-xarakatlarida doimo foydalanadi. Individual tajriba orta borishi hisobiga hulq-atvor sekin-asta murakkablashadi. Agar tashqi dunyoning miya qobig'ida hosil bo'ladigan obrazlari beiz yo'qolib ketaversa, tajribaning shakllanishi mutloqo mumkin bo'lmay qolur edi.

Individning o'z tajribasini esda olib qolishi, esda saqlashi va keyinchalik uni Yana esga tushirishi xotira deb ataladi. Xotirada esda olib qolish, esda saqlash, esga tushirish, va unitish kabi asosiy jarayonlar alohida ajratib ko'rsatiladi. Bu jaayonlarning har biri alohida mustaqil psixik xususiyat hisoblanmaydi. Ular faolyati davomida shakllanadi va o'sha faoliyati jarayonida individual tajriba orttirilishiga bog'liqdir.

Shunday qilib xotira shaxs psixik hayotining eng muhim, belgilovchi xususiyati hisoblanadi. Xotiraning roli «o'tmishda» yuz bergan narsani aks ettirish bilangina cheklanib qolishi mumkin emas. Biron-bir faol ta'sir xotira jarayonidan tashqarida bo'lishi mumkin emas. Negaki, har qanday katta eng soda psixik hodisa ham o'zining har bir qismi keyingilari Bilan «bog'lanishi» uchun saqlab qolinishini muqarrar taqozo etadi. Bu xildagi «bog'lanish» uchun layoqat bo'lmasa, rivojlanish bo'lishi mumkin emas: kishi «mangu chaqaloqlik holatida qolib ketgan bo'lur edi (I.M.Sechenov). xotira barcha psixik jarayonlarning eng

muhim xarakteristikasi bo'lishi Bilan birga inson shaxsining birligi va yaxlitligini ta'minlaydi.

Shunday qilib, assosionizm har ikkala tasavvur o'rtasida aloqa bog'lanishi uchun ularning ongda Ayni bir vaqtda paydo bo'lishini zarur va yetarlicha asos deb hisoblaydi. Shu sababdan assosionistlar oldiga yodlab qolish mexanizmlarini tobora chuqurroq o'rganishni umuman vazifa qilib qo'yilmagan edi va ular «Ayni bir vaqtdagi tassurot»larning paydo bo'lishi uchun zarur tashqi shart-sharoitlarga ta'rif berish Bilan cheklanishdi. Bunday shart-sharoitlarning butun rang-barangligini quyidagi uchta turkumga ajratish mumkin;

A) tegishli ob'ektlarning fazo va vaqtdagi turdoshligi;

B) ularning o'xshashligi

S) ularning farqlanishi yoki qarama-qarshiligi

Tashqi olamda yuz beradigan hodisalar o'rtasidagi munosabatlarning ana shu uchta turiga muvofiq tarzda bog'lanishlarning uchta turi o'xshashligi, yondoshlig va qarama- qarshiligi buyicha bog'lanishlarni alohida ajratib ko'rsatilardi. Aytib o'tilgan bog'lanishlar negizini tasavvurlab «bog'lanish»ning Arastu (Eramizga qadar 384-322 yillar) tomonidan bayon etilgan uchta prinsipi tashkil qiladi. Assosionistlar bog'lanishlarning barcha turlarini, shu jumladan, sabab-oqibat bog'lanishlarini ham bir muncha zo'rma-zo'rlikdan holi bo'lmagan holda ana shu uchta prinsipga kiritishadi.

Assosiasiya tushunchasi o'zi garchi keyinchalik uning mazmuni jiddiy ravishda anglanilgan va chuqurlashtirilgan bo'lsa ham psixologiyada mustahkam o'rin egalladi. Esda olib qolish-bu chindan ham Yangi narsani Allaqachon tajribada mavjud narsa Bilan bog'lashdir. Xotiraning navbatdagi jarayonini qismma-qism keng avj oldira olganimizda, ya'ni bironta materialni eslamog'chi bflganimizda, bog'lanish jarayoni tamomila aniq ravshan bo'ladi. Masalan, biz «esdan chiqmasin deb dastro'molchanning uchini tugib qo'yish» usulidan foydalanib, Biron-bir narsani qanday qilib xotiramizga tushuramiz? Biz ro'molchani qo'lga olayotib tugunga duch kelamiz; tugun bizni o'sha tugun tuglayotgan vaziyatga havola qiladi; vaziyat esa hamsuhbatimizni esga soladi; hamsuhbatdan esa suhbat mavzuiga ravona bo'lamiz va nihoyat, izlangan narsaga duch kelamiz. Lekin bunday bog'lanishlar zanjirini hosil qilish uchun, agar hodisalar makon va vaqtda qiyosan turdoshligining bir o'zi kifoya bo'lgan taqdirda, Ayni bir xil vaziyatda turli xil odamlarda bir xil bog'lanishlar zanjiri hosil qilishi mumkin.

Xotira ta'riflarining esda olib qolish va qayta esga tushirish jarayonlari sodir bo'ladigan faoliyatning xususiyatlariga bog'liqligi xotiraning har xil turlarini ajratish uchun umumiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Bunda xotiraning ayrim turlari uchta asosiy mezonga muvofiq tarzda bo'linadi:

- 1) faoliyatda ko'proq sezilib turadigan psixik faollikning xususiyatiga qarab xotira harakat, emosional, obrazli, va so'lantikli turlarga bo'linadi;
- 2) faoliyatning maqsadlariga xususiyatiga ko'ra ihtiyorsiz va ihtiyoriy xotira turlariga bo'linadi;
- 3) Materialni qancha vaqt esda saqlab qolish va esda saqlash muddatiga ko'ra (uning faoliyatdagi roli va tutgan o'rniga bog'liq ravishda) qisqa muddatli, uzoq muddatli va operativ xotira turlariga bo'linadi.

TAFAKKUR

Tafakkurning til bilan chambarchas bog'liqligi, inson tafakkurining sosial ijtimoiy, tarixiy mohiyatini ochiq oydin namoyon qilib borishi, ko'rgazmali harakatli tafakkur, mavhum tafakkur turlari haqida tushuncha beriladi.

Kishining butun hayoti uning oldiga hamisha jiddiy va kechiktirib bo'lmaydigan vazifalar va muammolarni qo'yadi. Bunday muammolarning, qiyinchiliklarning, tasodiflarning yuzaga kelishi atrofimizdagi voqelikda hali juda ko'p noma'lum tushunib bo'lmaydigan, kutilmagan, yashirin narsalar borligidan dalolat beradi. Demak, olamni borgan sari chuqurroq o'rganib borish, unda odamlar va narsalarning toboa yangi-yangi jarayonlarini, xususiyatlarini va o'zaro munosabatlarini ochish lozim. Tafakkur hamisha hali bilib olinmagan, yangiliklarni ana shunday cheksiz chuqur jihatlariga qaratilgan bo'ladi. Har bir odam tafakkur qilarkan, buning bilan shu paytgacha qandaydir yangilikni, noma'lum narsani mustaqil ravishda kashf qiladi (bu insoniyat uchun emas, balki faqat «o'zi uchun» arzimas bo'lsa ham, har holda yangilik kashf etadi). Masalan, har bir o'quvchi biroq o'quv vazifasini hal qilarkan, o'zi uchun albatta qandaydir yangilik ochadi.

Tafakkur jiddiy ravishda yangilikni qidirish va ochishga sosial jihatdan bog'liq, aloqador jarayondir, uning tahlili va sintezi jarayonida voqelikni bevosita va umumlashtirib aks ettirish jarayonidir. Tafakkur amaliy faoliyat asosida hissiy bilishlardan paydo bo'ladi va hissiy bilish chegarasidan ancha tashqariga chiqib ketadi.

Bilish faoliyati sezishva idrok qilishdan va tafakkur boshlanadi va keyin tafakkurga o'tib ketishi mumkin. Biroq istagan tafakkur, hatto eng rivojlangan tafakkur ham hamisha hissiy bilish bilan, ya'ni sezgi, idrok va tasavvurlar bilan bog'langan bo'ladi. Tafakkur faoliyati o'zining butun «materialini» faqat bita manbadan, ya'ni hissiy bilishdan oladi. Tafakkur sezgilar va idrok qilish jarayonlari orqali tashqi olam bilan bevosita bog'lanadi hamda shutariqa olamni aks ettiradi. Bu aks ettirishning tugriligi (adekvatligi) Amaliy faoliyat orqali tabiat va jamiyatni Amaliy o'zgartirish jarayonida uzluksiz tekshirilib turiladi.

Idrok qilish jarayonida sub'yekt(odam) bilan bilinayotgan ob'yekt o'rtasidagi o'zaro ta'sirning umumiy majmui natijalarigina berilgan bo'ladi. Lekin yashash va harakat qilish uchun avvalo tashqi olamdagi narsalarning

o'zi qanday ekanligini odamga qanday bo'lib ko'rinishidan qat'iy nazar va umuman ularni bilib bo'lish yki bilib bo'lmasligidan qat'iy nazar, ob'yektiv sur'atda bilish kerak. Tafakkur qilish jarayonida tashqi olamni bundan keyingi, yanada chuqurroq bilish amalga oshiriladi. Buning natijasida narsalar, voqealar, hodisalar o'rtasidagi murakkab o'zaro bog'lanishlarni ajratish, yechish mumkin bo'ladi. Buning natijasida narsalar, voqealar, hodisalar o'rtasidagi murakkab o'zaro bog'lanishlarni ajratish, yechish mumkin bo'ladi. Tananing harorat holatini aniqlash bilan bog'liq bo'lgan yuqoridagi oddiy misolning o'zidan Yana foydalanamiz. Tafakkur tufayli yuqorida ko'rsatilgan har ikki o'zaro bog'lanish holatini bir-biridan qandaydir ajratish, abstraksiyalashtirish imkoniyati tug'iladi. Bunga bevosita bilish yo'li bilan erishiladi. Kishi tafakkur jarayonida sezgi, idrok va tasavur ma'lumotlaridan foydalanarkan, shu bilan birga, hissiy bilish chegarasidan chetga chiqadi, ya'ni tashqi olamdagi shunday hodisalarni ularning xususiyatlari va o'zaro munosabatlarini bila boshlaydiki, ular sezgilarimizga bevosita mutlaqo berilmagan bo'lmadi. Hamda shuning uchun umuman bevosita kuzatish mumkin bo'lmaydi. Masalan, hozirgi zamon fizika fanining eng murakkab muammolaridan biri elementar zarrachalar nazariyasini yaratishdir. Biroq bu g'oyat mayday zarrachalarni, hatto hozirgi zamondagi eng qudratli mikroskop yordami bilan ham ko'rib bo'lmaydi. Boshqacha qilib aytganda, ularni bevosita idrok qilib bo'lmaydi; ularni kurish mumkin emas-ular haqida faqat tafakkur qilish mumkin. Abstrakt, mavhum bevosita tafakkur tufayli, bunday ko'zga ko'rinmadigan elementar zarrachalarning voqelikda haqiqatan borligi va muayyan xususiyatlarga ega ekanligini isbotlash mumkin bo'ldi. Bevosita kuzatib bo'lmaydigan zarrachalarning bu xususiyatlarini ham tafakkur jarayonida to'g'idan-to'g'ri yo'l bilan emas, balki boshqacha yo'l bilan, ya'ni bevosita yo'l bilan bilinadi.

Shunday qilib, tafakkur hissiy bilish endi yetarli bo'lmay qolgan yoki hatto o'jizlik qilib qolgan joyda boshlanadi. Tafakkur sezgi, idrok va tasavurlarning bilish bilan bog'liq bo'lgan ishlarini davom ettiradi va rivojlantiradi hamda ularning chegaralaridan tashqariga ham chiqib ketadi. Tasavvur harakatni butunicha qamrab ololmaydi, masalan, har sekundiga 300 000 km tezlikda harakatni qamrab ololmaydi. Tafakkur bo'lsa uni qamrab oladi va olmog'i lozim. Logika tafakkurning mantiqiy shakllarini, tushunchalarini, hukmlarini va xulosalarini o'rganadi. Tushuncha shunday bir fikrki, unda voqelikdagi narsa va xodisalarining umumiy. Muhim farq qiladigan (spesifik) belgilari aks ettiriladi. Masalan, «odam» tushunchasining tarkibiga mehnat faoliyati, mehnat qurollarini ishlab chiqarish, nutq kabi nihoyatda muhim xususiyatlar odamlarni hayvonlardan farqlaydi.

Tasavvur qilaylik, bir xil masalani bir necha o'quvchining har biri mustaqil ravishda hal qilayapdi; masala yechishdan iborat bo'lgan bu tafakkur prosesining ma'lum bosqichida o'qituvchi o'quvchilarning har biriga ayrim

ravishda mutlaqo bir xilda yordam beradi; o'quvchilarga masalaning yechilishi asoslangan teoremlardan birini aytib beradi. Tashqaridan bo'lgan bunday yordam har bir o'quvchiga bir xilda emas, balki xar xil ta'sir qiladi- o'quvchining o'zi masalani o'ylab hal qilishga qanchalik oldinga qarab ketganligi Bilan, ya'ni o'quvchi tafakkurining ichki sharoitlari Bilan bog'liq bo'ladi. O'quvchi masalani yechishda qanchalik ilgarilab va qanchalik tez oldinga qarab ketgan, uni qanchalik chuqur o'ylab ulgurgan bo'lsa, tashqaridan berilgan yordamdan foydalanishga shunchalik ortiq darajada tarkib topgan bo'ladi, va aksincha o'quvchining o'zi masalaning yechilishi ustida qanchalik kam o'ylagan bo'lsa, tashqaridan aytib berilgan yordamdan foydalanishi shunchalik qiyin bo'ladi va masalani oxirigacha yechishda ham qiynaladi. U tashqaridan aytib berilayotgan yordam teoremaning- ishga, ya'ni masalani yechishga avval boshda umuman hech qanday aloqasi yo'q deb o'ylashi mumkin, unda o'quvchi tashqaridan bo'lgan yordamni olmaydi, aniqrog'i yordamdan foydalana olmaydi. Manna shularning hammasi (pedagogik va boshqa) ta'sirlar faqat ichki sharoitlar orqaligina ijobiy yoki salbiy psixologik natija berishi mumkin degan ma'noni anglatadi. Tashqaridan aytib berilgan yordamdan foydalanmaslik fakti (bunday yordam, ehtimol, masalani yechish yo'lini to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatib turardi) ana shunday o'ziga xos ichki sharoitlarning va yikrlash jarayoni qonuniyatlarining mavjud ekanligini aniq ko'rsatib tikribdi.

Tafakkur operatsiyalari hissiy va rasional bilish, taqqoslash tizimlash, mavhumlash, turkumlash analiz va sintez, tafakkur xarakati motivatsiyasi, asosiy mexanizmlari haqida tushuncha beriladi. Tafakkur prosessii avvalo analiz, sintez va umumlashtiridir. Tafakkur prosessida ob'yek toбора yangidan-yangi aloqalarga kirishadi. Yangi tushunchalarda qayd qilinadigan o'zining yangi xususiyatlari va sifatlari bilan namoyon bo'lishi haqida tushuntiriladi. Tafakkur jarayoni avvalo analiz, sintez, va umumlashtirishdir. Analiz- ob'yektning u yoki bu tomonlarini, elementlarini, xossalarni bog'lanishlarini, munosabatlarini va boshqa shu kabilarni ajratib olib, o'rganilayotgan ob'yektni har xil komponentlarga bo'lish demakdir.

Biron bir narsani analiz qilish davomida bu narsaning g'oyat muhim, ahamiyatli, qiziqarli va boshqa shu kabi muayyan bir xususiyatlari juda kuchli qo'zg'atuvchi bo'ladi va ushning uchun bunday xususiyatlar oldingi qatorga chiqib oladi. Bunday qo'zg'atuvchilarning kuchli qo'zg'alish jarayonini yuzaga keltiradadi. Va induksiyaning fiziologik qonuniga ko'ra shu narsaning kuchsiz qo'zg'atuvchi hisoblangan boshqa xususiyatlari tabaqalashtiruvini tormozlashtiradi. Shunday qilib analiz psixik jarayonning fiziologik asosini bosh miyaning yuqori qavatlaridagi qo'zg'alish Bilan tormozlanish hodisalari o'rtasida ma'lum munosabat o'rnatish tashkil etadi.

Bir butun narsani analiz qilish natijasida ajratilgan komponentlar birlashtirish sintezidir. Sintez jarayonida bilinayotgan ob'yektning ajratib olingan elementlarini birlashtirish, joy-joyiga qo'yish yuzaga keladi. Masalan, ular o'rtasida aloqa o'rnatadi va bir qismning boshqa qismlarga qanday ta'sir qilishini tushuna boshlaydi. Natijada sintez amalga oshiriladi, ya'ni har turli elementlar o'rtasida aloqa va o'zaro munosabat o'rnatiladi. Bosh miyaning po'stloq qismida muvaqqat nerv bog'lanishlarining hosil qilinishi sintezning fiziologik asosini tashkil etadi.

Analiz va sintez hamma vaqt o'zaro bog'liqdir. Ular o'rtasidagi ajralmas birlik taqqoslash bilan bog'liq bo'lgan bilish jarayonining o'zidayoq yaqool namoyon bo'ladi. Tevarak-atrofdagi olam bilan tanishishning dastlabki bosqichlarida turli ob'yektlar avvalo taqqoslash yo'li bilan bilib olinadi. Ikkita yoki bir necha narsalarni har qanday taqqoslash ularni bir-biri bilan solishtirib ko'rishdan yoki munosibini topishdan, ya'ni sitezdan boshlanadi.

Taqqoslanayotgan narsalarni umumlashtirishda-ularning analiz qilish natijasida qandaydir umumiylik bo'ladi. Turli ob'yektlar uchun umumiy bo'lgan bu xususiyatlar ikki xil bo'ladi.

- 1) o'xshash tarzdagi umumiylik va
- 2) muhim belgi tarzidagi umumiylik.

Tafakkur jarayonini avvalo analiz, sintez va umumlashtirishdir. Analiz-ob'yektning u yoki bu tomonlarini, elementlarini, xossalarini, bog'lanishlarini, munosabatlarini va boshqa shu kabilarni ajratib olib, o'rganilayotgan ob'yektni har-xil komponentlarga (tarkibiy qismlarga) bo'lish demakdir. Masalan, o'quvchi yosh texniklar to'garagi Mashg'ulotlarida qandaydir mexanizm yoki mashinaning harakat qilish uslubini tushunishga o'rganib, dastavval bu mexanizmning har xil elementlarini, bo'laklarini ajratadi va uni alohida qismlarga bo'lib tashlaydi. Boshqacha qilib aytganda, manna shu oddiy hodisalar o'quvchi o'rganayotgan ob'yektni bo'laklarga ajratib, tahlil qiladi.

Bir butun narsani analiz qilish natijasida ajratilgan komponentlarni birlashtirish sintezdir. Sintez jarayonida bilinayotgan ob'yektning ajratib olingan elementlarni birlashtirish, joy-joyiga qo'yish yuzaga keladi. Masalan, o'quvchi mexanizmning ajratib olingan qismlarini bir-biri Bilan taqqoslaydi, ular o'rtasida aloqa o'rnatadi va bir qismning boshqa qismlarga qanday ta'sir qilishini tushuna boshlaydi. Natijada sintez amalga oshiriladi, ya'ni har turli elementlar o'rtasida aloqa va o'zaro munosabat o'rnatiladi. Bosh miyaning po'stloq qismida muvaqqat nerv bog'lanishlarining hosil qilinishi sintezning fiziologik asosini tashkil etadi.

Psixologiyada tafakkur turlarining quyidagi sodda va birmuncha shartli klassifikasiyasi tarqalgandir:

- 1) ko'rgazmali harakat
- 2) ko'rgazmali-obrazli

- 3) mavhum (nazariy) tafakur
- 4) mavhum (nazariy) tafakkur.

Tarixiy taraqqiyot davomida odamlar o'z oldilarida turgan masalalarni dastlab Amaliy tafakkuri faoliyat nuqtai-nazaridan yechganlar; keyinchalik undan nazariy yerni dastavval ajralib chiqqan. Masalan, bizning uzoq avlodimiz yerni dastavval Amaliy (qadamlab va xakzo) ravishda o'lchashga o'rgangan va shundan keyingina manna shunday Amaliy faoliyat davomida to'plangan bilimlar asosida, asta-sekin maxsus nazariy Fan sifatida geometriya Fani yuzaga kelgan va rivojlangan. Amaliy va nazariy faoliyat o'zaro chambarchas bog'langandir. «g'oyalar, tasavvurlar va ong ishlab chiqarishi dastavval bevosita moddiy faoliyatga qo'shilib ketgan bo'ladi...». Bu shuni anglatadik, sof nazariy faoliyat birlamchi emas, balki Amaliy faoliyatning o'zi birlamchidir. Amaliy faoliyatning taraqqiyoti davomida undan nisbatan mustaqil nazariy firka yuritish faoliyati ajralib chiqadi.

Ko'rgazmali-obrazli tafakkur sodda formada ko'pincha paydo bo'ladi. Bu yoshdagi bolalarda tafakkurning Amaliy harkatlar Bilan aloqasi garchi saqlanib qolsa ham, lekin bu aloqa avalgidek mustahkam, to'g'ri va bevosita bo'lmaydi. Bola bilayotgan ob'yektini analiz va sintez qilishi davomida qiziqtirayotgan narsasini qo'llari Bilan albatta va hamma vaqt ham ushlab ko'rishi shart emas. Juda ko'p holarda sitemali ravishda ob'yektni Amaliy timirskilab ko'rish talab qilinmaydi. Lekin barcha hollarda mazkur ob'yektni aniq idrok qilish yaqqol tasavvur etish shartdir. Boshqacha qilib aytganda, bog'cha yoshidagi bolalar faqat ko'rgazmali obrazlar Bilan fikr yuritadilar va hali tushunchalarga ega bo'lmaydilar. Yetti yoshga yaqin bolalarga xamirdan qilingan mutlaqo bir xil va hajm jihatidan bab-baravar soqqalar ko'rsatiladi. Har bir bola ko'rsatilgan narsalarga diqqat Bilan qaraydi va ular o'zaro bir-biriga teng deb aytadi. Shundan so'ng bolalarning ko'zlari oldida soqqaning bittasi ezib ezib non shakliga keltiriladi. Bolalar yassilantirib non shakliga keltirilgan soqqaga ozgina bo'lsa ham xamir qo'shilmaganini, faqat uning shakli o'zgartirilganini ko'rib turadilar. Shunga qaramay, tekshirilayotgan bolalar, non shakliga keltirilgan soqada xamirning miqdori ortgan deb hisoblaydilar.

Bu yerda gap shundaki, bolalarning ko'rgazmali-obrazli tafakurlari hali ularning idroklariga bevosita va to'la bo'ysungan bo'ladi. Shuning uchun ular ko'rayotgan narsalarning so'zga ravshanroq tashlanib turgan ayrim xususiyatlaridan tushunchalar yordami Bilan hozircha chetlasha, mavhumlasha olmaydilar. Ular ana shu non shakliga aylantirilgan soqqa haqida o'ylab, unga qaraydilar va non shaklidagi xamir stol ustida ko'proq joyni egallab turganini (fazodan ortiqroq o'rin egallaganini) darhol ko'radilar. Ularning ko'rgazmali obrazlar shaklida o'tadigan tafakurlari (idrokning ketidan) bolalarni soqqaga qaraganda nondagi xamir ko'proq degan xulosaga olib keladi.

Maktab o'quvchilarining turli fanlar-matematika, fizika tarix asoslarini o'zlashtirishlari davomida tushunchalarni egallashlari ularning aqliy taraqqiyotlari uchun katta ahamiyatga egadir. Matematika, geografiya, fizika, biologiya va boshqa ko'plab tushunchalarni maktab ta'limi davomida tarkib toptirish va o'zlashtirish juda ko'p tadqiqotlarning predmetini tashkil va o'zlashtirish juda ko'p tadqiqotlarning predmetini tashkil etadi.

NUTQ

Nutq bu ogzaki kommunikasiya, ya'ni til yordamida munosabat qilish jarayoni demakdir.

Ijtimoiy tajribada biron-bir mohiyatni angalatadigan so'zlar ogzaki kommunikasiya vositasi hisoblanadi. So'zlar eshittirib yo ovoz chiqarmasdan aytilishi, yozib qo'yilishi, yoki kar-soqov kishilarda bironbir mohiyatga ega bo'lgan imo-ishoralar bilan almashtirilishi (buni kar bir harf barmoqlar harakati bilan ifoda etiladigan daktilologiya va imo-ishora butun bir so'z yoki so'zlar turkumini angalatadigan imo-ishorali nutq deb ataladi) mumkin. Quyidagi nutq turlari farq qilinadi:

Yozma va ogzaki nutq. O'z navbatida ogzaki nutq dialogik va monologik nutqlarga ajratiladi. ogzaki nutqning eng sodda turi dialog, ya'ni Allaqanday masalalarni birgalikda muhokama qilayotgan va hal etilayotgan hamsuhbatlar tomonidan olib boriladigan suhbat hisoblanadi. Gapirishayotganlarning bir-birlariga muqmalari, suhbatdoshidan keyin iboralarni va ayrim so'zlarni takrorlash, savollar berish, qo'shimchalar qilish, izoh berish, faqat so'zlashayotganlar tushunadigan shartlar qilish, turli xil yordamchi so'zlar va undovlar so'zlashuv nutqi uchun xos xususiyatdir.

Ogzaki nutqning ikkinchi bir turi monologik nutq bo'lib, uni bita kishi boshqasiga yoki uni tinglayotgan ko'plab o'quvchining kengaytirilgan javobi, doklad vash u kabilar murakkab bo'lib, fikrning tugallanganligini, grammatik qoidalarga ancha qat'iy amal qilinishini, monolog aytayotgan kishining bayon etmoqchi bo'lgan fikrda qat'iy mantiq dialogik va izchillik bo'lishini taqozo etadi. Monologik nutqni egallash nutqqa nisbatan katta qiyinchiliklar tug'diradi, uning kengaytirilgan shakllari ontogeneza (yuzagakela boshlaganidan takomillashuviga qadar) kechikibroq rivojlanadi, o'quvchilarda bu nutqni shakllantirish maxsus vazifa hisoblanadi va pedagoglar uni ta'limning qator yillari mobaynida bajarishlariga to'g'ri keladi. qiynalmasdan, bemalol suhbatlasha oladigan, lekin oldindan yozilgan tekstdan foydalanmasdan monologik xarakterga ega bo'lgan ogzaki axborot bilan chiqishga qiynaladigan katta yoshli odamlar uchrab turishi tasodifiy hol emas. Ko'pincha bu o'qituvchilarning o'quvchilarda monologiknutqni shakllantirish ishiga yetarli e'tibor bermaganliklari oqibati hisoblanadi.

Yozma nutq insoniyat tarixida og'zaki nutqdan ancha keyin paydo bo'ldi. U bir-birlaridan makon va zamonk bilan ajralib turuvchi odamlar o'rtasidagi munosabat qilish ehtiyojining natijasi sifatida yordamida ifoda etiladigan paytlardagi piktografiyadan minglab so'zlar bir necha o'nlab harflar yordamida ifoda etilayotgan hozirgi zamon yozuviga qadar rivojlanadi.

Nutq o'zining fiziologik negiziga ko'ra eshitish va harakat analizatorlari faoliyatini bajaradi. Miya qobig'ida tashqi olam tomonidan bo'ladigan turli xil qo'zg'atuvchilar Bilan so'zlarning talaffuz qilinishini boshqarib turadigan tovush paychalari, hiqildoq, til va boshqa a'zolar harakati o'rtasidagi muvaqqat bog'lanishlar o'rnatiladi. Nutq ikkinchi signallar sistemasi negizida amal qiladi. So'z, I.P.Pavlov aytganidek, «signallar signali» dir.

Nutqiy fikr-mulohazani kodlashtirish va kodini ochish jarayonlari og'zaki munosabatda muvaffaqiyat keltiradigan aqLiy markazlar va sistemalar saqlanib qolgan taqdirdagina yuz beradi. Mabodo Ushbu sistemalar ishida buzilishlar ro'y bersa, kishi nutqida turli xildagi buzilishlar-afaziyalar (so'zlashish va tushunish qobiliyatining yo'qotilishi) sodir bo'ladi. Ba'zi hollarda jumla tuzish qobiliyati yo'qolib qoladi-yu, lekin nutqni tushunish qobiliyati saqlangan bo'ladi, boshqa bir hollarda garchi bemor so'zlarini to'g'ri tanlasa ham nutqi aniq bo'lmaydi, ya'ni dizatriya (talaffuzdagi buzilish) paydo bo'ladi, uchinchi bir holda fikrni bayon qilish imkoniyatlari saqlanib qolgan taqdirda ham nutqiy fikr-mulohazani idrok etish imkoniyati yo'qoladi va hakoza.

Kishi ehtiyojlari azaldan agar u boshqa odamlar Bilan birgalikda harakat qilgan holda o'zaro munosabatga kirishgan taqdirdagina qondirilishi mumkin bo'lib kelgan. Bu hol sub'yektda uning uchun nima muhim va ahamiyatli ekanligini aytish ehtiyojini keltirib chiqaradi. Bola aniq-ravshan nutqni egalay boshlaydi, birinchi yoshining oxiriga yetganda buning dastlabki belgilari paydo bo'ladi. Murakkab talaffuzni talab qilmaydigan va oson aytiladigan «o-pa», «da-da», «bu-vi» va shu kabi ohangdosh so'zlar jumlasidandir. Katta yoshdagilar bu hamohanglikni konkret shaxslarga-ona, ota, buviga yuog'laydilar va bolada anna shu ohangdosh so'zlarning uning yaqin-atrofidagi konkret shaxslar Bilan bog'lanishi qaror topishiga («bu sening buving») yordamlashadilar.

Shundan keyin ana shu ohangdoshlarning har biri so'zga aylanadi. Ushbu so'ni kattalar Bilan birgalikdagi harakatlarini tashkil etish uchun qo'llaydi. «Buvi» so'zi endi uning kundalik ehtiyojlarini qondirish vositasi sifatida ishlatiladi. Bola so'zni talaffuz qilarkan, istaganiga erishiga-e'tibor qilinishiga, erkalatilishiga, o'yinchoq vash u kabilarga erishishga intiladi. So'z aloqa vositasiga aylanadi. Qo'llaniladigan so'zlar soni borgan sari to'xtovsiz orta boradi va ikki yoshga to'lgan kezida bolalarning so'z boyligi haddan ziyod kengayibgina qolmasdan, balki ularning grammatik shakllarini to'g'ri ishlatilishi ham mumkin bo'lib qoladi, jumlarlar murakkablashib va uzunroq qilib

tuzila boshlaydi. Bolaning tili maktab yoshigacha tuzila boshlaydi, bolaning tili maktab yoshigacha bo'lgan yillar davomida boyib boradi.

Odamlarda samarali muomala o'rnatish malakalari tasofdifiy ravishda tarkib topadi yoki ta'limning yordamchi mahsuli sifatida yuz beradi (birinchi sinf o'quvchisi «to'laqonli javob qaytarishiga, katta yoshdagi kishi unga murojaat qilayotganda o'rnida turishga va hokozolarga o'rgatiladi). Katta maktab yoshida o'quvchilar hulq-atvor qoidalariga bag'ishlangan maktab yoshida o'quvchilar xulq-atvor qoidalariga bag'ishlangan ommabop adabiyotlarni (qisman oilaviy hayot etikasi va psixologiyasi kursida) o'qirgan, muomala madaniyatining ba'zi jihatlari Bilan tanishadi. Lekin muomala malakalarining mahsus o'rgatilishi alohida bir vazifa bo'lib, pedagog uchun uning qanchalik muhim ekanligini ta'riflash treningi, ya'ni muomalaning Mashq qilinishi bu vazifani hal etish yo'llaridan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Sosial-psixologik trening mazmunan ikki xil vazifani: birinchidan, muomalaning va, shu jumladan, pedagogik muomalaning umumiy qonuniyatlarini o'rganishini, ikkinchidan, pedagogik kommunikasiyaning «texnologiyasi»ni egallash, ya'ni professional pedagogik muomala ko'nikma va malakalari shakllantirilishini o'z ichiga oladi.

Shunday qilib, sosial-psixologik trening problemasining nazariy va Amaliy tomonlari ajratib ko'rsatiladi. Amaliy tomoni o'quvchilar Bilan bo'ladigan muomala ko'nikmalari va malakalarini egallashga va ularni chiniqtirishga qaratilgan MashqLar: darsning barcha bosqichlarida izchillik Bilan harakat qilish malakalarini (asosan makatbdagi pedagogik praktika jarayonida tobiga yetkaziladi), pedagogik ish davomida mushaklarning zo'riqishini so'ndirish malakalarini, ihtiyoriy diqqatni taqsimlash malakasini shakllantirishga, kuzatuvchanlikni namoyon qilishga qaratilgan Mashqlarni taqozo etadi.

XAYOL

gipertolizasiya, sxematizasiya, kata yarim sharlar po'stlog'i, nerv orzu.

Hayol yoki fantaziya, tafakkur kabi, yuksak bilish jarayonlari qatoriga kirib, kishining o'ziga xos insoniy xarakterga ega bo'lgan faoliyatlarida namoyon bo'ladi. Mehnatning tayyor natijasini hayolga keltirmay turib, ishga kirishib bo'lmaydi. Fantaziya yordami Bilan kutilayotgan natijani tasvvur qilish-inson mehnatining hayovonlar instinktiv faoliyatidan tub farqidir. Istalgan mehna jarayoni zarur tarzda hayolni o'z ichiga qamrab oladi. Hayol badiiy, konstruktorlik, ilmiy adabiy, muzikavyi va umuman ijodiy faoliyatning zarur tomoni sifatida namoyon bo'ladi.

Hayol inson ijodiy faoliyatining zarur elementi bo'lib mehnatning oxirgi va oraliq muhsulotlarida o'z ifodasini topadi, shuningdek problemali vaziyat noaniqlik ko'rsatgan hollarda xulq-atvor programmasini tuzishni ta'minlaydi. Shuning Bilan birga hayol aktiv faoliyatni programmashtiruvchi

emas, balki uning o'rnini almashtiruvchi timsollar hosil qilish vositasi sifatida yuzaga chiqadi.

Hayolning psixik jaryon sifatidagi birinchi va muhim vazifasi shundan iboratki, u mehnatni boshlamasdan oldin uning natijasini tasavvur qilish imkoniyatini beradi. Hayol mehnatning faqat so'nggi natijasinigina emas (masalan, bitkazilgan tayyor mahsulot sifatidagi stol), balki mehnatning oraliq mahsulotlarini (mazkur holda stolni yasab bitkazish uchun tayryolanadigan datellarni ham) tasavvur qilish imkoniyatini beradi. Binobarin, hayol odamga faoliyat jaravyonida mehnat mahsulotlarining oxirgi yoki oraliq psixik modellarini hosil qilish yo'li Bilan yo'l-yo'riq ko'rsatadi. Bu esa mehnat mahsulotlarini narsalar sifatida gavdalandirishga yordam beradi.

Hayol tafakkur bilan mahkam bog'langandir. Hayol ham tafakkur singari, kelajakni oldindan ko'rish imkoniyatini beradi.

Tafakkur bilan hayol o'rtasidagi umumiylik hamda ular o'rtasidagi farqlar nimalardan iborat? Hayol tafakkur singari, musammoli vaziyatda, ya'ni masala yechishning Yangi usullarini qidirib topishda yuzaga keladi.

Shunday qilib, faoliyat boshlanadigan muammoli vaziyatda ana shu faoliyatning natijalarini ong Bilan ko'ra bilishning ikkita sistemasi: tashkil qilingan obrazlar (tasavvurlar) sistemasi va tashkil qilingan tushunchalar sistemasi bordir. Obrazlarni tanlash imkoniyati hayolning asosida, tushunchalarni yangicha qo'shib uy g'unlashtirish esa. Tafakkurning asosida bo'ladi. Ko'pincha munda shunday ish birdagina «ikki qavat»da amalga oshadi, chunki obrazlar va tushunchalar sistemasi o'zaro mahkam bog'liqdir. Masalan, harakat usuli harakatning qanday amalga oshirilishi haqidagi yorqin tasavvurlar Bilan organik ravishda qo'shilib ketgan mantiqiy muhokama yuritish orqali amalga oshiriladi.

Muammoli vaziyat xarakterlanadigan turli sharoitlarga bog'liq ravishda aynan bir masalaning o'zi ham hayolning yordami Bilan, ham qat'iy tafakkur Bilan yechilishi mumkin. Vaziyatning noaniqligi nihoyatda katta bo'lganda, deb xulosa chiqarishga asos bordir. Vaziyat qanchalik odatdagidek, aniq va ma'lum bo'lsa, fantaziya uchun shunchalik kam o'rin qoldirad o'z-o'zidan ko'rinib turibdi-ki, asosiy qonunlar ma'lum bo'lgan sohadagi hodisalar uchun hayoldan foydalanishga hech qanday hojat yo'qdir. Biroq vaziyat haqida juda taxminiy ma'lumot bo'lsa, aksincha, tafakkur yordami Bilan javob topish qiyin bo'ladi. Bu yerda fantaziya o'z o'rnini egallaydi.

Hayol o'zining aktivligi va faolligi Bilan xarakterlanadi. Shuning Bilan birga hayol apparati faqat atrofdagi olamni o'zgartirishga qaratilgan shaxs ijodiy faoliyatning sharti sifatida foydalanishi mumkin va foydalaniladi. Ayrim hollarda hayol faoliyatning o'rnida, uning sun'iy aralashmasi sifatida harakat qilishi mumkin. Mana shu hollarda odam o'ziga hal qilib bo'lmaydigandek ko'rinadigan masalalardan, turmushning og'ir sharoitlaridan, o'z xatolarining

ta'qibidan vash u kabilardan yashirinish uchun real tasavvurlardan uzoq bo'lgan bo'lgan fantastika olamiga vaqtincha kirib ketadi. N.V.Gogol Manilov obrazini yaratib, foydasiz orzularda faoliyatdan qochishning qulay imkoniyatini topgan odamlar tipining umumlashtirilgan obrazni ifodalab beradi. Bu yerda fantaziya hayotda gavdalanmaydigan obrazlarni ifodalab beradi, amalga oshmaydigan va ko'pincha amalga oshirib bo'lmaydigan ish-harakat programmalarini belgilaydi. Hayolning bunday formasi passiv xayol deb ataladi. Passiv xayolni shirin xayol ham deb ataladi.

Passiv xayol o'ylab qo'yilmagan tarzda ham yuzaga kelishi mumkin. Bu asosan ong faoliyatining, ikkinchi signal sistemasining susayishida, kishining vaqtincha harakatsizlik holatida, affekt holatida, uyquda, ongning kasallikka uchrab buzilishida-gallyusinasiyada va shu kabilarda sodir bo'ladi.

Agar passiv xayolni oldindan o'ylab va o'ylamasdan qilingan turlarga bo'lish mumkin bo'lsa, aktiv xayolni ijodiy va qayta tiklovchi xayol turlariga bo'lish mumkin bo'ladi.

O'z asosida tasvirga muvofiq keladigan obrazlar sistemasini yaratuvchi hayol qayta tiklovchi hayol deb ataladi. Hoh darsliklarni hoh badiiy adabiyotni qo'yishda geografik kartani va tarixiy tasvirlarni o'rganishda hayol yordami Bilan bu kitoblarda, xaritalar va hikoyalarda aks ettirilgan narsalarni qayta tiklashga to'g'ri keladi.

Ijodiy hayol, qayta tiklovchi hayoldan farq qilgan holda, original va qimmatli moddiy mahsulotlarda amalga oshiriladigan Yangi obrazlarning yaratilishini taqozo qiladi. Mehnatda paydo bo'lgan ijodini hayol ehtiyojlarini qondirish yo'lini izlashda yaqool tasavvurlar Bilan aktiv va maqsadga muvofiq ish tutadigan texnik, badiiy va istalgan boshqa ijodiyotning ajralmas tomoni bo'lib qoladi.

Inson shaxsining qimmati ko'p jihatdan uning strukturasida hayolning qaysi turi ustunligiga bog'liqdir. Agar o'smirlar va hayolning qaysi turi ustunligiga bog'liqdir. Agar o'smirlar va yoshlarda konkret faoliyatlarda amalga oshiriladigan ijodiy hayollari passiv, quruq hayolparastlikdan ustunlik qilsa, bu shaxsning taraqqiyot darajasi yuksakroq ekanligidan dalolat beradi.

Odamga Amaliy va ijodiy faoliyatlarda yo'l ko'rsatuvchi fantaziya tarzlari qanday paydo bo'ladi. Hamda ularning tuzilishi qanday? Hayol jarayonlari, idrok, xotira va tafakkur jarayonlari kabi analitik-sintetik xarakterga egadir. Tahlil idrok va xotiradayoq ob'yektning ayrim umumiy, muhim belgilarini ajratish va saqlash hamda muhim bo'lmagan belgilaridan chetlashish imkoniyatini beradi. Bu tahlil sintez Bilan, ya'ni o'ziga yarasha etalon hosil qilish Bilan tugallanadi. Anna shunday etalon yordami Bilan butunlay o'zgartirib yuborilganda ham ma'lum o'xshashlik doirasidan chetga chiqmaydigan ob'yektlarni bilish amalga oshiriladi. Tahlil va sintez hayolda

boshqacha yo'nalishga ega bo'lib, obrazlar Bilan qilinadigan faol jarayonlarda yuoshqa tendensiyalarni topib, ochib beradi.

Xotiraning asosiy tendensiyasi obrazlarni qayta tiklab, etalonga maksimal yaqinlashtirishda, ya'ni ilgari hayotda bo'lgan, idrok qilingan, tushunilgan, anglangan ish-harakat yoki ob'yektni oqibat natijada aniq nusxasiga yaqinlashtirishdan iboratdir.

Hayolning asosiy tendensiyasi oqibat natijada mutlaqo Yangi, shu paytgacha hosil qilinmagan vaziyat modelini hosil qilishni ta'minlaydigan tasavvurlarni (timsollarni) qayta tuzishdan iboratdir. Har ikkala tendensiya sham nisbiy xarakterga egadir: biz o'z tanishimizni, garchi uning belgilari, kiyimlari, hatto ovozi sezilarli darajada o'zgarib ketgan bo'lishiga qaramay, juda ko'p yillardan so'ng ham taniy olamiz. Fantaziya yaratgan har qanday Yangi obrazda eskilik, ilgaridan ma'lum bo'lgan belgilar ko'rinib turadi.

Hayolni uning mexanizmlari jihatidan ta'riflarkanmiz shuni ta'kidlab o'tish kerakki, hayolning mohiyati tasavvurlarni qayta tuzish jarayonidan va o'zimdagi mavjud obrazlar asosida Yangi obrazlar yaratishdan iboratdir. Hayol, fantaziya real voqelikni Yangi, kutilmagan hamda odatdan o'zgacha qo'shilish va bog'lanishlarda aks ettirishdan iboratdir.

Xotiraning fiziologik asosi muvaqqat nerv bog'lanishlarining tutashishi va ularning keyinchalik aktualashishidan (qayta tiklanish, tormozlanmay qo'yishdan) iboratdir. Agar xotira jarayonlarida paydo bo'lgan bog'lanishlar keyinchalik Yana tiklansa, hayol jarayonida kishining hayoti davomida hosil qilingan bog'lanishlar sistemasi go'yo yemiriladi (buzilib ketadi) va Yangi sistemaga birlashadi.

HISSIYOT. IRODA

Kishi idrok etish. Xotirlash, hayol surish va tushuncha fikrlash jarayonlarida faqat voqelikni bilib qolmay, balki shu Bilan birga hayodagi u yoki bu narsalarga, qanday bo'lmasin, munosabat bildiradi, unda ularga nisbatan u yoki bu tarzda his-tuyg'u paydo bo'ladi. Bunday ichki shaxsiy munosabatning manbai faoliyat va munosabat jarayonlari bo'lib, u ana shu jarayonlarda ro'y beradi, o'zgaradi, barqaror tus oladi yoki yo'qoladi.

His-tuyg'ular-kishining o'z hayotida nimalar yuz berayotganiga, nimalarni bilib olayotganiga yoki nima Bilan mashg'ul bo'layotganiga, nisbatan o'zicha turli xil shaklda bildiradigan ichki munosabatidir.

His-tuyg'ularning kechishi sub'yekt alohida his etayotgan psixik holat sifatida gavdalanadi. Bunda Biron-bir narsani idrok etish va tushunib yetish, Biron-bir narsa to'g'risida bilib olish idrok etilayotgan, tushunib olinayotgan, ma'lum yoki noma'lum narsalarga nisbatan shaxsiy munosabat Bilan birlikda ro'y beradi. Ana shu holarning barchasida his-tuyg'ularning boshjan kechirilishi xususida, kishining alohida hissiy holati xususida gapiriladi. Shu

Bilan birga his-tuyg'ularning kechishi o'z rivojlanishiga ega bo'lgan, joriy va o'zgarib turadigan psixik jarayondir.

His-tuyg'ular shaxs jhtiyojlariga javob beradigan narsalarni aniqlab olishga yordam beradi va ularning qondirilishiga qaratilgan faoliyatga omil baxsh etadi. Ilmiy kashfiyot qilingan paytdagi quvonchli kechinmalar olimning izlanuvchanlik paytdagi quvonchli kechinmalar olimning izlanuvchanlik faoliyatini Rag'batlantiradi, bilish ehtiyojini, qondirish jarayonini jadal tarzda saqlaydi. Ehtiyoj namoyon bo'lishining alohida shakli sifatidagi qiziqish doimo yorqin hissiy tusga ega bo'ladi.

Kishi uchun sub'yektiv hisoblangan his-tuyg'ular uning ehtiyojlari qondirilish jarayoni qanday kechayotganligining belgisi sifatida namoyon bo'ladi. Munosabat va faoliyat jarayonida paydo bo'lgan ijobiy hissiy holatlar (zavqlanish, mamnunlik vash u kabilar) ehtiyojlarni qondirish jarayonining xush keladigan tarzda kechganligidan dalolat beradi. Ehtiyojlarning qondirilmasdan qolishi salbiy hissiy kechinmalarga (uyalish, o'kinish, hasrat vash u kabilarga) olib keladi. Barcha psixik jarayonlar kabi emosional holatlari ularning kechinishi ham miya faoliyatining natijasi hisoblanadi.

Emosiyalarning paydo bo'lishi tashqi olamda ro'y beradigan o'zgarishlar boshlanadi. Bu o'zgarishlar kishi hayoti va faoliyatining jonlanishiga yoki pasayishiga bir xil ehtiyojlarning paydo bo'lishiga yoki boshqalarning yo'qolishiga kishi, organizmi ichida yuz beradigan jarayonlardagi o'zgarishlarga olib boradi. His-tuyg'ular kechinishiga xos fiziologik jarayonlar ham murakkab shartsiz va shartli reflekslar Bilan bog'liqdir. Ma'lumki, shartli reflekslar sistemasi katta yarim sharlar qobig'ida tutashgan va mustahkamlangan bo'ladi, murakkab shartsiz reflekslar esa yarim sharlarning qobiq osti bo'lmalari miya o'qiga taalluqli ko'rish tepaliklari va (Nerv qo'zg'alishini miyaning oliy bo'lmalaridan vegetativ nerv sistemasiga yetkazib turadigan boshqa markazlar orqali amalga oshiriladi. His-tuyg'ularning kechirilishi miya qobiq'i va qobiq osti markazlarining birgalikdagi faoliyati natijasi hisoblanadi.)

Kishining tevarak-atrofida va uning o'zida yuz beayotgan o'zgarishlar kishi uchun kundalik katta ahamiyatga ega bo'lsa, his-tuyg'u kechinmalari ham shu qadar chuqur bo'ladi. Shunga ko'ra ro'y beradigan muvaqqat bog'lanishlar sistemasining jiddiy qayta qurilishi katta yarim sharlar qobiq'i bo'ylab tarqalgan hoda qobiq osti markazlariga ta'sir qiladigan qo'zg'alish jarayonlarini yuzaga keltiradi. Miyaning katta yarim sharlar qobiq'ining pastroqdagi bo'lmalarida organizm fiziologik faoliyatining pastroqdagi bo'lmalarida organizm fiziologik faoliyatining har xil markazlari: nafas olish, yurak qon tomirlari, ovqatni hazm qilish, ichki sekresiya bezlarini ishlatish va boshqa markazlar joylashgandir. Shuning uchun qobiq osti markazlarining qo'zg'atilishi bir qancha a'zolar faoliyatining kuchayib ketishiga olib keladi. Shu boisdan ham his-

tuyg'ularning kechirilishi nafas olish maromining (kishi hayajonlangandan bir lahza nafasi chiqmay qoladi, og'ir va o'xti-o'xtin nafas oladi) va yurak ish faoliyatining o'zgarnishi (yurak urishdan to'xtab qoladi yoki tez-tez ura boshlaydi) bir vaqtda sodir bo'ladi, organizmning ayrim qismlariga qon kelishi o'zgarib (uyalganidan rangi qizarib, qo'rqanidan oqarib ketadi.), sekresiya bezlarining ishi buziladi (g'am-g'ussa ko'z yoshi to'kilishiga sabachi bo'lsa, hayajonlanib ketganda og'iz quriydi. qo'rqanida badanda «sovuq» ter chiqadi) va hakoza. Tananing ichki a'zolarida yuz beradigan jaayonlarning qayd qilinishi va kishining o'zi tomonidan kuzatib borilishi nisbatan oson.

Ehtiyojlarning qondirilishi yoki qondirilmasligi kishida turli xil shaklni kasb etadigan o'ziga xos kechinmalarni: emosiyalarni, affektlar (hissiy bo'ronlar)ni, kayfiyatlarni, kuchli hayajonlanish (stress) holatlarini va xususan his-tuyg'ular (tor ma'nodagi so'z Bilan aytganda)ni hosil qiladi.

«Hissiyot» (emosiya) va «His-tuyg'u» degan so'zlar ko'pincha sinonimlar sifatida qo'llaniladi. Torroq ma'noda olganda, hissiyot bu qandaydir bir oz doimiyroq his-tuyg'ularning bevosita va vaqtincha boshdan kechirilishidan iboratdir. «Emosiya» so'zini o'zbek tiliga aniq tarjima qilinganda u ruhiy harakatlanish degan ma'noni anglatadi. Hissiyot deb, masalan kishining Musiqaviy asarga nisbatan o'rnashib qolgan xususiyati sifatidagi muhabbat tuyg'usining o'zini emas, balki konsert paytida yaxshi Musiqiy asrani eshitayotib, boshidan kechirgan lazzatlanish, zavqlanish holatiga aytiladi.

His-tuyg'ular-kishini shaxsning ancha yorqin ko'rinishlaridan biri bo'lib, u bilish jarayonlari va xulq-atvor hamda faoliyatini irodaviy boshqarish Bilan birgalikda namoyon bo'ladi. Shaxs o'zi bilib olayotgan va bajarayotgan narsaga uning barqaror munosabati his-tuyg'ularning mazmunini tashkil etadi. Shaxsni ta'riflash degani ko'p jihatdan muayyan konkret kishi umuman nimani sevadi, nimani yomon ko'radi, nimadan nafratlanadi, nima Bilan faxrlanadi, nimadan xursand bo'ladi, nega uyaladi, nimaga havas qiladi va hakoza degan ma'noni anglatadi. Indivdnnin barqaror his-tuyg'ulari predmeti, ularningjadalligi, kechinmalarning xususiyati va hissiyotlari, affektlar, kuchli hayajonlanish holatlari va kayfiyatlari shaklida tez-tez namoyon bo'lishi kuzatuvchi ko'z o'ngida kishining individualligini namoyon etadi. Aynan shuning uchun ham hissiy jarayonlarni tahlil qilish vaqtida o'tkinchi holalarni o'rganishdan kishi shaxsini belgilaydigan barqaror his-tuyg'ularga o'tish lozim.

IRODA. Odamlar tevarak-atrofdagi narsalar va hodisalarni bilib oladilar hamda o'zlarining shaxsiy ehtiyojlarini va ular mansub bo'lgan jamiyat ehtiyojlarini qondirish jaryonida uni qayta o'zgartirishga qaratilgan faoliyatda ularga nisbatan his-tuyg'uni boshdan kechiradilar.

Kishining faoliyati-xususiy vazifalar hal etilayotgan boshqa bir amaldan kelib chiqadigan bita va birgalikda bog'langan sistemadir. Harakatlar istalgan, kishi qilayotganiga o'xshash mAqsad kabi tafakkur etiladigan yoki

ifodalanadiga natijani olishga qaratilgan bo'ladi. Bu reja ish jarayonida bir qator tafakkur va tasavvurlar tarzida kengayadi hamda kuchi, tezligi, ko'lami, muvofiqligi, aniqligi bo'yicha belgilangan harakatlar yordamida amalga oshiriladi, hayotga tatbiq etiladi. Alohida harakatlarni tashkil etadigan harakatlarni bajarish va nimani, qanday va qay tarzda qilish kerakligini ko'rsatadigan fikriy opersiyalar amalga oshirilayotgan paytda predmetga ham, qurollarga ham, mehnat jarayonining o'ziga ham diqqat jamlanadi, kuchaytiriladi. Shu Bilan birga harakat jarayonida u yoki bu his-tuyg'ular boshdan kechiriladi: to'sqinlik va qiyinchilikdan qoniqmaslik va tashvish tortish hamda sezilayotgan kamchiliklarni muvaffaqiyatli bartaraf etishdan qanoat hosil qilish, mehnat ko'tarinkiligi va charchaganligi, shuningdek mehnatning o'zidan quvonch tuyg'usi.

Iroda-bu kishining oldiga qo'yilgan maqsadlarga erishishda qiyinchiliklarni yengib o'tishga qaratilgan faoliyati va xulq-atvorini ongli ravishda tashkil qilishi va o'z-o'zini boshqarishi demakdir.

Iroda-bu shaxs faolligining alohida shakli, uning xulq-atvorini tashkil etishning u tomonidan qo'yilgan maqsad Bilan belgilanadigan alohida turidir.

Iroda tabiat qonunlarini egallab oladigan vash u tariqa uni o'z ehtiyojlariga ko'ra o'zgartirish imkoniyatiga ega bo'ladigan kishining mehnat faoliyatida paydo bo'ladi.

Iroda o'zaro bog'liq ikkita vazifaning-undovchi va tormozlash (to'xtatuvchi) vazifalarning bajarilishini ta'minlaydi va ularda o'zini namoyon qiladi.

Undovchi vazifasi kishining faolligi Bilan ta'minlanadi. Harakat oldingi vaziyat (chaqiriqqa nisbatan kishi aylanib qaraydi, o'yinda tashlangan to'pni qaytaradi, qo'pol so'zdan xafa bo'ladi va hakoza) Bilan bog'liq bo'lgan paytdagi reaktivlikdan farqli o'laroq faollik harakatning Ayni o'zida namoyon bo'ladigan ichki holatiga nisbatan sub'yektning o'ziga xos xususiyatini kuchga kiritish harakatini chiqaradi (zarur axborotni olishga ehtiyoj sezayotgan kishi o'rto'g'ini chaqiradi, jahli chiqqan holatda yonveridagilarga qo'pollik qilishga yo'l qo'yadi va hakoza).

Filosofiya va psixologiyada idealizm kishi irodasini alohida, hech narsa Bilan belgilamaydigan va hech narsaga bog'liq bo'lmagan (ya'ni indeterministik), kishiga u yoki bu harakatni tanlash va amalga oshirish imkonini beradigan kuch deb qaraydi. Bunda butun psixik faoliyat hech narsa Bilan belgilanmaydigan, ongsiz ravishda bo'ladigan eng dastlabki faollikka bo'ysungan bo'ladi. Amerika psixologi U. Jems harakatda hech narsaga bog'liq bo'lmagan irodaviy hukmga yetakchi rol beradi. Obrazli tarzda bu quyidagicha tasavvur qilinardi: kishi o'z-o'ziga «Fiat» (lotincha «ha bo'la qolsin!» degan ma'noga ega bo'lgan so'zni bildiradi) deydi va go'yo ana shu birinchi galgi mistik turtki Bilan belgilanmagan holda ish amalga oshiriladi.

amalda kishining ishlari va harakatlari ob'yektiv ravishda belgilangandir. Irodaviy harakatni o'z ichiga oladigan motivlar hozi va o'tmishda o'rin olgan tashqi ta'sirlar natijasi tariqasida, kishining psixik rivojlanishi jarayonida uning hayot va faoliyat hodisalari Bilan faol munosabati natijasida tarkib topadi va yuzaga chiqadi.

Kishining tavakkalchilik sharoitidagi hatti-harakati irodaning xarakterli kurinishlaridan biri sifatida namoyon buladi.

Tavakkalchilik-bu sub'yekt uchun uning cheki noma'lum va muvaffaqiyatsizlikka duch kelganda mumkin buladigan noqulay oqibatlar (jazolash, og'riq ta'sirini o'tkazish, travma, obro'ni yo'qotish va shu kabi) haqidagi taxminlar mavjudligi sharoitidagi faoliyatning xarakteristikasidir. Tavakkalchilik paytida kutilayotgan noxushlik bunday holatdagi muvaffaqiyatsizlik ehtimoli va noqulay oqibatlar darajasining uyg'unlashtirilishi Bilan belgilanadi. Shunday savol tug'iladi: agar mag'lubiyat ehtimoli va noqulay oqibatlar darajasining uyg'unlashtirilishi Bilan belgilanadi. Shunday savol tug'iladi: agar mAg'lubiyat ehtimoli ko'p bo'lsa, mAg'lubiyat uchun esa jazo ancha kuchli bo'lsa, mag'lubiyat ehtimoli ko'p bo'lsa, mAg'lubiyat uchun esa jazo ancha kuchli bo'lsa, kishi nimani deb tavakkal qiladi? Psixologiya tavakkal qilish uchun zarur shart sifatida irodaning qo'shilishini nazarda tutuvchi tavakkal qilish xatti-harakatning ikkita o'zaro bog'langan sababini ajratib ko'rsatadi.

Tavakkalchilikning birinchi sababi va tegishli ravishda tavakkalchilikning birinchi turi bu yutuqqa umid bog'lash, muvaffaqiyat qozonilganda kutilayotgan kattalikning muvaffaqiyatsizliklar oqibati darajasidan ortirishdir (situativ tavakkalchilik). Bu o'rinda muvaffaqiyat motivasiyasi muvaffaqiyatsizlikdan qutilib qolish motivasiyasidan kuchliroqdir. Agar kundalik xulq-atvor ishlar uchun qarama-qarshi bog'lanishligi e'tiborga olinadigan bo'lsa- muvaffaqiyat motivasiyasidan kattaroq kuchga ega bo'ladi, bunda shu narsa ravshan bo'ladi-ki tavakkalchilik -qaror qabul qilish uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan voqeadir. Lekin bunday xulq-atvor, garchi kishidan irodaviy qarorni talab qiladigan bo'lsa-da unchalik noyob narsa emas.

Irodani asosini, huddi umuman sub'yektning faolligi kabi, unin hatti-harakatlari va ishlarining ko'p tarmoqli va xilma-xil motivlashtirilishiga sabab bo'luvchi ehtiyojlari tashkil etadi.

Psixologiyada motivlashtirish deganda psixologik hodisalarning o'zaro mustahkam bog'langan lekin bir-biriga to'la mos kelmaydigan nisbatan mustaqil uchta turi tushuniladi. Bu, birinchidan, individning ehtiyojlarini qondirish Bilan bog'liq bo'lgan faoliyatga undovchi sifatida namoyon bo'luvchi motiv sifatidagi motivlashtirishdir. Bu holda motivlashtirish faollik holati umuman nima uchun paydo bo'lishini, sub'yektni faoliyat ko'rsatishga qanday ehtiyojlar undayotganini izohlab beradi.

Ikkinchidan, motivlashtirish faollik nimaga qaratilganligini, nima uchun qandaydir boshqa xulq-atvor emas, balki xudi shunaqasi tanlanganligini izohlab beradi. Bu yerda motivlar xulq-atvor yo'nalishini tanlashni belgilaydigan sabablardir. Bular birgalikda kishi shaxsining yo'nalishini tashkil etadi.

Pedagogning vazifasi faqat irodaviy fazilatlar doirasini ko'rsatib berishdan, ularning ahloqiy prinsiplari bilan ichki aloqasini ochib berishdan tashqari o'z irodasini o'zi tarbiyalashga intiluvchi o'quvchiga yordam berish, irodaviy fazilatlarni rivojlantirishning qanday usullari kam samarador va qaysi birlari jiddiy yordam bermasligini ko'rsatishdan iboratdir. Irodani mustaqil tarbiyalashning ana shu samarasizligi eng avvalo shundaki, o'spirin bir lahzalik «irodaviy hatti-xarakat»ni amalga oshirib, o'zining irodasi kuchli ekanligi to'g'risidagi fikrni tasdiqlab oladi. Aslida esa irodani mustaqil tarbiyalashdek asosiy muammoni kundalik hayotda qo'yishda va birinchi navbatda uchraydigan qiyinchiliklarni muntazam ravishda bartaraf etish tashkil etadi.

TEMPERAMENT

Odamlar o'rtasidagi individual-psixologik tafovutlarda psixikaning dinamik deb atalmish xususiyatlari muhim o'rin egallaydi. Eng avvalo psixik jarayonlar va holatlar intensivligi darajasi, shuningdek, u yoki bu tezlikda kechishi nazarda tutiladi. Ma'lumki, odamlar xulq-atvor va faoliyat motivlari nisbatan teng bo'lganda, bir xil tashqi ta'sir etganda, bir-biridan ta'sirchanligiga va ko'rsatayotgan energiyasiga ko'ra sezilarli darajada farq qiladilar. Jumladan, bir xil kishi sekinlikni, boshqasi shoshilishni e'qtiradi, bir xil odamlarga hissiyotlarning tez uyg'onishi xos bo'lsa, boshqasiga esa sovuqqonlik xosdir, boshqa birovni kechikni imo-ishoralar, ma'noli mimika, boshqasini harakatlarda og'ir-bosiqlik, yuzining juda ham kam harakat qilishi ajratib turadi. Harakatlanish xususiyatlariga qarab farqlanishlar har qanday teng sharoitlarda individning umumiy faolligi, uning harakatchanligi va uning emosionalligiga binoan yuz beradi.

Individga xos dinamik fazilatlar o'zaro ichki bog'lanishga ega bo'lib, o'ziga xos tuzilishni tashkil etadi. Psixikaning individual jihatdan o'ziga xos, tabiiy jihatdan shartlashgan dinamik ko'rinishlari majmui kishining temperamenti deb ataladi.

Temperament «Temperament» termini antik fanning individi to'g'risidagi dual-psixologik farqlari tabiatiga bo'lgan tasavvurlar qarashlariga borib taqaladi. Qadimgi Yunon tarixi medisinasi uning yirik vakili Gippokrat (eramizdan oldingi v asr) siymosida organizmning holati asosan «sharbat»larning, ya'ni, organizmda mavjud suyuqliklarning (qon, limfa, o't) miqdoriy nisbatiga bog'liqdir, deb hisobladi. Bu sharbatlarning aralashtirilgandagi nisbati grekcha-siga «krasis» («go'zal» ma'nosida) so'zi bilan atalgan. Bir necha asr keyinroq ishlagan rimlik vrachlar bu tushunchani lotin-

cha temperamentum so'zi bilan ataganlar, bu «qismlarning tegishli nisbati» degan ma'noni bildiradi. Bundan «temperament» degan termin kelib chiqqan. Asta-sekin antik fanda odamlarning ruhiy xususiyati krasisga yoki temperamentga, ya'ni organizmda asosiy «sharbat»lar aralashib ketgan nisbatga bog'liq degan fikr qaror topdi. Eramizdan ilgari II asrda yashagan rimlik anatom va varch Galen birinchi bo'lib temperamentlarning kengaytirilgan tasnifini berdi: u 13 turni o'z ichiga qamrab oladi. Temperament to'rlari soni qadimgi medisina vakillari tomonidan keyinchalik to'rtga qadar kamaytirildi. Ularning har biri qandaydir suyuqlikning boshqalardan ko'pligi bilan ajralib turadi.

Kishining temperamenti qanaqaligi haqidagi tasavvur odatda shu shaxs uchun xarakterli bo'lgan ayrim tasavvur odatda shu shaxs uchun xarakterli bo'lgan ayrim psixologik xususiyatlar asosida vujudga keladi.

Sezilarli psixik aktivlika ega bo'lgan, atrofda bo'layotgan voqealarga tez munosabatini bildiruvchi taassurotlarni hadeb o'zgartirishga intiluvchi muvaffaqiyatsizliklar va ko'ngilsizliklarni nisbatan yengil utkazib yuboruvchi, jonli, xarakatchan, ifodali mimikasi va harakatlari bo'lgan kishi **sangvinik** deb ataladi.

Yuragi keng, barqaror intilishlarga va kayfiyatlarga, doimmiy va chuqur his-tuyg'ularga harakatlari va nutqi bir xil maromda bo'lgan, ruhiy holati tashqi tomonda ifoda etiladigan kishi **flegmatik** deb ataladi.

Juda g'ayratli ishga juda ehtiros bilan berilish qobiliyatiga ega bo'lgan, tez va shiddatli, qizg'in emosional «portlash» va kayfiyatning keskin o'zgarishlariga moyil, ildam harakatlar qiladigan kishi **xolerik** deb ataladi.

Ta'sirchan, chuqur kechinmali, gap kutara olmaydigan, ammo atrofdagi voqealarga usnchalik e'tibor bermaydigan, o'zini to'xtata oladigan harakatlar qiladigan va sekin ovoz chiqaradigan kishilar **melanxoliklar** deb ataladi.

I.P.Pavlovning nerv sistemasi turlari to'g'risidagi ta'limoti yoki xud hshuning uchun o'zi kabi oliy nerv faoliyatining turlari (inson va oliy sut emizuvchi hayvonlar uchun umumiy) temperamentlarni tadbiiy-ilmiy o'rganish tarixida chinakammiga keskin o'zgarish yasadi. Bu ta'limotni buyuk fiziolog ilmiy faoliyatining yakunlovchi bosqichida (20-30-yillar) ifodalab bergan edi.

I.P.Pavlovning laboratoriyalarida bosh miya katta yarim sharlari qobig'ining ishi umumiy xususiyatlari (itlarda tajriba o'tkazildi) bilan birga nerv faoliyatidagi farqlar kashf etildi va o'rganildi. It hatti-qarakatining o'ziga xosligi (masalan, tiyraklik va sustlik, dadillik yoki qo'rqqoqlik) asosiy nerv jarayonlarining ayrim xususiyatlari-hayajonlanish va tormozlanishga qonuniy ravishda mos kelganligi kuzatildi.

Nerv sistemasi turining navbatdagi ko'rsatkichi-qo'zg'alish kuchi bilan tormozlanish kuchi o'rtasidagi vazminlik ham juda ahamiyatlidir.

Qo'zg'atuvchi kuch bilan tormozlanish jarayonining kuchi hamisha bir-biriga to'g'ri kelavermaydi, ayrim vaqtlarda tormozlanish jarayoni kuchi jihatidan qo'zg'alish jarayonidan orqada qoladi va katta kuch bilan qo'zg'alish tormozlanish bilan to'la muvoviyqlasha olmaydi. Vazminlik darajasi turlicha bo'ladi.

Dinamik hislatlar xulq-atvorning faqat tashqi uslubida, faqat harakatlarda namoyon bo'lmaydi-ular aqliy sohada, istak mayl sohasida, umumiy ish qobiliyati sohasida ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Tabiiyki, temperamentning o'ziga xos xususiyati o'quv mashg'ulotlarida va mehnatda seziladi.

Nerv sistemasi nisbatan kuchsiz bo'lgan kishilarda hamisha bir hildagi ishning ayrim turlarida muayyan afzalliklar borligi aniqlandi: ularning yuqori sezgirligi ta'sirlanuvchanlikning pasayishidan, bunaqa paytlarda oson paydo bo'lishi mumkin bo'lgan uyquchilikning rivojlanishidan saqlaydi. Lekin ishning ayniqsa kuchli, kutilmagan yoki o'qitadigan qo'zg'aluvchilari bilan ishlashga to'g'ri keladigan turlarida kuchsiz tipdagi kishilar, aynan o'zlarining fiziologik xususiyatlariga ko'ra, ishni uddalay olmay qolishlari mumkin.

XARAKTER

Grekchadan tarjima qilganda «xarakter»-bu «zarb qilish», «belgi» demakdir. Haqiqatdan ham xarakter-kishining jamiyatda yashab egallaydigan alohida belgilaridir.

Xarakter-shaxsning faoliyat va muomalada tarkib topadigan va namoyon bo'ladigan barqaror individual xususiyatlari bo'lib, individ uchun tipik xulq-atvor usullarini yuzaga keltiradi.

Inson shaxsining xakteri hamisha ko'p qirralidir. Unda alohida xususiyatlar yoki tomonlar ajratib ko'rsatilishi mumkin, lekin ular bir-birlaridan ajratilgan, alohida holda mavjud bo'lmaydi. Balki ma'lum darajada xarakterning barqaror tuzilishini tashkil etgan holda o'zaro bog'liq bo'ladi.

Xarakterning strukturaliligi uning ayrim xususiyatlari o'rtasidagi qonuniy bog'liqlikda namoyon bo'ladi. Agar kishi qo'rqqoq bo'lsa, u tashabbuskorlik (o'zi aytgan taklif yoki hatti-harakatning noqulay tomonlaridan hadiksirab), qat'iylik va mustaqillik (qaror qabul qilish shaxsiy javobgarlikni taqozo etadi), fidokorlik va oliyximmatlilik (boshqa kishiga ko'rsatilgan yordam nimadadir uning shaxsiy manfaatiga ziyon yetkazishi, uning uchun xavfli bo'lishi mumkin) fazilatlariga ega bo'lmaydi, deb aytish uchun asoslar bor.

Xarakter sub'yektning birgalikdagi faoliyatga qay tarzda jalb qilinishiga qarab hatti-harakatlarda va ishlarda namoyon bo'larkan, munosabatlari ham faoliyat mazmuniga, ham qiyinchiliklarning muvaffaqiyatli yoki muvaffaqiyatsiz bartaraf etilishiga, ham asosiy hayotiy maqsadlarga erishishda uzoq va yaqin istiqbollarga borliq bo'lib qoladi. Xuddi temperament kabi xarakter ham kishining fiziologik xususiyatlariga va, avvalo, nerv sistemasi tipiga bog'liqdir. Temperamentning xususiyatlari xarakterning

ko'rinishlariga o'z ta'sirini ko'rsatadi, ularning paydo bo'lishi va kechishining **dinamik** xususiyatlarini belgilab beradi.

Temperamentning xususiyatlari xarakterning muayyan tomonlari rivojlanishiga qarshilik ko'rsatishi yoki yordam berishi mumkin. xolerik yoki singvinik tipdagi odam o'zida tashabbuskorlik va qat'iylikni tarkib toptirishi qiyinroqdir. Jur'atsizlik va vahimalilikni bartaraf etish melanxolik uchun jiddiy muammo hisoblanadi. Xarakterning kollektivda amalga oshiriladigan shakllantirilishi xolerik tipdagi kishilarda o'zini tuta bilishni va o'ziga tanqidiy ko'z bilan qarashni, sangviniklarda sabotlilikni, flegmatiklarda faollikni rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratadi.

Xarakter kishining tashqi ko'rinishiga ta'sir qilarkan, uning hatti-harakatlarida, xulq-atvorida, faoliyatida yorqin ifodasini topadi. Xarakter to'g'risida avvalo odamlarning hatti-harakatlari asosida hukm chiqarish kerak. Ularning mohiyati shu hatti-harakatlarda ancha to'laroq aks etadi.

QOBILIYATLAR

Ikki o'quvchi darsda tahminan bir xil javob berishdi. Lekin pedagog ularning javobiga har xil munosabat bildiradi; birini maqtaydi, boshqasining javobidan qanoatlanmaydi. «Ularning qobiliyatlari har xil,-deb tushuntirdi. Ikkitasi institutga kirypdi. Birovi imtihonlardan o'tdi, boshqasi muvaffaqiyatsizlikka uchradi. Bu ulardan birining qobiliyatlari ko'pligidan dalolat beradimi? Abituriyentlarning har biri tayyorlanishiga qanchadan vaqt sarflagani aniqmanmaguncha bu savolga javob berib bo'lmaydi. Bilim olishdagi muvaffaqiyat faktining birgina o'zi bilan qobiliyatni aniqlab bo'lmaydi.

Qobiliyatlar kishining shunday psixologik xususiyatlaridirki, bilim, ko'nikma, malakalar orttirish shu xususiyatlarga bog'liq bo'ladi, lekin shu xususiyatlarning o'zlari mazkur bilim, ko'nikma va malakalarga taalluqli bo'lmaydi. Aks holda imtihonda qo'yilgan baho, doska oldidagi javob muvaffaqiyatlari to'g'risida qat'iy xulosa chiqarish imkonini bergan bo'lur edi. Shu bilan birga psixologik tadqiqotlar va pedagogik tajriba ma'lumotlari guvohlik berishicha, ba'zan dastlab nimalarnidir bajara olmagan va bu bilan tevarak atrofdagilardan o'ngaysiz ajralib turgan kishi ta'lim olish natijasida favqulodda ko'nikma va malakalarni tez o'zlashtirib oladi va tezdayoq mahorat yo'lida hammani quvib o'tadi. Unda boshqalarga qaraganda zo'r qobiliyatlar namoyon bo'lsa ham, bilimlar va ko'nikmalar egallash bilan bog'lanib qolmaydi, qobiliyatlar va bilimlar, qobiliyatlar va malakalar, qobiliyatlar va ko'nikmalar aynan bir-biriga o'xshash emas.

Malakalar, ko'nikma va bilimlarga nisbatan kishining qobiliyatlari qandaydir imkoniyat sifatida namoyon bo'ladi. Tuproqqa tashlangan don ana shu dondan unib chiqishi mumkin bo'lganboshqqa nisbatan atigi imkoniyat bo'lib hisoblangani singari (lekin urug' tuproqning tuzilishi, tarkibi va namligi,

ob-havo va boshqalar qulay sharoit yaratsagina unib chiqadi) kishining qobiliyati bu bilimlar va ko'nikmalarni egallash uchun imkoniyat hisoblanadi, xolos. Bu bilim va ko'nikmalar egallanadimi yoki egallanmaydimi, imkoniyat haqiqatga aylanadimi yoki yo'qmi, bularning hammasi ko'plab sharoitlarga bog'liq bo'ladi. Shart-sharoitlar jumlasiga, masalan, kiradi: tevarak-atrofdagi odamlar (oilada, maktabda, mehnat kollektivida) kishining bu bilim va qanday ta'lim beradilar, ana shu malaka va ko'nikmalar kerak bo'ladigan va mustahkamalanadigan mehnat faoliyati qanday tashkil etiladi va hakoza. qobiliyatlar-bu imkoniyat, u yoki bu ishda mahoratning zarur darajasi esa voqelikdir. Bolada namoyon bo'lgan musiqiy qobiliyat uning musiqachi bo'lishi uchun biron bir darajada garov bo'la olmaydi. Bolaning musiqachi bo'lishi uchun unga maxsus ta'lim berilishi, pedagog va bola namoyish qolgan qat'iylik, salomatlikning yaxshi bo'lishi, musiqa asbobi, notalar va boshqa ko'plab shart-sharoitlar bo'lishi zarur. Bularsiz qobiliyatlar rivojlanmay turib so'nib ketishi mumkin.

Psixologiya qobiliyatlar va faoliyatning muhim komponentlari bo'lmish bilimlar, malakalar va ko'nikmalarning aynan bir xilligini inkor qilar ekan, ularning birligini ta'kidlaydi. Qobiliyatlar faqat faoliyatda, shunda ham faqat ana shu qobiliyatlarsiz amalga oshirishi mumkin bo'lmagan faoliyatdagina namoyon bo'ladi. Agar kishini rasm chizishga faoliyatdagina namoyon bo'ladi. Agar kishini rasm chizishga o'rgatishga hali urinilmagan bo'lsa, agar u tasviriy faoliyat uchun zarur bo'lgan hech qanday ko'nikmani egallamagan bo'lsa, uning rasm solish qobiliyatlari to'g'risida gap bo'lishi mumkin emas. Faqat rasm chizishga va tasviriy san'atga mahsus o'qitish jarayonida o'quvchida qobiliyatning bor yo yo'qligi aniqlanishi mumkin. Bu uning ish usullarini, rang munosabatlarini qanchalik tez va oson o'zlashtirib olishida, tevarak-atrofimizdagi olamda go'zallikni ko'rishga o'rganishida namoyon bo'ladji.

Bolada hali zarur ko'nikma va malakalar sistemasi, mustahkam bilimlar, tarkib topgan ish usullari yo'qligiga asoslanib, jiddiy tekshirib krmay, shoshilinch ravishda mazkur o'quvchida qobiliyatlar yo'qligi haqida xulosa chiqarish pedagogning jiddiy psixologik xatosi hisoblanadi. Bolalik paytida paytida kishida muayyan qobiliyatlarning atrofdagilar tomonidan tan olinmaganligi, keyinchalik ularni yanada rivojlantirish munosib shon-shuhrat keltirganligi hollari ko'plab uchraydi. Albert Eynshteyn o'rta maktabda uncha ya'shi o'qimagan o'quvchi hisoblanar va uning kelajakda geneialligidan, aftidan hech narsa dalolat bermas edi.

Shunday qilib, qobiliyatlar shaxsning mazkur faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish sharti hisoblangan va buning uchun zarur bilim, ko'nikma va malakalarni egallash dinamikasida yuzaga yaiqadigan farqlarda namoyon bo'ladigan individual-psixologik xususiyatdir. Agar shaxsning ma'lum sifatlar

yig'indisi odamning pedagogik jihatidan asoslanib berilgan vaqt ichida egallangan faoliyati talablariga javob bersa, bu narsa bizga unda mazkur faoliyatga qobiliyat borligi to'g'risida xulosa chiqarishga asos bo'ladi. Agarda boshqa kishi xuddi shunaqa boshqa sharoitlarda uning oldiga faoliyat ro'baro' qilayotgan talabalarning uddasidan chiqa olmasa, unda tegishli psixologik sifatlar, boshqacha so'zlar bilan aytganda, qobiliyatlar yo'q deb taxmin qilishga asos bo'ladi. o'z-o'zidan ma'lumki bunday odam zarur ko'nikma va bilimlarni umuman egallay olmaydi, degan ma'no kelib chiqmaydi. Bu ko'nikma va bilimlarni egallash cho'zilib ketadi, natijasi nisbatanoz bo'lsa ham favqulodda ko'p kuch-g'ayrat sarflanishi va shu kabilarni talab qilishini bildiradi. Bu hol biroz vaqt o'tgach, shuningdek, qobiliyatlarning rivojlanishi mumkinligini ham inkor etmaydi. Qobiliyatlar murakkab strukturaga ega bo'lgan psixik fazilatlar yig'indisidan iboratdir.

Qobiliyat sifatida namoyon bo'ladigan fazilatlar yig'indisining tuzilishi oqibat natijada konkret faoliyat talablari bilan belgilanadi.

Masalan, mavjud ma'lumotlarga ko'ra, matematikaga bo'lgan qobiliyatlarning tuzilishi bir qator xususiy bo'lgan qobiliyatlarni o'z ichiga oladi: matematik materiallarni umumlashtirish qobiliyati, matematik mulohaza yuritish jarayonini va tegishli matematik harakatlarni qisqartirish qobiliyati (izchil ko'p tabaqali mulohazalar qisqacha aloqalar bilan almashtiriladi, masalan idrok qilish va uning natijalari o'rtasidagi bevosita aloqa o'rnatishga qadar ish olib boriladi), fikr yuritish jarayonining qaytarilishi qobiliyati (ya'ni to'g'ri fikr yuritishdan teskari fikr yuritishga osonlik bilan o'ta olish qobiliyati), matematik masalalarni hal qilish chog'ida fikrlash jarayonining epchilligi va shu kabilar.

Konkret qobiliyatlar struktruasini tashkil etadiganshahs xislatlari va xususiyatlari orasida ba'zi birlari yetakchi o'rinni egallasa, ba'zi birlari yordamchilik rolini o'ynaydilar. Jumladan, pedagogik qobiliyatlar tuzilishida pedagogik odobi, qo'zg'atuvchanlik bilan qo'shib olib boriladigan bilim berishga ehtiyoj, yordamchilik tarzida shular jumlasiga kiradigan bir qator tashkilotchilik qobiliyatlari kompleksi va boshqalar yetakchi fazilatlar hisoblanadi. Yordamchi fazilatlarga quyidagilar kiradi: artisitlik, notiqlik ma'lumotlari va boshqalar. Mutlaqo ravshanki, pedagogik qobiliyatlarning ham yetakchi, ham yordamchi komponentlari ta'lim va tarbiyaning muvaffaqiyatini ta'minlaydigan birlikni hosil qiladi vashu bilan birga pedagog shaxsi va uning xususiyatlari bilan bog'langan individuallashtirishni tashkil qiladi.

Qobiliyatlar taraqqiyotining yuksak bosqichi iste'dod deb aaladi. Iste'dod bu kishiga qandaydir murakkab mehnat faoliyatini muvaffaqiyatli, mustaqil va original tarzda bajarish imkonini beradigan qobiliyatlar majmuasidir.

Qobiliyatlar kabi iste'dod ham faqat ijodiyotda yuksak mahoratga va anchagina muvaffaqiyatlarga erishish imkoniyatidan iboratdir. Oqibat natijada ijodiy yutuqlar odamlarning ijtimoiy-tarixiy hayot sharoitlariga bog'liqdir.

Iste'dodlarning uyg'onishi ijtimoiy shart-sharoitlarga bog'liqdir. Ma'lum qobiliyatlarning to'l-to'kis rivojlanishi uchun naqadar qulay sharoitlarning mavjud bo'lishi davlat uchun naqadar qulay sharoitlarning mavjud bo'lishi davlat oldida turgan qulay sharoitlarning mavjud bo'lishi davlat oldida turgan konkret vazifalarning xususiyatlariga va davr ehtiyojlariga bog'liq. Urush yillarida sarkardalik iste'dodlari jo'shqin rivojlanadi, tinchlik davrida injenerlik, konstruktorlik va shu kabi iste'dodlar rivojlanadi.

O'zidan oldingi barcha ijtimoiy formasialarga qarama-qarshi o'laroq, socialistik jamiyat har bir tomonlama rivojlanishiga to'la imkoniyat yaratib beradi. Bu imkoniyat xalq maorifi sistemasi bilan, fan va madaniyat taraqqiyotining yuksak darajasi bilan, halqning butun ijtimoiy hayoti tartibi bilan ta'minlanadi. Kishilarning Fan va texnika taraqqiyoti sohasidagi zo'r muvaffaqiyatlari va sport sohasidagi talablari-bularning hammasi bizda iste'dodlar juda ko'pligidan dalolat beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. I.A.Karimov. Yangi uy qurmay turib eskisini buzmag. «O'zbekiston» nashriyoti, Toshkent, 1993 yil
2. I.A.Karimov. Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. 1997 yil, 29 avgust
3. I.A.Karimov Yuksak ma'naviyat engilmas kuch. Toshkent-2008
4. Ta'lim to'g'risidagi Qonun. 1997 yil, 29 avgust
5. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi. 1997 yil, 29 avgust.
6. O'zbek tiliga davlat maqomi berish to'g'risidagi qonun. 1989 yil 21 oktabr, 1-modda
7. «Sog'lom avlod» davlat dasturi. 2002 yil 23 fevral
8. B.R.Qodirov. Izuchenie sklonnostey podroskov. Toshkent, 1996 yil
9. A.Petrovskiy. Umumiy psixologiya. Toshkent, «O'qituvchi», 1992 yil.
10. E.G'oziev. Psixologiya. Toshkent, «O'qituvchi», 1994 yil.
11. V.Karimova. Psixologiya. Toshkent, 2002 yil

Internet saytlari

1. [http: www.lib.psixology.msu.ru](http://www.lib.psixology.msu.ru)
2. [http: www.lib.psixology.ru](http://www.lib.psixology.ru)
3. [http: www.lib.psixology.rin.ru](http://www.lib.psixology.rin.ru)
4. [http: www.lib.psixology.narod.ru](http://www.lib.psixology.narod.ru)
5. [http: www.lib.psixology.narod.ru](http://www.lib.psixology.narod.ru)
6. [http: www.lib.psixology.ru](http://www.lib.psixology.ru)